

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
ZARMED UNIVERSITETI**



Eshonqulova Malika Zayniddin qizi

HUSNIXAT O‘QITISH METODIKASI

O‘quv qo‘llanma

**“KAMOLOT” nashriyoti
Buxoro-2025**

UO‘K: 7.03:373.5

KBK: 74.200

E75

Eshonqulova Malika Zayniddin qizi. Husnixat o‘qitish metodikasi / O‘quv qo‘llanma [Matn]: o‘quv qo‘llanma / M.Z.Eshonqulova - Buxoro: “BUXORO DETERMINANTI”MCHJning Kamolot nashriyoti, 2025. - 156 b.

Taqrizchilar:

f.f.f.f (PhD) - R.B. Saidova

f.f.f.f (PhD), professor - N.O.Safarova

ISBN: 978-9910-762-37-6

Ushbu o‘quv qo‘llanma Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 6-sentabrdagi 333-sonli buyrug‘iga asosan nashrga ruxsat berildi.

© “KAMOLOT” nashriyoti

© Eshonqulova Malika Zayniddin qizi

Annotatsiya

“Husnixat o‘qitish metodikasi fani” o‘quv qo‘llanmasida husnixatga o‘rgatishning maqsad va vazifalari, o‘quvchilarni chiroyli yozuvga o‘rgatishning pedagogik va ijtimoiy ahamiyati, yozuvlar tarixidan ma‘lumot, qadimdan kishilarning o‘z fikrlarini boshqalarga yetkazish istagi, o‘quvchining o‘qiy olishi uchun yozuvning aniq, ravshan bo‘lishiga intilgani haqida ma‘lumot, husnixatga o‘rgatish metodikasining shakllanish tarixi, yozuv materiallari va qurollari, yozuvning gigienik shartlari, kabi dolzarb mavzularga to‘xtalib o‘tilgan.

Ushbu o‘quv qo‘llanmada taqdim qilinayotgan o‘quv materiallari oliy ta‘lim tizimida bakalavrlarga qo‘yilayotgan hamda ular tomonidan bilim, ko‘nikma, malakalar va kompetensiyalarga ega bo‘lishi uchun ko‘zda tutilgan davlat talablari asosida yoritilgan.

Ushbu o‘quv qo‘llanma 60110500 - Boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha tahsil olayotgan oliy o‘quv yurtlari o‘qituvchilari, doktorantlari, magistrantlari va bakalavriat talabalari uchun nafaqat kunduzgi balki sirtqi bo‘limlar uchun, umumta‘lim maktablari boshlang‘ich sinfda “Ona tili” fani o‘qituvchilari, o‘quvchilarning ota-onalari, shuningdek o‘z malakalarini oshiradigan o‘qituvchilarga va barcha qiziquvchilar uchun mo‘ljallangan.

Аннотация

В учебном пособии «Наука преподавания почерка» цели и задачи обучения уснихату, педагогическая и социальная значимость обучения учащихся хорошему письму, сведения из истории письма, стремление людей с древнейших времен передавать свои мысли. другим выделяются сведения о стремлении сделать письмо понятным, чтобы учащийся мог читать, истории метода обучения уснихату, письменных принадлежностях и инструментах, гигиенических условиях письма и т. д.

Учебные материалы, представленные в настоящем учебном пособии, составлены на основе государственных требований, предъявляемых к бакалаврам в системе высшего образования и предусмотренных для приобретения ими знаний, умений, квалификации и компетенций.

Настоящий учебный справочник направлен по направлению 60110500 - Образование в области начального образования учителей, докторантов, магистров и бакалавров не только дневного, но и заочного отделения, общеобразовательных школ для учащихся. Предназначен для преподавателей «Родного языка». предмет в начальной школе, родители учащихся, а также учителя, повышающие свою квалификацию и для всех заинтересованных лиц.

Annotation

In the "Science of Teaching Handwriting Methodology" educational guidebook, the goals and tasks of teaching husnikhat, the pedagogical and social importance of teaching students to write well, information from the history of writing, the desire of people from ancient times to convey their thoughts to others, information about the desire to make the writing clear for the student to be able to read, the history of the method of teaching husnikhat, writing materials and tools, hygienic conditions of writing, etc., are highlighted.

The study materials presented in this study guide are covered on the basis of the state requirements imposed on bachelors in the higher education system and provided for by them to acquire knowledge, skills, qualifications and competencies.

This educational guidebook is directed to 60110500 - Education in the field of primary education teachers, doctoral students, master's and bachelor's degrees not only full-time, but part-time departments, general education schools for students It is intended for teachers of "Mother tongue" subject in primary school, parents of students, as well as teachers who are improving their skills and for all interested people.

KIRISH

Mamlakatimizda ta'lim sohasida olib borilayotgan yangilanish, modernizatsiya jarayoni uzluksiz ta'lim tizimining barcha bo'g'inlari, jumladan, oliy ta'limda ham zamon talablariga javob bera oladigan yetuk mutaxassislarni tayyorlash, ularda yangi bilim va ko'nikmalarini shakllantirishni, o'z ustida ishlash, zamonaviy texnologiya yutuqlaridan maqsadli foydalana olish mahoratini oshirishni taqozo etmoqda. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini hozirgi kun talablari asosida tayyorlashda "Husnixat o'qitish metodikasi" fani ham ustuvor vazifalarni bajarishda salmoqli o'rinni egallaydi. Zamonaviy ta'limda ta'lim muassasalaridagi o'qitish sifatini ta'minlashga qaratilgan tizimli islohotlar zaminida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy mahorati, ularning zamonaviy ta'lim va innovatsion texnologiyalar, ilg'or xorijiy tajribalarni o'zlashtirish borasidagi zamonaviy bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirish dolzarb vazifalardan sanaladi. Mamlakatimizda pedagog kadrlarni tayyorlash jarayonini modernizatsiyalash, sohadagi zamonaviy rivojlanish tendensiyalari, ilg'or xorijiy tajribalar va innovatsion yondashuvlar asosida ta'lim mazmuni va o'qitish sifatini takomillashtirish davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan.

Bo'lajak pedagog mutaxassislarni zamon talablari asosida aqliy, axloqiy, intellektual, estetik va jismoniy jihatdan komil inson sifatida tarbiyalash "Husnixat o'qitish metodikasi" fanining ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Mazkur fan orqali bo'lajak mutaxassislar ta'lim jarayonini samarali tashkil etish, yosh avlodda yuksak ma'naviy-axloqiy sifatlarni tarkib toptirishga doir ilmiy-nazariy, amaliy-metodik bilimlar, zarur ko'nikma va malakalar hajmini, o'qituvchi shaxsida namoyon bo'lishi lozim bo'lgan umumkasbiy va shaxsiy fazilatlarni muvaffaqiyatli egallashi kerak.

O'quv qo'llanmada Husnixat o'qitish metodikasining umumiy asoslari, darslarda integratsion yondashuv, mashg'ulotlar jarayonida amaliy hamda nazariy ma'lumotlar, ta'lim tizimida husnixatdan foydalanish qoidalari, shuningdek, boshlang'ich sinf ona tili va o'qish darslarida axborot texnologiyalari hamda ta'lim jarayonida innovatsiyalar va interfaol usullardan foydalanishning yo'l va usullari ko'rsatib berilgan.

I MODUL. HUSNIXAT O'RGATISH ORQALI YOZMA NUTQNI SHAKLLANTIRISH

1-MAVZU: HUSNIXAT O'RGATISHNING MAQSAD VA VAZIFALARI

Reja:

- 1.1.Husnixat va uni o'qitish metodikasi pedagogik fan.
- 1.2.Pedagogika oliy o'quv yurtlarida o'qitiladigan Husnixat va uni o'tilish metodikasi fanining maqsadi.
- 1.3.Husnixat va uni o'rgatish metodikasi fani o'z oldiga quyidagi vazifalarni qo'yadi.
- 1.4.Husnixat va uni o'qitish metodikasining boshqa fanlar bilan aloqasi.

Tayanch tushunchalar: husnixat, tovush, analiz, sintez, harf, analitik-sintetik, diksiya, nutq, o'qish, yozish, savod o'rgatish, o'qish malakalari, yozuv malakalari.

Husnixat va uni o'qitish metodikasi pedagogik fan.

Inson o'z fikrini boshqa kishilarga og'zaki va yozma shaklda yetkazishi mumkin. Nutqning bu shaklining o'xshash va farqlash tomonlari mavjud bo'lib ular o'z o'rnida afzalliklarga ega. Og'zaki nutq tovush chiqarib aytiladi va eshitilish uchun mo'ljallanadi. U kishilarning nutq jarayoni vaqtidagi aloqa vositasi bo'lib xizmat qiladi. Yozma nutq esa tosh, yog'och, teri, metall, qog'oz kabilarga ko'rish asosida idrok qilinadigan doimiy belgilar orqali yozib qo'yiladi.

Yozuv kishilarning o'zaro fikr almashishi va bilimlarni egallashning qudratli vositasi hisoblanadi. Yozma nutq avlodlarni bir-biriga bog'laydi, uzoq saqlanadi. Yozuv tufayli kishi fikri, insoniyat qo'lga kiritgan bilimlar avloddan-avlodga yetib boradi, abadiy yashaydi.

Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarni husnixatga o'rgatish ehtiyoji yuqoridagi talablar asosida yuzaga keladi. Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarni husnixat bilan yozishga o'rgatish metodikasi ularda aniq, chiroyli va tez yozish imkonini hosil qilishi lozim. Bu kabi vazifalarni amalga oshirish uchun dastur mazmunini va uning talablarini o'qitish usullarini yozuviga o'rgatishning gigiyenik shartlarini, o'quvchilarning yozuvidagi individual kamchiliklarini tahlil qilish sabablarini aniqlash va tuzatish usullarini ishlab chiqish zarur.

Demak yozuv kishi hayotida pedagogik va ijtimoiy ahamiyatga ega.

Yuqoridagi talab asosida yozishga o'rganishi boshlang'ich sinflardan boshlanadi. 1-4-sinf o'quvchilarini chiroyli yozishga o'rgatish uchun o'qtuvchining o'zi husnixat bilan yozishi, shu bilan birga o'quvchilarni chiroyli yozishga o'rgata olishi kerak.

Husnixat va uni o'rgatish fani amaliy fan bo'lib u chiroyli yozishga o'rgatish bilan bir qatorda o'qitish tarbiyalash, vazifalarini bajaradi.

Pedagogika oliy o'quv yurtlarida o'qitiladigan Husnixat va uni o'tilish metodikasi fanining maqsadi:

1. Talabalarga husnixat metodikasidan nazariy ma'lumot berish.
2. Talabalarni-bo'lg'usi o'qtuvchilarni husnixat talablari asosida yozishga o'rgatish.
3. Boshlang'ich ta'limida o'quvchilarni husnixatga o'rgatishning metod va usullari bilan qurollantirish.

Boshqa fanlar kabi husnixat va uni o'qitish metodikasining o'z predmeti bor. Bu fanning predmeti ta'lim berish jarayonida chiroyli yozuvni egallash, grafik jihatdan to'g'ri chiroyli yozishga o'rgatish hisoblanadi.

Husnixat va uni o'rgatish metodikasi fani o'z oldiga quyidagi vazifalarni qo'yadi:

- talabalarga chiroyli yozuv haqida nazariy bilim berish;
- o'z dastxatlari ustida ishlash yuzasidan malakalar xosil qilish;
- boshlang'ich sinflarda husnixat darslarini rejalashtirish, va tashkil etishga o'rgatish;
- boshlang'ich sinflar uchun husnixat materiallarini tanlay olish tamoyillari bilan tanishtirish.

Birinchidan husnixat bilan yozish o'quvchilardan mehnat madaniyatini tarbiyalaydi. Topshiriqlarni toza, aniq va madaniyat bilan bajarish ko'nikmasini hosil qiladi.

Ikkinchidan dastxatga pala-partish va be'etibor munosabatda bo'lish o'quvchilarning imloviy savodsizligini keltirib chiqaradi. Natijada o'quvchilar qiladigan ishlariga o'ylab o'tirmay bajaraveradilar, o'z hato kamchiliklarini ham o'ylab ko'rmaydigan bo'lib qoladilar.

Uchinchidan husnixat bilan to'g'ri yozish ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lib turli rasmiy hujjatlarni yuritishda kishilar unga ehtiyoj sezadi. Husnixat bilan yozilmagan, to'ldirilmagan hujjatlarni o'qishga kitobxonning ko'p vaqt sarflashiga to'g'ri keladi. Vaholanki, maktabda har kuni o'qtuvchi 30 talab o'quvchilar daftarini tekshiradi. Agar o'qib

bo'lmaydigan qilib yozgan bo'lsa o'qituvchining ham unga ko'p vaqti sarf bo'ladi. Aniq va ravon qilib yozgan dastxati o'qituvchining ishini yengillashtiradi, keyingi talimiy maqsadlarini amalga oshirishlari uchun imkoniyat yaratadi.

Husnixat va uni o'qitish metodikasining boshqa fanlar bilan aloqasi.

Husnixat va uni o'qitish metodikasi boshqa fanlar bilan uzviy aloqada bo'lib ularning natijalariga tayanadi. Amaliy fan hisoblangan husnixat va uni o'qitish metodikasi til o'rganish jarayoni hamdir. Yozish uchun tanlangan til faktlari ayni vaqtda adabiy tilni o'zlashtirib borishga yordam beradi. Pedagogika ta'lim tarbiya haqidagi fandir. U ta'lim-tarbiya tamoyillarini belgilab beradi, barkamol shahsni tarbiyalash yo'llarini ko'rsatadi. Husnixat va uni o'qitish metodikasi pedagogikaning ana shu qoidalariga asoslanadi ya'ni husnixatga o'rgatishda ta'lim-tarbiya birligiga amal qiladi.

Husnixat va uni o'qitish metodikasining asoslaridan yana biri psixologiyadir. Psixologiya his, tasavvur, fikr, intilish, istak, havas, qobiliyat kabi tushunchalar haqida ma'lumot beradi. Husnixatga o'rgatishda bola psixologiyasidagi yuqoridagi holatlarga tayanib ish ko'riladi, o'quv materiallari tanlanadi, sinflar bo'yiicha taqsimlanadi. Fiziologiya, tilshunoslik, adabiyotshunoslik va tarix fanlari ham husnixat va uni o'qitish metodikasi bilan uzviy aloqadadir. O'qituvchining yozuv jarayonidagi fiziologik holati qo'l harakatlari, yozganlarini to'g'ri, aniq talaffuz qilishda fiziologiyaga tayansa yozuv uchun tanishgan matnni tahlil qilishda adabiyotshunoslik materiallariga, yozuvning paydo bo'lishi, uning jamiyatdagi tutgan o'rnini tushunishda esa tarix fanining yutuqlariga asoslangan holda ish ko'radi.

Mavzuni takrorlash va mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Husnixat va uni o'qitish metodikasi nima uchun pedagogik fanlar qatoriga kiradi?
2. Husnixatga o'rgatish metodikasining predmeti deganda nimani tushunasiz?
3. Yozuvning pedagogik va ijtimoiy ahamiyatini tushuntirib bering.
4. Husnixatga o'rgatish metodikasining maqsadi nimalardan iborat?
5. Husnixatga o'rgatish metodikasining vazifalarai nimalardan iborat?

“Aqliy hujum” metodi

Mazkur metodda biror muammo bo'yicha ta'lim oluvchilar tomonidan bildirilgan erkin fikr va mulohazalarni to'plab, ular orqali ma'lum bir yechimga kelinadi. “Aqliy hujum” metodining yozma va og'zaki shakllari mavjud. Og'zaki shaklida ta'lim beruvchi tomonidan berilgan savolga ta'lim oluvchilarning har biri o'z fikrini og'zaki bildiradi. Ta'lim oluvchilar o'z javoblarini aniq va qisqa tarzda bayon etadilar.



Yozma shaklida esa berilgan savolga ta'lim oluvchilar o'z javoblarini qog'oz kartochkalarga qisqa va barchaga ko'rinarli tarzda yozadilar. Javoblar doskaga (magnitlar yordamida) yoki “pinbord” doskasiga (ignalar yordamida) mahkamlanadi. “Aqliy hujum” metodining yozma shaklida javoblarni ma'lum belgilar bo'yicha guruhlab chiqish imkoniyati mavjuddir.

Ushbu metod to'g'ri va ijobiy qo'llanilganda shaxsni erkin, ijodiy fikrlashga o'rgatadi. “Aqliy hujum” metodidan foydalanilganda ta'lim oluvchilarning barchasini jalb etish imkoniyati bo'ladi, shu jumladan, ta'lim oluvchilarda muloqot qilish va munozara olib borish madaniyati shakllanadi. Ta'lim oluvchilarda o'z fikrini faqat og'zaki emas, balki yozma ravishda bayon etish mahorati, mantiqiy va tizimli fikr yuritish ko'nikmasi rivojlanadi. Bildirilgan fikrlar baholanmasligi ta'lim oluvchilarda turli g'oyalar shakllanishiga olib keladi. Bu metod ta'lim oluvchilarda ijodiy tafakkurni rivojlantirish uchun xizmat qiladi.

“Aqliy hujum” metodi ta'lim beruvchi tomonidan qo'yilgan maqsadga qarab amalga oshiriladi:

-ta'lim oluvchilarning boshlang'ich bilimlarini aniqlash maqsad qilib qo'yilganda, bu metod darsning mavzuga kirish qismida amalga oshiriladi;

-mavzuni takrorlash yoki bir mavzuni keyingi mavzu bilan bog'lash maqsad qilib

qo'yilganda, yangi mavzuga o'tish qismida amalga oshiriladi;

- o'tilgan mavzuni mustahkamlash maqsad qilib qo'yilganda mavzudan so'ng, darsning mustahkamlash qismida amalga oshiriladi.


“Aqliy hujum” metodini qo'llashdagi asosiy qoidalar:

- 1.Bildirilgan fikr-g'oyalar muhokama qilinmaydi va baholanmaydi.
- 2.Bildirilgan har qanday fikr-g'oyalar, ular hatto to'g'ri bo'lmasa ham inobatga olinadi.
- 3.Har bir ta'lim oluvchi qatnashishi shart.

“Aqliy hujum” metodining tuzilmasi.



“Aqliy hujum” metodining bosqichlari




“Aqliy hujum” metodining afzalliklari:

- ✓ natijalar baholanmasligi ta'lim oluvchilarda turli fikr-g'oyalarning shakllanishiga olib keladi;
- ✓ ta'lim oluvchilarning barchasi ishtirok etadi;
- ✓ fikr-g'oyalar vizuallashtirilib boriladi;
- ✓ ta'lim oluvchilarning boshlang'ich bilimlarini tekshirib ko'rish imkoniyati mavjud;
- ✓ ta'lim oluvchilarda mavzuga qiziqish uyg'otadi.

“Aqliy hujum” metodining kamchiliklari:

- ✦ ta'lim beruvchi tomonidan savolni to'g'ri qo'ya olmaslik;
- ✦ ta'lim beruvchidan yuqori darajada eshitish qobiliyatining talab etilishi.

Metoddan samarali foydalanish maqsadida quyidagi qoidalarga amal qilish lozim:



Namunaviy savol: Husnixat va uni o'qitish metodikasining boshqa fanlar bilan qanday aloqasi bor? Qaysi jihatdan o'xshaydi va qanday farqlanadi?

2-MAVZU: O‘QUVCHILARNI CHIROYLI YOZUVGA O‘RGATISHNING PEDAGOGIK VA IJTIMOIIY AHAMIYATI

Reja:

2.1. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida chiroyli yozuv malakalarini shakllantirish.

2.2. Chiroyli yozuvga o‘rgatish malakalarni singdirib borish malakalari.

2.3. Chiroyli yozuv malakalarini shakllantirish usullari.

Tayanch tushunchalar: Chiroyli yozuv, yozuv qurollari, husnixat qoidolari, harflar qiyaligi, harf unsurlari, qo‘l harakati.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida chiroyli yozuv malakalarini shakllantirish.

O‘zbek xalqi uzoq asrlik tarixida yaratib qoldirgan madaniy merosida chiroyli yozuvga o‘rgatish, ya‘ni xattotlik san‘ati alohida o‘rin egallaydi. O‘rta asrlarda har qanday asar qo‘lda ko‘chirilib kitob qilingan. Qo‘lyozmalarni kitob holiga keltirish katta hunar va san‘at hisoblangan. Qo‘lda ko‘chirilgan har bir asar san‘at mo‘jizasi kabi nodir sanalgan. Bir qancha olim va fozil kishilar yoshlikdan xattotlik san‘atini egallab keyinchalik kotiblikda ham nom chiqarganlar. Ular faqat o‘z asarlarini emas, balki boshqa mualliflar asarlarini ham ko‘chirganlar. Masalan, Hofiz Sheroziy Xusrav Dexlaviyning “Xamsa”sini ko‘chirgan. Alisher Navoiyning mohir xattot ekanligi tarixiy manbalardan ma‘lum. Zahiriddin Muhammad Bobur arab alifbosida turkiy xalqlarga moslab “Xatti Boburiy”deb atalgan alifboni yaratgan.

Eski maktabda chiroyli yozuvga alohida ahamiyat berilgan, ammo husnixat mashg‘ulotlari uchun zarur qoidalar yuzaki tushuntirilgan. Masalan, chiroyli yozuvga o‘rgatish paytida faqat qalamni qanday ushlab qoidalar eslatilgan. Gigiyenik qoidalar talab etilmagan. Hatto yozish vaqtida ham nafas olish ta‘qiqlangan. Bola xat yozish vaqtida chap oyog‘ining to‘pig‘i ustida o‘tirgan, o‘ng oyog‘ini esa tizzasidan bukib turgan. Maktabda “Husnixat” qoidalarini o‘rgatuvchi birdan bir qo‘llanma “Mufradot”bo‘lgan. Domlalar yozishni o‘rgatish va husnixat mashq qildirishda shu kitobdan foydalanganlar. Husnixatga o‘rgatishning birdan bir yo‘li ko‘chirib yozish ko‘nikmasini hosil qilish bo‘lgan.

1993-yil 2-sentabrda “Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosini joriy etish to‘g‘risida qonun qabul qilindi. O‘zbek maktablari uchun barcha darslik va qo‘llanmalar lotin alifbosida chop etila boshladi. Shuning uchun hozirgi kun talablari asosida boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun husnixatga oid metodik qo‘llanmalar juda zarur edi. Pedagogika fanlari doktori Mirhabib G‘ulomov yaratgan metodik qo‘llanmalar o‘quvchilarning chiroyli yozuv malakalarini shakllantirishda yaqindan yordam bera oladi.

O‘quvchilarning chiroyli yozuv malakalarini hosil qilish uchun birinchi navbatda diqqat, sezgi, idrok etish va xotira kabi psixofiziologik funksiyalar ishtirok etganligini ko‘ramiz. Psixik jarayonlar va inson psixikasi xususiyatlari orasida diqqat faoliyati alohida o‘rin tutadi. U ongning hamma shakllarida ishtirok etadi. Diqqat jismoniy harakat talab qiladigan, ishni yaxshi bajarishga yordam beradigan omillardan biridir. Bilimni o‘zlashtirish uchun o‘quv materialini idrok etish talab qilinadi. Yozish jarayonida ko‘rish va eshitish sezgilari idrok qilinadi.

Yozuv jarayoni turli yozuv qurollari (ruchka, qalam, bo‘r) orqali amalga oshiriladi va qaysi yozuv qurolidan foydalanishiga qarab qo‘l harakatlari shunga moslashtiriladi.

Chiroyli yozuvga o‘rgatish malakalarni singdirib borish malakalari.

Chiroyli yozuvga o‘rgatishda, birinchi navbatda, quyidagi malakalarni singdirib borish talab etiladi:

- 1.Yozuv qurollaridan to‘g‘ri foydalanish
- 2.Parta ustida daftarni to‘g‘ri qo‘yish
- 3.Yozayotganda gavgani to‘g‘ri tutish va tirsaklarni to‘g‘ri harakat qildirish
- 4.O‘z xatini berilgan namuna bilan taqqoslashga o‘rgatish.
- 5.Tovushni bosma harfga, bosma harflarni esa yozma shaklga aylantirishga o‘rgatish.
- 6.Harflar shaklini idrok etishga (yozuvni qayerdan boshlash, qayerda tugatish, o‘ngga, chapga, burilish, bog‘lash va h. k)o‘rgatish.
- 7.Harflarni bir-biriga bog‘lab yozishga o‘rgatish.
- 8.Harflarni bir xil balandlikda va kenglikda tekis yozishga o‘rgatish.
- 9.Daftar chizig‘idagi qatorlarni to‘g‘ri to‘ldirish sarlavha, oy va kunlarni to‘g‘ri yozish.
- 10.Harflarning 65 daraja qiyaligini to‘g‘ri saqlash.

Demak, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini chiroyli yozuvga o‘rgatishdan oldin quyidagi malakalarni berish lozim.

1. Yozuv texnikasi, ya'ni yozuvning turli to'g'ri yozish usullaridan foydalanish.

2. Harflarning shaklini to'g'ri ifodalash, ya'ni grafik malakalarini egallash.

3. Yozuv vaqtida harflarning shakli bilan bir qatorda uning qanday tovush bildirishini ham bilish, ya'ni imloga oid malakalarini ham egallash.

Chiroyli yozuv malakalarini shakllantirish usullari

1. Namunaga qarab yozish.

Chiroyli yozuvga o'rgatishning eng asosiy usullaridan biri-harflarning shaklini namuna qilib ko'rsatish va yozdirishdan iborat. Har bir harf namunasini doskada barcha o'quvchilarning diqqatini jalb qilgan holda yoki ayrim o'quvchilarga daftarda alohida-alohida ko'rsatib berish zarur. O'quvchining vazifasi esa doskada eslab qolgan shakllarni o'z daftariga to'g'ri aks ettirishdir.

Doskada yozib ko'rsatilayotgan har bir harf barcha o'quvchilarga aniq ko'rinib turishi shart, agar ayrim o'quvchilar uni ko'ra olmayotgan bo'lsalar, qaytadan takrorlab ko'rsatish lozim. Ayniqsa, yangi harf yoki ularning bog'lanishini ko'rsatish vaqtida qayta-qayta takrorlash muhimdir.

2. Namunaga qarab ko'chirib yozish.

Bu juda qadimiy usul bo'lib, hozirgi kunda ham u o'z qimmatini yo'qotgani yo'q. O'quvchilar, asosan, harflarning shaklini "Husnixat"dagi yoki "Yozuv daftari"dagi namunaga qarab ko'chirib yozadilar. Namunaga qarab ko'chirib yozish, tayyor harfning ustidan yozishga nisbatan ancha murakkab bo'lib, o'qituvchi ularning har biri ikkalasini qaysi vaqtda qo'llashni yaxshi bilishi kerak.

O'quvchilarning daftarlarida o'qituvchi tomonidan yozib ko'rsatilgan har bir namuna chiroyli va aniq yozilishi lozim.

3. Nusxa ko'chirish.

Bu usulni harf shaklini to'g'ri tasavvur eta olmaydigan, yozishda daftar chiziqlaridan pastga tushib yoki chiqib ketadigan o'quvchilar uchun qo'llaniladi. Masalan, o'quvchi B harfini yozishda xatoga yo'l qo'yayotgan bo'lsa, o'qituvchi uni nuqtalar bilan ifodalab, daftarga qalamda yozib ko'rsatadi, o'quvchi esa uning ustidan siyoh yurgizib chiqadi. Bu usul o'quvchining shu harf tasavvurini kengroq shakllantiradi.

4. Tasavvur orqali yozish.

Tasavvur orqali havoda harflarning shaklini yozdirib mashq qildiriladi. O'qituvchi doskada yozib ko'rsatgan harf yoki bog'lanishlarni o'quvchilar qanday qilib yozishni, ruchkaning havoda harakatini kuzatib, tasavvur hosil qilganlaridan so'ng daftarga yozish ruhsat etiladi. Bunday mashqlar o'quvchilarning qiziqishlarini oshiradi va jismoniy mashqlarni bajarishlariga imkoniyat ortadi.

5. Harflarning shaklini tahlil qilish

Harf va uning unsurlarini tahlil qilishni turlicha amalga oshirish mumkin. Harflarni unsurlarga ajratib tahlil qilish, uning necha unsurdan tuzilganligini, har bir unsur qanday shaklga ega ekanligini, bu unsurlar boshqa harflar bilan bog'lanishda qanday ko'rinishga ega ekanligini o'quvchilar tasavvur etadilar. Masalan, kichik n va m harfining birinchi unsure bir xil shaklga ega, ammo kichik n harfida bitta ilmoqli kichik tayoqcha bo'lsa, kichik m harfida ikkita ilmoqli tayoqcha bo'ladi.

6. Yozuv malakasini ongli o'zlashtirish.

Chiroyli yozuv qoidalarini yaxshi bilish yozuv malakasining shakllanishiga yordam beradi.

Masalan, 1-sinfda dastlab to'g'ri o'tirish, ruchkani to'g'ri ushlash, daftarni to'g'ri holatda qo'yish kabi talablar asosida so'zlarda harflarning balandligini va qiyaligini bir xilda saqlash, so'zlarda harf unsurlari va ularning oralig'ini bir xil uzoqlikda chamalab yozish qoidalari kelib chiqadi. 2-sinfdan boshlab chiroyli yozuv malakasiga o'rgatishda yozuv texnikasiga oid bo'lgan kichik va bosh harflarni bir xil balandlikda chamalab yozish, 4-5 harfdan iborat so'zlarni qo'l harakatini uzmasdan bog'lab yozish, tez va toza yozish kabi qoidalar talab etiladi. Chiroyli yozuv deganda biz toza va aniq chiziqlar bo'yicha, husnixat namunalarida ko'rsatilganidek yozilgan yozuvni tushunamiz.

3-sinfdan boshlab esa bu qoidalarga yana qo'shimcha tez va toza yozish qoidalari kiritiladi.

Harflarning qiyaligini to'g'ri saqlash.

Bolalarning yozuvlari har xil qiyalikda bo'lishi mumkin. Agar harflarning asosiy elementlari daftar chizig'iga nisbatan tik holatda qo'yilsa, yozuvning holati ham tik bo'ladi. Harf elementlari o'ng tomonga qiya bo'lib, o'tmas burchak hosil qilishi mumkin. O'quvchilarni o'ng tomonga qiya qilib yozishga odatlantirish lozim. Shuningdek, yozuvning to'g'ri bo'lishi uchun daftarning qiya holatiga ham e'tibor berish lozimligi tushuntiriladi va ko'rsatiladi. Daftarning parta ustida noto'g'ri turishi gigiyena qoidalarining buzilishiga ham

sabab bo‘ladi chunki o‘quvchi yozuvning qiyaligini saqlash uchun o‘z gavdasini har xil holatda tutishi mumkin. Daftarning pastki chap burchagi ko‘krak o‘rtasiga to‘g‘ri bo‘lishi yoki daftarning qiya chizig‘i partaning chetiga tik bo‘lishi kerak.

Tez va ravon yozishga o‘rgatish.

Harflarni bir xil balandlikda va kenglikda yozishga o‘rgatish bilan birga tez va ravon tekis qilib yozish chiroyli yozuvning muhim talablaridan biridir. Chiroyli va tez yozishning asosiy siri uning bir xil o‘lchamdagi ravon harakatidir.

Bir maromda harakat qilib yozish, har bir harf va uning elementlari bir xil balandlikda va qiyalikda bo‘lishi alohida go‘zallik kashf etadi. Yozuvning tezligini oshirib borishda bolalarning qo‘l harakati bir maromda bo‘lishiga e‘tibor berish, barmoqlarning charchab qolishiga yo‘l qo‘ymaslik kerak.

Boshlang‘ich sinflarda bolalarga chiroyli yozuv malakasini singdirish har bir o‘qituvchidan chidam va mahorat talab etadi.

“Har kim – har kimga o‘rgatadi” metodi

Ushbu metod talabalarga o‘rgatuvchiga aylanish, ma‘lum bilimlarni o‘zlashtirgach, o‘rtoqlari bilan baham ko‘rish imkonini beruvchi o‘qitish uslubidir. Bu metodning maqsadi talabalarga o‘qitish jarayonida zarur bo‘lgan axborot maksimumini berish, ayni paytda talabada axborot olish va berishga qiziqish uyg‘otishdir. Shuningdek axborot hajmini olgan talaba ma‘lum vaqt davomida uni iloji boricha ko‘proq o‘rtoqlariga yetkazadi.



Qo‘llanilishi:

- ✓ talabalarda axborot olish va berishga qiziqish uyg‘otish uchun;
- ✓ axborotni diqqat bilan eshitish va eslab qolish uchun;
- ✓ sherigining axborotini tinglab, boshqa sherik axtarish uchun

Afzalligi:

- 👍 o‘z fikrini lo‘nda bayon etishi;
- 👍 tinglash va eslab qolish darajasini rivojlantirishi;
- 👍 fanga yoki mavzuga bo‘lgan qiziqishini uyg‘otishi.

Talabalar kichik guruhlarga bo'linadilar. Hamma guruh a'zolariga dastlab bir xil savol yozilgan tarqatma tarqatiladi va uni topish shartlari tushuntiriladi.

1-tarqatma.

Savol: Chiroyli yozuv malakalarini shakllantirish usullari qaysilar?

1-qadam: savolni tushunib, javob o'qituvchiga taqdim etgan o'quvchilar o'qituvning "assistent" lariga ya'ni "kichik o'qituchi" larga aylanadilar.

2-qadam: Javobni topishga qiynalayotgan o'quvchilarga o'qituvchi va assistentlar individual holda tushuntirish ishlarini olib boradilar va birgalikda javobni topadilar.

3-qadam: Talabalarga tarqatma № 2 tarqatiladi.



2 - tarqatma

Masala: Chiroyli yozuvga o'rgatish malakalarni singdirib borish malakalariga nimalar kiradi?

1-qadam: Ikkinchi tarqatmadagi javobni topish jarayonida "assistent" lar soni yana ko'payadi.

2-qadam: Assistentlar va o'qituvchi ikkinchi savolga javob topishga qiynalayotgan talabalar bilan yana individual tushuntirish ishlarini olib boradilar.

3-qadam: Talabalarga tarqatma № 3 tarqatiladi.

3-tarqatma.

Masala: Boshlang'ich sinf o'quvchilarida chiroyli yozuv malakalarini shakllantirish qaysi yo'nalishda olib boriladi?

1-qadam: Uchinchi tarqatmadagi savolni topish jarayonida "assistentlar" soni yana ko'payadi.

2-qadam: Assistentlar va o'qituvchi uchinchi savolni topishga qiynalayotgan talabalar bilan yana individual tushuntirish ishlarini olib boradilar.

3-qadam: Bu harakat darsning oxirigacha davom ettirilishi mumkin. Natijada barcha o'quvchilar mavzuni to'liq tushunib, o'zlashtiradilar.

"Har kim – har kimga o'rgatadi" metodi. Dars jarayonida barcha talabalarni qamrab oladi. Mavzuni o'z tengdoshlari yordamida o'zlashtirilishiga imkoniyat yaratadi. Assistentlarning esa "Javobni

topish yo‘llarini tengdoshiga tushuntirar ekan” egallagan bilimlar yanada mustahkamlanadi. Eng muhimi to‘g‘ri javobni topish ancha murakkab bo‘lsada, do‘stona, o‘zaro yordam muhitida osonroq o‘zlashtiriladi. Ushbu texnologiyadan ko‘zlangan maqsad ham shu.

3-MAVZU: YOZUV TARIXIDAN MA'LUMOT

Reja:

- 3.1. Yozuvning paydo bo‘lishi va rivojlanish bosqichlari.
- 3.2. Alfavit.
- 3.3. Kishilik tarixida va o‘zbek xalqi tarixida qo‘llanilgan yozuvlar haqida.

Tayanch atamalar: *husnixat, tovush, analiz, sintez, harf, analitik-sintetik, diksiya, nutq, o‘qish, yozish, savod o‘rgatish, o‘qish malakalari, yozuv malakalari.*

Yozuvning paydo bo‘lishi va rivojlanish bosqichlari.


Bugun biz hayotimizni kitobsiz tasavvur qilolmaymiz. Inson o‘zining uzoq-yillik tarixi davomida kitobdan yaxshiroq do‘st va mehribon ustozni uchratmadi. U insonga kamolot yo‘lini ko‘rsatdi va hamma vaqt og‘irini yengil qilib keldi. Lekin shuni ham unutmaslik lozimki, agar yozuv bo‘lmaganda inson kitobday bebaho do‘stga sohib bo‘lmagan bo‘lur edi. Kitob yaratish tarixi ham ancha qadimga borib taqaladi. Biz bu borada mukammal ma‘lumot bermaymiz, faqatgina o‘tmishda yaratilgan ba‘zi bir kitoblar bilan yuzaki tanishib chiqamiz:



Qadimgi Misrda kitob



Papirusli kitob



Qadimgi o'rama kitob

Yozuv qachon paydo bo'lgan? U qanday davrlarni boshidan kechirib, hozirgi mavqega erishgan? Bu savollarga javob topish uchun insoniyat tarixiga nazar tashlash, uning aqliy yuksalish bosqichlarini birma-bir ko'zdan kechirish lozim.

Albatta, inson, avval, gapirishni o'rgandi, so'ngra unga tajribalarini kelgusi avlodlarga yetkazish istagi shakllandi va u qo'lga qalam (avval bu vazifani oddiy tosh bajargan) oldi.

Xo'sh, yozuv o'zi nima? Yozuv muayyan bir tilda qabul etilgan va kishilar o'rtasidagi muloqotga xizmat qiladigan yozma belgilar yoki tasvirlar tizimi. U kishilarning o'zaro aloqa qilishida, fikr almashishida muhim vositadir. Yozuvning paydo bo'lishi, aloqaning maxsus vositasi sifatida xizmat qilishi katta ahamiyatga ega bo'ldi. Yozuv tufayli kishilik tajribasi avloddan-avlodga yetkazilmoqda. Shuning uchun ham yozuvni kishilik jamiyati madaniy taraqqiyotining tom ma'nodagi ibtidosi, bashariyatning uzoq va murakkab tadrijiy takomili jarayonidagi omillarning eng asosiylaridan biri, deb hech ikkilanmasdan aytish mumkin. Faqat yozuv borligi uchungina biz tilning tarixiy taraqqiyotini kuzatish imkoniyatiga ega bo'lamiz, oldingi avlodlarimiz tilini o'rganib, uni tilimizning hozirgi bosqichi bilan qiyoslash imkoniyatiga ega bo'lamiz.

Tabiiyki, yozuv tildan ancha keyinroq paydo bo'lgan. Olimlarimizning ta'kidlashlaricha tovush tili 400-500 ming-yillar ilgari yuzaga kelgan. Yozuvning paydo bo'lganiga esa 4-5 ming-yillar bo'lgan. Inson ovozi (nutqi) **zamon (vaqt) va makon (masofa)** nuqtai nazaridan nihoyat cheklanganligi hammamizga ma'lum. Ana shu cheklanishni bartaraf etish istagi va zaruriyati yozuvning paydo bo'lishiga olib keldi. Inson o'z og'zaki tili (nutqi) bilan fikrini muayyan va cheklangan masofaga yetkazib biladi, xolos. Boshqa sharoitlarda tilga ehtiyoj paydo bo'lishi bilan inson bu ehtiyojni qondira oluvchi boshqa vositalarni

qidira boshladi. Bu qidiruv va izlanishlar samarasi sifatida belgilar tizimidan iborat yozuv ixtiro qilindi.

Yozuvning paydo bo'lishi va taraqqiyoti jamiyat rivoji, shuningdek, muayyan masofadagi kishilarning o'zaro aloqa qilish ehtiyoji, siyosiy, huquqiy, diniy va estetik xarakterdagi axborotlarni qayd etish, saqlash zaruriyati bilan bevosita bog'liq.

Yozuv og'zaki tilga nisbatan ikkilamchi, qo'shimcha aloqa vositasi bo'lsa-da, unga qaraganda ko'p afzalliklarga ega. Ayniqsa, tilning insoniyat qo'lga kiritgan tajriba – bilimlarini saqlash va avlodlarga yetkazishdan iborat vazifasi yozuv orqali bajariladi.

Ta'kidlaganimizdek, yozuv bugungi shaklini olgunga qadar uzoq va murakkab tadrijiy taraqqiyot yo'lini bosib o'tgan. Inson bu yo'lda juda kop izlandi. Eng qadimgi davrlarda dunyo xalqlarining deyarli barchasida keng tarqalgan **“Eslatuvchi”** belgilar ana shu uzoq va zahmatli izlanishlarning ilk ko'rinishlari edi. Masalan, muayyan miqdorni ifodalash uchun turli toshlar, chig'anoqlardan foydalanilgan, tayoqlar, daraxtlarga har xil iplar bog'lash, tugunlar tugib qo'yish va bu vositalar bilan muayyan axborotni esda saqlash yoki muayyan masofaga yuborishga harakat qilingan. Gohida bir xabarni uzoq masofaga yetkazish uchun tutun, gulxan, baraban ovozi va shu kabilar qo'llangan. Ma'lumot yoki xabarni uzoq vaqt saqlash uchun ramziy ma'no berilgan buyumlardan foydalanilgan: qo'rg'on – marhum ko'milgan joy belgisi; “shaharlarni ishg'ol etish” iborasi yonayotgan xonaqoh tarzida; “sayohat” – qator izlar silsilasi bilan; “qurbonlik qoni” – gul tasviri bilan; slavyan qabilalarda non-tuz – do'stlik belgisi; trubka – tinchlik, sulh belgisi va boshqalar. Tasvir rangi ham u davrlarda katta ahamiyatga ega edi. Masalan, sariq rangga bo'yalgan odam rasmi ayol kishini, binafshrang esa yuqori mansabdagi hukmdorni bildirar edi. Rang ramzi (nishonasi) ham qo'lyozma madaniy yodgorliklarda katta rol o'ynar edi: ko'k rang janubni, qora va qizil ranglar **“xiradmandlik”** va **“yozuv”** tushunchalarini bildirar edi. **“Buyumli yozuv”** nomi bilan yuritiladigan bunday axborot vositalarining qoldiqlarining ba'zilari hozir ham saqlangan. Masalan, biror fikrni esdan chiqarib qo'ymaslik uchun ro'molchaning uchini tugib qo'yish odatini yodga olish mumkin.

Bunday holatni o'zimizning afsonalarimizda ham uchratish mumkin. Masalan, ba'zi afsonalarda asosiy qahramon yovuz kuchlar ta'qibiga uchrab qochadi va ulardan omon qolish uchun turli xil buyumlardan foydalanadi. Masalan, **qayroqtosh, oyna va taroq**. Agar asar qahramoni orqasiga oynani tashlasa katta dengiz paydo bo'ladi,


agar taroqni tashlasa kishi o'tmas o'rmon hosil bo'ladi, agar toshni tashlasa baland cho'qqili tog' paydo bo'ladi va yozuv kuchlar bu to'siqlardan o'tolmaydilar.

Neolit davriga kelib odamlar ba'zi hodisa va voqealarni uzoq masofaga yetkazish niyatini jonli va jonsiz narsalarning rasmini chizish orqali amalga oshirganlar. Bunday yozuv **frazeografiya** deb nom olgan. Frazeografiya -fraza, gap, grafiya - yozaman, ya'ni gap yozaman ma'nosini bildiradi. Frazeogramma yozuvi ikki turga bo'linadi:

a) aks (tasvir) yozuvi;

b) qadimgi shartli alomatlar.

Aks (tasvir) yozuvini piktografiya (piktus- tasvir, grafiya-yozaman) deb ataganlar. **Piktografiya** (rasmli yozuv)da rasm bilan yozuv o'rtasida uzviy bog'liqlik mavjud bo'lgan, chunki har ikkalasi ham ko'rish orqali idrok qilinadi. Piktografik yozuvni ibtidoiy tasviriy san'at ichida yuzaga kelgan deyish mumkin. Ma'lumki, arxeolog olimlarimiz juda ko'p qadimiy rasmlarni kashf etganlar. G'or devorlari, turli xildagi toshlar, suyaklar va boshqa predmetlarga o'yib ishlangan xilma-xil hayvonlarning rasmlari, umumiy mazmunga birlashuvchi tasviriy lavhalar – bularning bari piktografik yozuvning asoslaridir.



Xulosa qilib aytish mumkin, ibtidoiy tasviriy san'at ikki yo'nalishda – umuman rasmlar va muayyan axborot vositasi, ya'ni yozuv sifatida shakllana borgan. Buni dunyo tillarining juda ko'pchiligidagi **"yozmoq"** ma'nosidagi so'zlarning etimologiyasiga e'tibor qilganda ham bilish mumkin. Bunday so'zlarning etimologiyasida asosiy mazmun rasm chizish jarayoni bilan bog'liq holda namoyon bo'ladi. Masalan, qadimgi

turkiy tillarda “yozmoq” tushunchasi **“bit(i)moq”** fe’li (**“bitik”** – **yozuv, kitob**) bilan ifodalangan. Bu fe’lning o’zagi xitoycha **“bi”** (**mo’yqalam**) so’zi bilan aloqador bo’lib, dastlabki ma’nosi **“o’ymoq, o’yib bezamoq”**, undan keyin **“yozmoq”** demakdir. Slavyan tillardagi **“pisati”** (rus. **“pisat”** – **“yozmoq”**) fe’lining ma’nosi ham dastlab mo’yqalamda rasm chizish bilan bog’liq bo’lgan (rus. **“jivopis”** – rangtasvir so’zi bilan qiyoslang). Bu fe’lning o’zagi lot. **“pingere”** (**rasm solmoq**) so’zi bilan aloqadordir, **“pisati”** fe’lining dastlabki ma’nosi, ko’rinadiki, **“rasm solmoq”, “bezamoq”**-dan iborat bo’lgan. Gotcha **“melian”** (**yozmoq**) fe’lining dastlabki ma’nosi ham mo’yqalamda **“rasm solmoq”** bo’lib, bu fe’l hozirgi nemis tilida **“malen”** shaklida va **“rasm solmoq”** ma’nosida qo’llanadi. Yunon tilidan ko’pgina tillarga o’tgan **“grafika”** so’zi ham etimologik jihatdan o’yish, tirnash tushunchalarini ifodalaydi. Yoqorida keltirganlarimiz barcha misollar yozuvning rasm bilan uzviy bog’liq ekanligini yaqqol ko’rsatadi.

Qadimgi shartli alomatlar sirasiga avlod va qabila nishonlari, avlod, qabila va shaxs mulki alomatlari (masalan, **tamg’a, dog’**), ustalar muhri va boshqalar kirardi. Bu nishon va alomatlar uy hayvonlari, qurol-aslaha, sapoldan yasalgan idishlar va hatto asirlar (qullar)ga qo’yiladi. Tilga olingan qadimgi shartli belgi va alomatlarni hozir ham ba’zi bir taraqqiyotdan orqaga qolgan xalqlar (masalan, Amerika hindulari, Uzoq Shimol, Afrika, Avstraliya xalqlari) ishlatishadi. Taraqqiyot bilan baravar qadam tashlayotgan xalqlar ham bu belgi va alomatlarga ayrim hollarda murojaat qilishadi. Masalan, pogonlar, oliy maktab, gerb va bayroqdagi nishonlar, xaritalardagi belgilar bunga misol bo’la oladi.

Keyinchalik rasmlarning soddalashuvi, ularning o’zlari ifoda etgan buyumlarning nomiga, ramziga aylanishi va asta-sekin bu ramzlarning og’zaki til bilan doimiy bog’lanishi yozuvning takomillashib borishini belgilab berdi. Yozuv belgilari ideografik, ieroglifik belgilar sifatida muayyan so’zlarning ifodachilariga aylandi, bu yozuv **“so’z yozuvi”** yoki **“logografik yozuv”** nomi bilan umumlashtiriladi. Eng qadimgi logografik yozuv tizimlari (misr ieroglifikasi, Eron hududida Haxomanishlar hukmronligi davrida amal qilgan mixxatlar, xitoy ieroglifikasi va boshqalar. 1- va 2- rasmlar) miloddan avvalgi 4-ming-yillikning oxiridan miloddan avvalgi 2-ming-yilliklarning boshlarigacha bo’lgan davrda shakllangan. Haqiqiy ma’nodagi yozuv tizimlari dastlab Qadimiy Sharqda vujudga kelgan.

Logografiya (logos - soʻz, grafiya - yozaman) yozuvdagi har bir alomat (logogrammalar) bir soʻzni bildirar edi. Bu yozuvda, alomatlar miqdor soʻzlar miqdoriga, aniqrogʻi mustaqil feʼl (xabar)ning semantik vohidlariga tengdir.

Logografik yozuvning piktografik yozuvdan afzalligi quyidagilardan iborat:

a) logografik yozuv xabar qilinishi lozim boʻlgan mazmunni ancha mufassal aks ettira oladi.

b) piktografik yozuvda soʻz tarkibi va soʻz shakllari noaniqroq, logografik yozuvda esa aniq boʻladi.

Logografik yozuvning birinchi mukammallashgan shakli ieroglifik yozuvdir. “Ieroglifik” soʻzi yunoncha soʻzdan olingan boʻlib, **“muqaddas yozuv”** degan maʼnoni anglatadi. Bu yozuvdan dastavval Arabistonda keng foydalanilgan. Keyinchalik Xitoy davlati ham shu yozuvga oʻtadi va bu yozuvdan hozirgi kunda ham foydalanib kelinmoqda.

I-II asrlarda Stoy Shenm Xitoy ierogliflarining katalogini tuzib, bunda 10,5 ming ieroglifni kiritadi. Xitoy tilining toʻliq lugʻatlarida 40 ming iyerogliflar qayd qilingan.

Yozuvning ommaviylashuvi uchun uni, albatta, osonlashtirish, soddalashtirish, qulaylashtirish zarur edi. Masalan, **“koʻz yoshi”** soʻzini yozib koʻrsatish uchun “koʻz” va “suv”ning kombinatsiyasi koʻrsatilgan. Lekin bunday soddalashtirish unumsiz edi.

Yozuv tarixining uchinchi bosqichga orfografiya yozuvlari kiradi. Bora-bora logogrammalar soʻz asosi (morfemalar)ni bildiradigan boʻldi (masalan, kelishik qoʻshimchalari) va natijada morfemografiya yozuvlari keng tarqaldi.

Toʻrtinchi tur yozuvlar, bu sillabografiya (boʻgʻin) yozuvlaridir. Bunda har bir alomat bir boʻgʻinni ifodalaydi. Bu yozuv turi milodgacha boʻlgan 2-1- ming-yilliklarda paydo boʻlgan. Bu yozuvni uch guruhga boʻladilar: birinchi guruhga mayya, mexiy va koreya yozuvlari kiradi. Bularda alomatlar har xil boʻgʻinlar - alohida unlilar, undosh va unli ovozlarni ifodalaydi. Ikkinchi guruhga krit(?), kipr, habash va yapon yozuvlari mansubdir. Uchinchi guruhga hind yozuvlari kiradi.

Yozuv taraqqiyotining beshinchi bosqichiga ovoz-fonemani bildiruvchi yozuvlar kiradi. Bularni umumlashtirib **fonografiya (fonos-ovoz, grafiya- yozaman)** deb nomladilar. Bu yozuvlarning har bir alomati bir ovoz yo fonemani bildiradi (finik, yunon, lotin, rus va arab

yozuvlari shular jumlasidandir). Fonografiya yozuvlarini ikki qismga bo'ladilar:

a) konsonant yozuvlari;

b) vokal yozuvlari.

Konsonant yozuvlariga finik, ugarit, ibron, orom, arab va boshqa yozuvlar mansub bo'lib, ularga har bir asosiy alomat (harf) faqat undosh ovozlarni ifodalaydi. Vokal yozuvlarida har bir asosiy alomat (harf) ham unli va ham undosh ovozni bildiradi.

Ta'kidlash joizki, harf-tovush yozuvi yo'nalishidagi ilk yozuv **finikiy yozuvidir**. Finikiy alifbosining paydo bo'lishi insoniyat uchun yozuvni takomillashtirish borasida olg'a qo'yilgan qadam bo'lgan. Shuning uchun ham finikiy yozuvi juda tezlik bilan boshqa xalqlar orasida ham tarqalgan. Bu jarayon miloddan avvalgi 9-asrdan boshlangan. Hozirgi kunda bizga ma'lum bo'lgan harf-tovush tizimidagi yozuvlarning beshdan to'rt qismidan ko'prog'i finikiy yozuvidan kelib chiqqan. Harf-tovush yozuvining muhim afzalligi uning kam miqdordagi, ya'ni 20-30 atrofidagi belgilar bilangina ish ko'ra olishidir. Harf-tovush yozuvi dunyo xalqlari orasida juda tez tarqalgan va bu jarayon, asosan, o'zlashtirish, u yoki bu tilning xususiyatini hisobga olgan holda moslashtirish yo'li bilan paydo bo'lgan.

Hozirgi vaqtda jahon aholisining taxminan to'rttdan uch qismi harf-tovush yozuvidan foydalanadi. Lotin asosida aholining 30%, slavyan-krill yozuvidan 10%, arab yozuvidan 10%, hind yozuvidan 20% aholi foydalanadi.

Markaziy Osiyodagi xalqlar, jumladan, o'zbek xalqi turli yozuvlardan foydalanib kelgan. Bu yozuvlar avesto, pahlaviy, urxun-yenisey (runik), turkiy (uyg'ur), sug'd, arab, kirill, lotin yozuvlaridir.

Afsuski, yozuv og'zaki til(nutq)ni aynan aks ettira olmaydi. Agar yozuv shunday xususiyatga ega bo'lganda, imlo qoidalariga, talaffuz mezonlariga mutlaqo ehtiyoj qolmagan bo'lardi.

Alfavit (Aifbo).

Yuqorida ta'kidlaganimizdek harf-tovush (fonografik) yozuvi alfavitni vujudga keltirdi. Alfavit yunon alifbosining alfa va beta (vita) harflari nomidan olingan bo'lib, alifbo (arab alifbosining boshlang'ich ikki harfi – **alif** va **bo** nomidan olingan) ham deyiladi.

Alifbo – biror tilning yozuviga qabul qilingan va ma'lum an'anaviy tartib berilgan yozuv belgilari (masalan, arab alifbosi, lotin alifbosi) yoki bo'g'in belgilar (masalan, hind alifbosi – devanagari)

majmui. Alifbo miloddan avvalgi 2000-yillar oxirlarida qadimiy Ugarit va finikiy yozuvi tovush tizimidan kelib chiqqan. Undan ilgari Misr iyerogliflari sanoq tizimi mavjud bo'lgan, deb taxmin qilinadi. Turkiy xalqlarning run va turkiy (uyg'ur) yozuvlari bo'lgan. Ammo, bu o'ziga xos turkiy yozuvlar alifbosi haqida ma'lumot uchramaydi. Ularga oid harflar jadvali tovush belgilari haqidagi boshqa manbalardagi ma'lumotlar hamda shu yozuv yodgorliklari asosida tuzilgan. Hozirgi harfiy va ba'zan bo'g'in alifbolari finikiy alifbosidan, oromiy (arab, yahudiy), yunon (lotin va hokazolar) va boshqa alifbolardan kelib chiqqan. Arab alifbosi – barcha arab mamlakatlari, shuningdek, Eron, Afg'oniston, Pokiston, Sharqiy Turkiston – Shinjon, shuningdek, 13-20 asrlar boshlarida turkiy xalqlar yozuv tizimida; lotin alifbosiga Amerika, Avstraliya qit'asidagi barcha xalqlar, Evropaning ko'pchilik xalqlari, Osiyo va Afrikadagi ba'zi xalqlar (Indoneziya, Turkiya va boshqalar) yozuv tizimida; kirill alifbosiga – Evropa, Osiyodagi ba'zi xalqlar yozuv tizimida; hind bo'g'in alifbosiga – Hindistondagi ko'pgina elatlar yozuv tizimida amal qilingan.

Yuksak takomillashtirilgan alifbodagi bir harf muayyan bir tovushni ifodalashi, bir tovush muayyan bir harf bilan ifodalanishi lozim. Ammo dunyoda bunday alifbo yo'q. Ana shunday ma'nodagi alifboga fin alifbosi birmunsha yaqinlashadi, lekin baribir to'liq emas. Hozirgi ingliz, fransuz va boshqa tillar alifbolari bunday mukammallikdan yiroq. Mana shu holat dunyo tillarining barchasida xima-xil va juda ko'plab grafik va imlo qoidalarining ishlab chiqilishiga sabab bo'lgan.

Yozuv bilan til o'rtasida, alifbo va tilning tovush tizimi o'rtasida bunday farqli holatlarni yuzaga keltirgan sabablar xilma-xil. Avvalo, dunyodagi hozirda mavjud alifbolarning deyarli hammasi ham mustaqil va tegishli til xususiyatlarini to'liq hisobga olgan holda yaratilgan emas. Ko'pchilik xalqlar o'z yozuvlarini boshqa til yozuvini o'z tillariga imkoniyat darajasida moslashtirish yo'li bilan yaratganlar. Bu hol yozuv va til munosabatlarida o'z izini qoldirgan.

Ayni paytda yozuv va tilning taraqqiyoti bir xil, bir-biri bilan to'la mos keladigan jarayon emas. Tilning taraqqiyoti tarixiy va uzluksiz jarayon, odamlar tilga ataylab, ongli ravishda biron-bir o'zgartirish kiritib olmaydilar. Tildagi u yoki bu o'zgarish tadrijiy ravishda, asta-sekin yuz beradi. Yozuv haqida esa bunday deb bo'lmaydi. Odamlar til xususiyatlariga yanada moslashtirish uchun yozuvga turli o'zgartishlar kiritadilar, islohotlar qiladilar, bir yozuv tizimini boshqasi bilan

almashtiradilar va hokazolar. Masalan, o'zbek xalqi asrlar davomida arab alifbosidan foydalanib kelgan, 1923-26-yillarda bu yozuvni o'zbek tili tovush qurilishini to'laroq ifodalashga moslashtirish maqsadida bir qator harfiy o'zgartirishlar kiritilgan. O'zbekistonda 1929-yildan lotin yozuvi asosidagi o'zbek alifbosiga o'tilgan. 1940-yildan esa kirill yozuvi joriy etilgan. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi 1993-yil 2-sentabrda "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida"gi qonunni qabul qildi. Bu qonunga va uni amalga kiritish tartibi haqidagi O'R Oliy Kengashi qaroriga O'R Oliy Majlisi 1995-yil 6-mayda o'zgarishlar kiritadigan qonun qabul qildi. Bu hujjatga ko'ra lotin yozuviga asoslangan yangi o'zbek alifbosi 26 ta harf va 3 ta harflar qo'shilmasidan iborat.

ALIFBO					
Aa	Bb	Dd	Ee	Ff	Gg
(a)	(be)	(de)	(e)	(ef)	(ge)
<i>Aa</i>	<i>Bb</i>	<i>Dd</i>	<i>Ee</i>	<i>Ff</i>	<i>Gg</i>
Hh	Ii	Jj	Kk	Ll	
(he)	(i)	(je)	(ka)	(el)	
<i>Hh</i>	<i>Ii</i>	<i>Jj</i>	<i>Kk</i>	<i>Ll</i>	
Mm	Nn	Oo	Pp	Qq	
(em)	(en)	(o)	(pe)	(qa)	
<i>Mm</i>	<i>Nn</i>	<i>Oo</i>	<i>Pp</i>	<i>Qq</i>	
Rr	Ss	Tt	Uu	Vv	
(re)	(es)	(te)	(u)	(ve)	
<i>Rr</i>	<i>Ss</i>	<i>Tt</i>	<i>Uu</i>	<i>Vv</i>	
Xx	Yy	Zz	O'o'	G'g'	
(xa)	(ye)	(ze)	(o')	(g'a)	
<i>Xx</i>	<i>Yy</i>	<i>Zz</i>	<i>O'o'</i>	<i>G'g'</i>	
Sh sh	Ch ch	Ng ng	/ ' 		
(she)	(che)	(nge)	(tutuq belgisi)		
<i>Sh sh</i>	<i>Ch ch</i>	<i>Ng ng</i>			

Dunyodagi alifbolarning hammasida ham harflar soni tegishli tildagi tovushlar (fonemalar) sonidan sezilarli darajada kam. tabiiyki, bu hol yozuvni o'zlashtirishni osonlashtiradi. shuning uchun ham alifbolardagi asosiy tamoyil undagi harflar sonini ko'paytirish emas.

Alifbo yozuvning asosini tashkil etadi. Tinish belgilari va boshqa yozma belgilar ham yozuvning unsurlari hisoblanadi.

Kishilik tarixida va o'zbek xalqi tarixida qo'llanilgan yozuvlar haqida

Jahon xalqlari yozuvlari. Finikiy yozuv. Ushbu yozuvdan finikiylar, karfagentlar, qadimiy yahudiylar tomonidan Finikiya, Suriya, Falastin va qisman Misr, Kipr, Kiliniya (Kichin Osiyodagi viloyat), Karfagen kabi qadimiy davlatlar foydalanganlar. Finikiy yozuvga daxldor katibalar miloddan oldingi 2-4 m:-yilliklarda taalluqlidir. Bu yozuvning paydo bo'lishi sarchashmasi haligacha aniq emas. Taxmin qilishlaricha finikiy yozuv qadimiy Qan'onining bo'g'in va yo undosh yozuvi asosida vujudga kelgan. Finikiy yozuvda 22 ta undosh harf mavjud edi. Keyinchalik qattiq unlilar uchun maxsus alomatlar ishlab chiqildi. Keyinchalik qariyb hamma harfli va ovozli xatlar sistemasi, jumladan yozuvlarning ikki katta bo'g'ini-yunon va oromiy yozuvlar, ham finikiy yozuvidan ibtido oldi.

Oromiy yozuv. Ushbu yozuv undosh tovushlardan iborat bo'lib, 22 ta harfi bor edi. Miloddan oldingi birinchi ming-yillikning avvallarida finikiy yozuv zaminida vujudga keldi. Oromiy yozuvning qadimiy osori Var-Xadod (SHimoliy Siriya) va Zokir (Xamodan) katibalardir. Keyinchalik oromiy yozuvni boshqa somiy xalqlar-yahudiylar, oshuriylar, bobiliylar qabul qildilar. Miloddan oldingi 3-2 asrlarda ushbu yozuv bir necha shoxada-yahudiy yozuvining murabba xili, palmir va nabatiy yozuvlarida bo'lindi.

Mazkur yozuv Vaynannahrda mixsimon bobil va akkad yozuvlari o'rin: Haxomanishiylar davlati (imperiyasi) davrida ham oromiy yozuv mixsimon qadimiy fors yozuvi bilan baravar qo'llangan. Jamshid taxtidan 500 taga yaqin oromiy katibalar yozilgan joy taxtachalar topilgan. O'rta eroviy yozuvlarining aksariyati-pahlaviy, porsiy, sug'diy, monaviy, xorazmiy yozuvlari oromiy xatdan paydo bo'lgan.

Sug'd yozuvi. Bu yozuv oromiy yozuv asosida eramizdan avvalgi birinchi ming-yillikda qadimiy Sug'd zaminida yaratilgan. U 23 alomatni o'z ichiga olar edi. Sug'd yozuviga mansub birinchi yozma yodgorlik eramizdan oldingi I asrda taalluqlidir.

Sug‘d yozuvining alomatlarini birinchi bor frantsuz olimi R.Goto transliteratsiya qilgan edi.

Sug‘d yozuvida avvallari bir-biriga ulardan harflar (ligatiralar) juda kam bo‘lgan. Har bir harf o‘zining alohida yozma shakliga ega bo‘lib, ularni bemalol bir-biridan farq qilish mumkin edi.

VI asrning boshlariga “sutra yozuvi nomukammal finik sug‘d yozuvi taraqqiy etdi va X asrda keng qo‘llandi. Bu yozuv bilan budda dinining yozma yodgorliklari yozilgan. Mukammal finik sug‘d yozuvi sakkizinchi asrning o‘rtalarida vujudga keldi. Bu yozuv bilan Mug‘ tug‘i, Afrosiyob va Panjakent katibalari yozilgan. Siniq sug‘d yozuvida ulardan harflar ko‘proq ishlatilgan va alomatlari bir-biridan farqlash ancha qiyin bo‘lgan.

Mutaaxxir siniq sug‘d yozuvi (bu yozuvni “uyg‘uriy sug‘d” yo “uyg‘uriy” ham dedilar) IX-XI asrlarda taraqqiy etgan. Uyg‘uriy yozuvida harflarni bir-biridan farq qilish uchun diakritik alomatlar (harflarning ustiyu ostida nuqta va alomatlar) qo‘llangan. diakritik alomatlarni ishlatish kitoblar ixtiyorida edi.

Bu umumsug‘d yozuvlaridan tashqari yana ikki xil sug‘d yozuvi taraqqiy etgan edi. Bularning bittasida bixoriy va ikkinchisiga istaravshaniy nomini berish mumkin.

Miloddan avvalgi II-III asrlarda shakllangan sug‘d yozuvi o‘lkamiz madaniyati tarixida muhim rol o‘ynaladigani isbotlovchi dalillar juda ko‘p topilgan. Dalillarning guvohlik berishiga bu yozuv ijtimoiy va madaniy hayotning hamma sohalarida keng qo‘llangan. Shu murakkab jarayonda sug‘d yozuvining tashqi shakli takomillasha borgan hamda uning ichki mazmuni-til tovush sistemasi tobora aniq ifodalash tomon o‘sa borgan, muayan orfografik normalar vujudga kela boshlagan.

Bu qadimiy sug‘d yozuvi orqali eramizning boshlaridan to X-XI asrlarga qadar yozilgan ko‘plab hayot yodgorliklari bizgacha etib kelgan. Bu yodgorliklar orasida ko‘plab numizmatik materiallar (tanga yozuvlari) metall, sofol, yog‘och, charm, qog‘oz va boshqa buyumlarga bitilgan matnlar, shaxsiy maktublar, diniy, ahloqiy-falsafiy matnlarning parchalari, xo‘jalik huquqiy va diplomatik hujjatlar mavjud.

Shunday noyob yodgorliklarning katta guruhi Panjakent yaqinidagi Mug‘ tog‘i tepasidagi qadimgi qasr xarobarilaridan topilgan sug‘d hujjatlaridir.

Mazkur yodgorliklar majmuasi “Mug‘ tog‘i sug‘d arxivi” deb nomlangan va o‘z ichiga VII asr oxiri VIII asr boshlariga oid 80 ga

yaqin noyob hujjatni qamrab oladi. Bu hujjatlar sug'd podsholigiga tobe' Panj hokimlari va amaldor ayollarga tegishli hujjatlar yig'indisidan iborat. Agar istilosi kunlarida, xususan, 722-yilda Panj hokimi, bir muddat Sug'd podshosi taxtiga da'vogar sifatida ish ko'rgan Devashtich boshliq guruh Mug'd tog'ida joylashgan mudofaa davriga chekingan. Shu sababli saroy hujjatlari qasrga keltirilgan. Tarix kitobi sahifalaridan ayonki, 722- -yili arablar qasrni bosib olib, vayron qildilar.

Mug'd qasri xarobalarida qolib ketgan sug'd arxivi oradan 1210-yil o'tgach, 1932-1933-yillarda topilgan. Bu hujjatlar shu vaqt davomida ancha o'rganildi, barcha matnlarning izohli nashrlari e'lon qilinmoqda va ularning til xususiyatlari o'rganilmoqda. Qadimgi sug'd yozuvi bo'yicha paleografik tadqiqotlar bajarilmoqda. Bir turkum sug'd hujjatlarining o'zbek tiliga tarjimasi va izohlari 1992-yil Mirsodiq Is'hoqov tomonidan o'rganildi.

Yunon yozuvi. Bu yozuvdan qadimgi yunonliklari miloddan avvalgi X-VIII asrlarda foydalanganlar. Finikiy yozuvdan paydo bo'lgan. Yunonliklar finikiy yozuvni o'z tillariga mohirlik bilan tatbiq etdilar. Yozuv tarixida birinchi bor unlilar uchun alohida harflar joriy qildilar va undoshlar uchun bir necha harf ilova qildilar. Finikiylar rostdan chapga qarab yozardilar. Yunonliklar ham avval shu usulni qo'lladilar. Keyinchalik bir qatorni o'ngdan chapga, ikkinchi qatorni chapdan o'ngga qarab yoza boshladilar. Miloddan oldingi VII-VI asrlardan boshlab chapdan o'ngga qarab yozilishi joriy qildilar. Yunon alifbosi 24 harfdan iborat bo'lib, dunyoning ko'pgina tillari alifbosi, jumladan, lotin, slavyan, arman, gruzin, got tillarining alifbosi o'z asosini yunon alifbosidan oldi.

Avesto yozuvi. (Zand yozuvi ham deyiladi). III-IV asrlarda paylaviy yozuvi asosida ixtiro qilingan va Avesto kitobini yozish qo'llangan. Unda 48 ta harf va 3 ligatura (birlashgan harflar) mavjud edi. Ushbu yozuv Avestoni bexato va to'g'ri o'qish uchun ixtiro etilgan. Avesto yozuvi sasoniylar zamonida "din-dabira", ya'ni diniy matnlarni chop etish uchun yaratilgan yozuv nomi bilan yuritilgan.

Pahlaviy yozuvi. III asrda oromiy yozuv asosida yaratilgan. Paylaviy tilining qadimiy kotibalari yozuvda bitilgan. Ushbu yozuv 22 alomatdan iborat edi. Keyinchalik tez yozish (kursiv) usuli qo'llanilgach alomatlar miqdori 14-15 ta bo'ldi. Pahlaviy yozuvda faqat uzun unlilar o'z alomatiga ega edi. Ushbu yozuv o'ngdan chapga qarab yozilar edi.

Lotin yozuv. Eramizdan avvalgi 403-yildan boshlab Afinada klassik grek alfaviti qo'llana boshlandi. Ushbu alfavitda hammasi bo'lib

24 ta harf bo'lib, undan 7 tasi unli, qolganlari undosh tovushlarni ifoda etgan. G'arbiy grek yozuvi asosida lotin yozuvi paydo bo'lgan bo'lsa, sharqiy grek yozuvi asosida krilitsa, gruziya va arab alfavitlari yaratilgan.

Ko'p o'tmay lotin yozuvi G'arbiy Yevropada keng tarqala boshlandi. XVI asrga kelib qog'oz yaratildi va kitob nashri yo'lga qo'yildi. Bu omil ham lotin yozuvining keng tarqalishiga sabab bo'ldi.

Hozirgi zamon yozuvlaridan 70 tasi (bundan 30 tasi Yevropa, 20 tasi Osiyo, 20 tasi Afrikada yashovchi xalqlarga taalluqli) lotin yozuviga asoslangan.

Mavzuni takrorlash va mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Yozuv nima? U qachon paydo bo'lgan?
2. Yozuv qanday imkoniyatlarga ega?
3. Yozuvning dastlabki shakllari qanday holatlarda qayd qilingan?
4. Frazеografiya nima?
5. Qadimgi shartli alomatlar haqida gapirib bering.
6. Yozuvning tilga nisbatan qanday kamchiliklari mavjud?
7. Logografik yozuvning piktografik yozuvdan farqli tomonlari nimada namoyon bo'ladi?
8. Hozirgi vaqtda qadimgi yozuvlardan ham foydalanamizmi?
9. Bo'g'in yozuvi dastlab qaerda paydo bo'lgan?
10. Lotin yozuvi qachondan boshlab keng amaliyotda tatbiq etildi?
11. "Muqaddas yozuv" deb qanday yozuvni aytishadi?
12. Sillabografik yozuvning xususiyatlarini sharhlab bering?
13. Fonografik yozuvning taraqqiyot bosqichlari haqida gapirib bering.
14. Jahonda qanday yozuvlar keng tarqalgan? Buning sababi nimada deb o'ylaysiz?
15. Sug'd yozuvi haqida nimani bilasiz?
16. Mug' tog'i sug'd arxivi haqida gapirib bering.
17. Qaysi xalqlar yozuvi lotin yozuvi asosida ixtiro qilingan?
18. Lotin yozuvining keng tarqalishi sababini nimada deb o'ylaysiz?
19. O'zbekistonliklar qanday yozuvlardan foydalanishgan?

“Pinboard” metodi



(Inglizchadan: pin - mustahkamlash, board - doska)

Bu o‘qitish metodining mohiyati shundan iboratki, unda munozara yoki o‘quv suhbatini amaliy metod bilan bog‘lanib ketadi. Uning afzallik funksiyalari - rivojlantiruvchi va tarbiyalovchi vazifadir: Talabalarda mulohaza yuritish va munozara olib borish madaniyati shakllanadi, o‘z fikrini faqat og‘zaki emas, balki yozma ravishda bayon etish mahorati, mantiqiy va tizimli fikr yuritish ko‘nikmasi rivojlanadi.

Pinbordning texnologik xaritasi

Ish bosqichlari va tarkibi	Faoliyat	
	O‘qituvchi	Talaba
1-bosqich Tayyorlov	Mavzuni aniqlaydi, maqsadni aniq ifoda etadi, natija va baholash mezonini aniqlaydi. Qiziqtiruvchi (muzokarani) savol va asosiy fikrlarni shakllantiradi.	
2-Bosqich Mavzuni ishlash	Mavzu tuzilishini aniqlaydi, o‘z mulohazalarini bildiradi va talabalarga o‘z nuqtai nazarlarini bayon etishni taklif etadi. “Pinbord” metodini tushuntiradi. Munozara boshlanishini tezlashtirish uchun bir necha tayyorlangan savollarni berishi mumkin.	Mavzuni, uning maqsadi asosida o‘qituvchi bergan savollarni yozib oladi. Munozara vaqtida mavzuni ishlab chiqadilar.
3-Bosqich O‘z xulosalarini yozma bayon etish	Kuzatadi.	Munozara davomida shakllangan fikrlarini asosiy xulosalar ko‘rinishida qog‘oz varog‘i yoki kartochkaga yozib doskaga ilib qo‘yadilar.
4-Bosqich Umumlashtirish	Maslahat va tavsiya orqali majbur qilmasdan ko‘mak berish.	O‘quv guruhining 2 - 3 a‘zosi o‘rtoqlari bilan maslahatlashgan holda

		mazmuniga qarab ma'lumotni tartiblaydilar va guruhlariga bo'ladilar. Strelka, chiziq va boshqa belgilar yordamida ularning o'zaro munosabatini: bir butun yoki qarama - qarshi nuqtai nazarni shakllantiradilar
5-bosqich Yakun yasash, tahlil qilish, baholash	O'quvchilar tomonidan amalga oshirilgan faoliyatga yakun yasaydi, tahlil qiladi va baholaydi.	O'z-o'ziga baho berishni amalga oshirishlari mumkin.

4-MAVZU: QADIMGI KISHILARNING O'Z FIKRLARINI BOSHQALARGA YETKAZISH ISTAGI

Reja:

- 4.1. Qadimdan kishilarning o'z fikrlarini boshqalarga yetkazish istagini his qilganliklari.
- 4.2. Fikrlarni turli predmetlarga: toshga, metall, tuproqqa, teri, daraxt po'stloqlariga yozilganligi.
- 4.3. Yozuv quroli sifatida pat, qalam, ruchka, avtoruchka, sharikli ruchkalardan foydalanganlari.

Tayanch atamalar: *husnixat, tovush, analiz, sintez, harf, analitik-sintetik, diksiya, nutq, o'qish, yozish, savod o'rgatish, o'qish malakalari, yozuv malakalari.*

Qadimdan kishilarning o'z fikrlarini boshqalarga yetkazish istagini his qilganliklari.

Fikrlarni turli predmetlarga: toshga, metall, tuproqqa, teri, daraxt po'stloqlariga yozilganligi.

Yozuv quroli sifatida pat, qalam, ruchka, avtoruchka, sharikli ruchkalardan foydalanganlari.

Avtoruchka. Yozuv qurollarining tarixi, xususan ruchkaning tarixi juda qadimga, miloddan oldingi davrlarga, qadimgi odamlar g'or devorlariga tosh bilan rasm chizgan davrlarga borib taqaladi.

Qadimdan hozirga qadar yozuv qurollarining mexanizmi turli o'zgarishlarga uchradi. Bu hol odamlarning turmush tarzining o'zgarishi bilan bog'liq holda rivojlandi. Odamlar devorlarda turli xildagi

rasmlarni chizadigan bo'ldi. Buning uchun qirrali toshlar, suyaklardan foydalanar edilar. Bundan 4000-yil oldin shunday edi. Bundan 3000-yil avval misliklar tomonidan iyerogliflar ixtiro qilindi. Iyerogliflarni yozish uchun mo'yqalamlar yaratildi. Ana shu mo'yqalamlar hozirgi ruchkalarning prototipiga aylandi. Xitoyliklar mo'yqalamni sichqon va tuya junidan tayyorlar edilar.

Shu davrda bo'yoq tayyorlash resepti ham paydo bo'ldi. Bo'yoq ixtiro qilingandan so'ng yozuv qurollari yanada mukammal bo'ldi.



Endi ruchka sifatida bambuk, nay, qamish poyalaridan foydalanar edilar. Bu o'simliklarning poyalari bo'yoqni o'ziga juda yaxshi ushlar edi va yozishga qulay edi. Milodiy davrning 600—1800-yillari yozish uchun turli qushlar qanotining bir parchasi (pat)dan foydalanildi.

Pat o'simlik poyalaridan ko'proq va yaxshiroq xizmat qilar edi. Yozish uchun asosan yosh g'ozlarning patidan foydalanilar edi. Patni bahor faslida g'ozlarning chap qanotidan olar edilar. O'ng qanotdan olingan patlar yozuv jarayonida xat ustini yopib qo'yar edi. XVIII asrda kelib patlarga ehtiyoj yana ortdi. Rossiya har-yili Angliyaga 27 million pat yuborar edi.

Massachusetlik Djon D. Laud 1888-yilning oktabr oyida “uchi aylanadigan ruchka” ixtiro qilib patent oldi.



Uchida sharikchasi bor ruchka bo'yoqqa botirilar edi. Shu ruchkaning nusxasi keyinchalik boshqa ruchkalarning yasashiga asos bo'ldi. Keyinroq aka-uka Ladislo va Georg Birolar ruchkaning yaxshi nusxasini yaratdilar. Ular yasagan ruchka uchida ham sharikcha bor edi. Bu sharikcha aylanib o'zidan iz qoldirar edi. Ruchka bo'yog'i muammosi ham ularni ko'p qiynagan. Ular o'z ixtirolarini fransu'z Marselo Bichga sotdi. 1952-yildan boshlab bo'yog'i qurimaydigan va tommaydigan ruchka ixtiro qilindi.




1997-yilda shunday ruchka ixtiro qilindiki, bosim bilan yozishga hojat yo'q edi.

Qalam (karandash – turkcha karadas – “qora tosh“ so‘zidan olingan) 1775-yil fransuz Nikolya Jakkonte tomonidan ixtiro qilingan. Grafit (karbonning bir turi), ya’ni qalamning qora bo‘yog‘i avvallari temir naychaning ichida solinar edi. Boshida tilla naychadan foydalanganlar. Bu qalam turi yozish uchun emas, balki shon-shavkat uchun olib yurilar edi.

Markaziy Osiyoda xat siyohda qalam (qamish qalam, savag‘ich qalam) bilan yozilgan. XIX asrning ikkinchi yarmidan ruchka bilan yozish rasm bo‘la boshlagan. Shu davrda o‘zbek tilida “**Po‘lod qalam**” atamasi paydo bo‘lib, hozirgi qalam esa **qarindoshqalam (karandash-qalam)** deb yuritilgan. Bizning davrimizda yozuvda avtoruchka, sharikli ruchka, qalam, yozuv mashinkasi va kompyuterdan foydalanilmoqda. Yozuvning bu kabi vositalaridan harflar bosim bilan yozilmaydi. Shuning uchun ham har bir harfni aniq, toza, chiroyli, ayni vaqtda, tez yozish talab qilinadi.

Hozirgi kunda avtoruchkalar xilma-xil bo‘lib, ularning hammasi ham boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga mos kelmaydi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun tavsiya etiladigan sharikli avtoruchkalarining yo‘g‘onligi bolalarning qo‘l barmoqlariga mos bo‘lishi kerak. Tavsiya etiladigan sharikli avtoruchkalarining uzunligi 130 mm dan, yo‘g‘onligi esa 8 mmdan oshmasligi lozim (6-rasm).



(6-rasm)

Avtoruchkalardan foydalanish qoidalarini tayyorgarlik davri mashg‘ulotlari davomida o‘rgatishi lozim. O‘quvchilarni sharikli avtoruchkada yozishga o‘rgatishdan avval undan qanday foydalanish, siyohli naycha (sterjen)ni qanday almashtirish, uni saqlash qoidalarini o‘rgatish lozim. O‘qituvchi shogirdlarini avtoruchka bilan tanishtirish jarayonini suhbat tarzida tashkil etishi mumkin:

— Bolalar, bugun biz birgalikda sharikli avtoruchkadan qanday foydalanishni o'rganamiz. Avtoruchka bilan yozishni o'rganishdan oldin sizlar ba'zi bir qoidalarni bilishingiz lozim. Hozir shu haqda suhbatlashamiz. Qani kim menga aytadi: qalam qanday bo'ladi?

O'quvchi: Qalam – yog'och tayyoqcha, o'rtasida esa qora bo'yog'i bor.

Shundan keyin o'qituvchi qalam va avtoruchkani ko'rsatib, ularning bir-biridan farqini so'raydi.

O'quvchi: Avtoruchka siyoh bilan yozadi, qalam esa siyohsiz yozadi.

O'qituvchi: To'g'ri, avtoruchka siyoh bilan yozadi. Endi men sizlarga sharikli avtoruchkaning qanday tuzilishini ko'rsataman. Mana, mening qo'limda sharikli avtoruchka. Uning qismlarini alohida-alohida ko'rib chiqamiz. Bu qopqoq siyohli naycha (sterjen)ni saqlaydi. Mana bu avtoruchkaning siyohli naychasi (o'qituvchi ruchkani qismlarga bo'ladi). Uning ichi siyoh bilan to'ldirilgan. Shuning uchun unga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lishimiz kerak (o'qituvchi uni qo'liga olib ko'rsatadi). Faqat naychaning siyohi tugagandan keyin uni almashtirish kerak.

Shunday qilib o'qituvchi sharikli avtoruchkaning old va orqa qopqog'i, siyohli naychasi hamda himoya qopqog'i bilan shogirdlarini mufassal tanishtiradi. O'quvchilarning o'zi ham ustoz yordamida ruchkani qismlarga bo'lib qayta yig'ishni mashq qiladi.

Sharikli avtoruchkaning qismlari bilan tanishtirilgandan so'ng undan qanday foydalanish qoidalari tushuntiriladi.

O'qituvchi: Yozayotganda avtoruchka uch barmoq: bosh, ko'rsatkich, o'rta barmoq bilan ushlanadi (O'qituvchi aytganlarini amalda ko'rsatib beradi, o'quvchilar esa u ko'rsatgan amallarni takrorlaydi). Men ko'rsatgandek avtoruchkani qo'lingazga oling. Yozayotganingizda avtoruchkaning kichik qopqoq tomoni o'ng yelkangizga to'g'ri tursin (O'qituvchi har bir o'quvchiga yozish vaqtida ruchkani qanday ushlashni ko'rsatib chiqadi). Yozib bo'lgandan so'ng avtoruchkani partaning ustidagi chuqurchaga qo'ying. Dars tugagandan so'ng esa ruchkangizni o'z qutichangizga solib qo'yishni unutmang.

Sharikli avtoruchka bilan yozish yuzasidan ota-onalar bilan ham suhbat o'tkazish lozim. Buning uchun o'qish boshlanishidan uch-to'rt kun oldin ota-onalarni yig'ib, ularga bolalari qanday avtoruchkada yozishlari va faqat shu tavsiya etilgan avtoruchkalarni olib berish tushuntiriladi.

Avtoruchkaning yozuvga doim tayyor bo'lishi, husnixatga o'rgatishning asosiy shartlaridan biridir, shuning uchun unga alohida e'tibor berish talab etiladi.

“Qanday?” ierarxik diagrammasi

Ushbu diagramma muammo to'g'risida umumiy tasavvurlarni olish imkonini beruvchi, mantiqiy savollar zanjiridir.

Diagrammaning maqsadi:

Talabalarda muammonining yechimini topishda tizimli fikirlash, tahlil qilish, ko'nikmalarni rivojlantirish va faollashtirish vositasi hisoblanadi.

«Qanday?» ierarxik diagrammasi usuli orqali mashg'ulotlarni tashkil etish tartibi.

1. O'qituvchi:

- alohida kichik guruhlarini tashkil etadi;
- diagramma tuzish qoidasi bilan tanishtiradi;
- fanga oid muammoli savol o'rta tashlaydi;
- yonaltiruvchi savollar berish orqali o'quvchilarni muammo yechimini topishga yo'llaydi.

-


2. O'quvchilar:

- chizmani chizish qoidasi bilan tanishadilar;
- alohida kichik guruhlarda chizma tuzadilar;
- Avval asosiy muammoni (g'oya, vazifa) yozadilar, so'ngra kichik muammolarni batafsil ko'rib chiqish uchun kichik shoxchalarni chiqaradilar. - Shunga asosan har bir g'oyalar rivojlanishini batafsil kuzatish mumkin.

- Olingan natijalarga asoslangan holda taqdimot qiladilar.

Mashg'ulot yakunida o'qituvchi va talabalar taqdimotlar asosida umumiy hulosani chiqaradilar.

Namuna:



5-MAVZU: O'QUVCHILARNING O'QIY OLISHI UCHUN YOZUVNING ANIQ, RAVSHAN BO'LISHIGA INTILGANI HAQIDA MA'LUMOT

Reja:

5.1. Yozuvning uslubiy ko'rinishlari.

5.2. Yozuv, asosan, maxsus mutaxassislar, saroy, davlat arboblari, qozilar tomonidan yozilganligi.

Yozuvning uslubiy ko'rinishlari.

Tarixda eski yozuvning bir necha xil uslubiy ko'rinishlari bo'lgan.

Yozuvning uslubiy ko'rinishlari deganda har bir qalam egasining o'ziga xos individual yozuv manerasi, uning dastxati emas, balki yozuvning ko'pchilik tomonidan qabul qilingan, odat tusiga kirib qolgan umumiy uslubiy ko'rinishi – xat shakllari nazarda tutiladi.

Matbaachilik yuzaga kelmagan, kitobat ishlari zaxmatkash kotiblarning qo'l mehnati va san'ati bilan amalga oshirilgan davrlarda xilma-xil yozuv usullarining kelib chiqishi tabiiy bo'lgan.

Xattotlik tarixiga oid ma'lumotlarda kotiblarning xatti suls (suls xati), xatti nasx (nasx xati), xatti muhaqqaq, xatti rayxoniy, tavqe', riqo' xatlari bo'yicha yozishda san'at va mahorat ko'rsatgaliklari tilga olinadi.

Arab yozuviga asoslangan xatning eng ko'xna usullaridan biri xatti ko'fiy (ko'fiy xati)dir. Qur'onning ilk namunalari ko'fiy xati bilan bitilgan edi. Nuqtasiz harflarni g'isht qoliplari shakliga solib siyrak, yakka-yakka qilib yozishga asoslangan bu yozuvning har xil tarmoqlari yuzaga keladi va natijada asl ko'yfiy xati bora-bora qabr toshlari, binolarni bezashdagina ishlatiladi.

Ko'fiy xati tarmoqlari bilan bir qatorda O'rta Osiyoda nasx xati («xatti nasx») ham keng tarqala boshlaydi. Harflari ost-ust belgilari bilan tikroq, ingichkaroq va zichroq qilib yozilgani, oz o'ringa ko'proq gapni sig'dirish mumkin bo'lgani uchun nasx xati hayotdan ancha mustahkam o'rin egallaydi. Temur zamonidan boshlab Xuroson va Movarounnahrda nasta'liq («nasx+ta'liq») xati shakllana boradi. Sulton Ali Mashhadiy asos solgan Hirot xattotlik maktabi bu yozuvning keng yoyilishi va chuqur ildiz otishiga sababchi bo'ladi. Navoiy, Bobur asarlari, uch xonlik davrida yaratilgan va ko'chirilgan forsha-tojikcha va turkcha-o'zbekcha yozma yodgorliklarning deyarli hammasi nasta'liqning O'rta Osiyo xati deb atalayotgan uslubiy ko'rinishida yozilgandir.

Yozuvning yana xatti ta'liq, xatti devoniy, xatti shikasta kabi ko'rinishlari ham bor. Xatti ta'liq – xatti nasxga, xatti devoniy esa nasta'liq xatiga yaqin bo'lgan. Ammo shikasta (siniq) xati harflarning o'zaro zanjirsimon bog'lanib ketishi, so'z yoki qatorlarning uzuq-uzuq yozilishi bilan yozuvning boshqa uslubiy ko'rinishlaridan ajralib turadi.

Shuni qayd etish zarurki, yozma faoliyatda, ayniqsa, kitobat ishida bu yozuvlarning davrga mos ko'rinishdagina foydalanib qo'ya qolmasdan, uning boshqa usullarini ham qo'llaganlar. Masalan, kitobning bezagi yoki sarlavhalarini yozishda bir usuldan, oyatlarni ajratib ko'rsatish maqsadida - ikkinchi bir usuldan, asosiy matnni yozish uchun – uchunchi usul, xotima qism ifodasi uchun – to'rtinchi v.b. Shuoyi xatdan – bezak uchun, tug'ro xatidan – imzo uchun, tumor, g'ubor (mayda), shajariy xatlaridan yana o'zga maqsadlar uchun foydalanish odat bo'lgan.

Yozuv, asosan, maxsus mutaxassislar, saroy, davlat arboblari, qozilar tomonidan yozilganligi

Axmad Tayibshoh Movarounnahriy bir necha xatga, ayniqsa, suls xatiga ravshanlik kiritgan. 1215 -yilda vafot etgan. Ba'zilar bu xattotni Ibrohim shoh Tayib xdm deyilar.

Mavlono Yusuf Xurosoniy xattot Yoqutning mashx^{ur} shogirdlaridandir. Ustozi bilan bir vaqtda vafot etgan. Yoqut xat bilan 1210-yilda ko'chirilgan «Kalimoti murtazaviyya» asari Ayoso'fiya kutubxonasida saqlanadi. «Kalimot» bilan birga Ali binni Hilol xatida Salomat ibn Jandal ismli arab shoining qasidasini ko'chirgan. Bu qasidani 1218-yilda ko'chirib tamomlagan. 1269-yilda vafot etgan.

Ibrohim Mirzo Shohrux o'g'li Temur nabiralidan bo'lib, Sharafiddin Ali Yazdiy shogirdlaridandir. Ulug' tarixchi o'zining «Zafarnomaiy Temuriy» asarini Temurga bag'ishlab yozgan. Mirzo Ibrohim olti xil xatda tengi yo'q xattot edi. Yoqut uslubiga taqlid qilib, xat san'atida undan o'tib ketgan. U yozgan xat qoldiqlarining ba'zilar Hozir ham Sheroz qadimiy binolarida saqlanib qolgan. Xattot 1431-yilda vafot etgan.

Ahmad Rumiy Sulton Boysunqor kitobxonasining xattotlaridan bo'lib, ko'p vaqtlar ulug' kishilar bilan suhbatlashgan.

Sulton Boysunqor Temuriy shahzodalaridandir. U 35 yoshida -1427-yilda vafot etgan. «Davlatshox tazkira»da ko'rsatilishicha, uning kitobxonasida 40 nafar mashhur xattotlar tun kun kitobat bilan shug'ulanar edilar. Xattotlik, zarafshonlik, oltin xalash, naqsh, lavxa,

rasm, miniatyura va boshqa badiiy san'atlar ishlash Boysunqor davrida ravnaq topgan. Istanbulning xar bir kutubxonasida hech bo'lmaganda bir nusxa uning davrida ko'chirilgan asar mavjud. Sulton buyrug'i bilan ko'chirilgan qo'lyozmalardan «Faraj ba'da shiddat»ning tarjimasi va «Nusxat ul-arvox» kitobi diqqatga sazovordir.

Mirzo Ulug'bek astronomiya va xandasada o'z davrida yagona bo'lgani kabi Boysunqor mirzo she'r va xatda o'z davrining eng mashxur kishisi edi.

Eronliklarning aytishicha, to'rt kishi to'rt xatda sulsda Boysunqor mirzo, ta'liqda Mir Imod, nasxda Mirzo Ahmad, shikasta xatda Darvesh Abdu Majid Tolqoniy ustod emish.

“SWOT-tahlil” metodi.

Metodning maqsadi: mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo'llarni topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandart tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.

S – (strength)	kuchli tomonlari
W – (weakness)	zaif, kuchsiz tomonlari
O – (opportunity)	imkoniyatlari
T – (threat)	to'siqlar

Namuna: Husnixatni SWOT tahlilini ushbu jadvalga tushiring.

S	Husnixatning kuchli tomonlari	
W	Husnixatsiz yozuvning kuchsiz tomonlari	
O	Husnixatning imkoniyatlari (ichki)	
T	Husnixatsiz yozuvdagi to'siqlar (tashqi)	

6-MAVZU: HUSNIXATGA O'RGATISH METODIKASINING SHAKLLANISH TARIXI

Reja:


- 6.1. Xattotlik san'ati.
- 6.2. Xattotlik maktablari haqida ma'lumot.
- 6.3. Hirot maktabi haqida ma'lumot.

Tayanch atamalar: *xattot, nastalig', xatti boburiy, suls xati, usul, tarkib, kursi, suud, nuzul, nisbat, davr, sath, quvvat, za'f, safo va nishon, kufi, suls.*

Xattotlik (arabcha خطاط - kalligraf) – yozuv, xat san'ati (kalligrafiya, husnixat), kitob ko'chirish kasbi. O'rta Osiyoda qadimdan rivoj topgan. Yozuv paydo bo'lgandan keyin maxsus kishilar xattotlik bilan shug'ullana boshlashgan. Ayniqsa, arab yozuvi tarqalganidan so'ng xattotlik keng rivoj topgan.

O'rta Osiyoda matbaachilik vujudga kelgunga qadar kitob tayyorlash, ularning nusxasini ko'paytirish ishi bilan xattotlar shug'ullangan. Saroylarda ayrim amaldorlar huzurida xattotlar jamoalari tashkil topgan (masalan, Mirzo Boysunqur saroyida qirqta xattot ishlagan). Xattotlik san'ati uslublari to'g'risida ko'p risolalar yaratilgan. Amir Temur hukmronligi davrida nastaliq uslubi yaratilgan, uni yaratgan mashhur xattot Mirali Tabriziy shuningdek, Sultonali Mashhadiy, Majnun ibn Kamoliddin Rafiqiy, Darvesh Muhammad ibn Do'stmuhammad Buxoriy, Munis Xorazmiy, Ishoqxon To'raqo'rg'oniy kabilarning xattotlik haqidagi risolalari bizgacha yetib kelgan. Ularda yozilishicha, xattotlikda yetti xil asosiy san'at mavjud: **suls, muhaqqaq, nasx, tavqe', riqo', ta'liq, nasta'liq**. XVII asrda arab yozuvining keng tarqalgan uslublaridan biri ko'fiy xati ixtiro qilinguncha (ixtirochi Ya'rab ibn Qahton) O'rta Osiyoda turli yozuv usullari mavjud bo'lgan. Masalan, **makkiy, madaniy, basariy** va boshqalar. Bulardan oldinroq ma'qaliy (tik chiziqli) yozuv bo'lgan. Kufiy yozuvi ko'pgina obidalarining naqshlarida saqlanib qolgan. Xalifa Muqtadi zamonida yashagan olim ibn Muqla' (864-934) ni xatti sitta (olti xil yozuv: suls, nasx, muhaqqaq, rayhoni, tavqe', riqo') ixtirochisi deb tan olingan.

Zamonlar o'tishi bilan kufiyning turli shakllari ixtiro etilgan. Qur'onning ilk namunalari (masalan, O'zbekiston Diniy ishlari idorasida saqlanayotgan Usmon qur'oni) shu yozuvda yozilgan, keyinchalik bu yozuv, asosan, binolarda bezak sifatida qo'llangan. Muhaqqaq yozuvi ko'fiy yozuvining bir oz o'zgartirilganidir.



Rayhoniy uslubi muhaqqaq yozuviga o'xshagan, lekin harf shakllari rayhon barglariga o'xshagani uchun shu nom bilan atalgan. Nasx yozuvi kufiy va muhaqqaq yozuvlaridan ko'ra qur'on ko'chirishda ma'qulroq topilgan. Tavqe' buyruq va farmonlar yozishda foydalanilgan. Riqo' yozuvi tavqe'ga ancha yaqin, lekin undan nozikroq. Asosan maktublarda ishlatilgani, kitobga aloqasi bo'lmagani uchun parcha (arabcha - ruq'a) qog'ozlarga nafis qilib yozilgani uchun riqo' deb atalgan. Bulardan tashqari tumor, g'ubor, shajariy, tug'ro va boshqa yozuv usullari bo'lgan. **Tug'ro** – imzo qo'yishda qo'llanilgan.

Shajariy – harflar daraxt shoxlariga o'xshab ketadi.

G'ubor – mayda xat bo'lib, ixtirochisi Saidqosimdir.

XV asr boshlaridan kitob ko'chirishda (fors, eski o'zbek tillarida) nasta'liq xati rasm bo'ldi. Navoiy ta'biricha, xattotlar sulmoni bo'lgan Sultonali Mashhadiy nasta'liq xatini ajoyib san'at darajasiga ko'targan. Kitobatchilikda bosmaxona paydo bo'lguncha kotib, xattotlar mehnati asosiy rol o'ynadi. Kitob chiqarish ishlari hukmdorlarning xohishi va mablag'lari bilan amalga oshirilgan. Bu borada Boysunqur, Alisher Navoiy, Feruz va boshqalarning ishlari diqqatga sazovordir.

Xatotlik bosqichlari:

Mufradot – harflarning alohida ko'rinishlarini yozish mashqi. Bu bosqichda alifdan boshlab, boshqa ko'rinishdagi harflarni o'xshashligiga ko'ra yozib o'rganishgan. Bunda o'quvchilar har bir harf bilan tanishib, uni tanish, o'qish va yozish malakasiga ega bo'lishgan. Masalan:

Murakkabot - mufradot bosqichida o'rganilgan harflarni bir-biriga qo'shib yozish mashq qilinadi. Bunda har bir harfning turli ko'rinishlari bir-biriga ulanishi yoki ma'lum bir harfning turli ko'rinishlari boshqa harf ko'rinishlari bilan o'zaro bog'lanishi o'rganiladi. Masalan:

Muqattaot – murakkabot bosqichida o'rganilgan malaka va ko'nikmalar yordamida ma'lum so'z va so'z birikmalarini ko'chirib yozish, mustaqil ravishda yozish, shuningdek, fard, qit'a va ruboiylarni ko'chirish mashq qilingan.

Insho – bu bosqichda o'rganilgan bilimlar asosida jumla va bir necha jumladan iborat matnlar tuzilgan.


Xushnavislikning o'ziga xos talab va qonuniyatlari. Xattotlik san'ati ta'kidlaganimizdek muayyan qonun va talablarga asoslangan va bu talablar matematik aniqlikni talab qilar edi. Oltilik sistemaga asoslangan xattotlik san'ati me'yor sifatida doira shaklini tanlar edi. Bu doira ichida tomonlari barobar uchburchak, kvadrat va beshburchak chizilib, undan harflar andozasi muayyan qilingan.

Har bir harf uchun romb shaklidagi yuqoridan pastga qarab qo'yilgan nuqtalar ishlatilar edi. Yozuv turlariga qarab nuqtalar miqdori o'zgartirilgan. Masalan, muhaqqaq yozuvi uchun sakkiz nuqta, suls yozuvi uchun yetti va tavqe yozuvi uchun olti nuqta muqarrar qilingan edi.

XATTOTLIK QUROLLARI

Qalam – qo'lyozma kitob yaratishdagi eng asosiy yozuv qurollaridan birining nomi. Qalam so'zi asli yunoncha «qalamos» bo'lib, yunon tilida qamishni ifodalagan.

Xattotlik ishida qo'llangan qamish qalam tayyorlash jarayoni ancha murakkab bo'lgan. Qalam tayyorlash kishidan o'ziga xos malaka va tajriba talab qilgan. Qalam yasashga mo'ljallangan qamish turi to'g'ri kelgan joydan olinmagan. Ular turli joylarda etishtirilgan. Xususan, 16 asrning etuk xattotlaridan bo'lmish Fathulloh ibn Ahmadning fikricha, Vosit shahri (Kuf va Basra shaharlari o'rtasida joylashgan) atrofida etishgan qamish eng oliy nav hisoblangan bo'lsa, Amudaryo sohillarida o'suvchi qamish o'zining sifati bo'yicha ikkinchi o'rinni egallagan. Misr va Mozandaron qamishlari esa keyingi o'rinlarda turgan. Shu nuqtai nazardan qalamni qanchalik bekamu ko'st va sifatli yasalishi qamishni qaerda o'sganligi, yo'g'onligi, rangi, saqlanishi, ishlov berilishi kabi holatlarga ham juda bog'liq bo'lgan. kamishning etishgan joyiga ko'ra qalam turlarini anglatuvchi terminlar ham joy nomlariga ko'ra yasalgan: *vositiy, amuriy, misriy, mozandaroniy* va boshqalar.



Qog'oz کاغذ - qog'ozning yaratilish tarixi miloddan avvalgi VII asrlarga borib taqaladi. Qadimda qog'ozlar pariros daraxtidan, maxsus ishlov berilgan teridan tayyorlangan. Eramizning II asrida Xitoyda qog'oz ishlab chiqarish keng yo'lga qo'yilgan. Xitoyliklar serdaromad sanalgan qog'oz ishlab chiqarishni qanchalik sir turmasinlar, VII asrning ikkinchi yarmidan e'tiboran Samarqandda Xitoy qog'ozi kabi yuqori sifatli qog'ozlar ishlab chiqarila boshlandi. Chunki Samarqandda qog'oz ishlab chiqarish uchun kerakli bo'lgan xom ashyoning barcha turlari: ipak, paxta, kanop, qamish, poxol, tut novdasining po'sti kabilar mavjud edi. Dastlabki yozuv qog'ozlari o'rama shaklda, juda katta hajmda, keyinchalik esa, ularning daftar, bizga yaxshi ma'lum bo'lgan sharq qo'lyozmalari shaklida tayyorlangan.

Siyoh سياه - yozuv ishida rang sifatida qo'llangan suyuqlik. Bu so'z fors tilida qora degan ma'noni ham bildiradi.

Mixrak محرک - termini dovot, ya'ni siyohdondagi siyohni aralashtirishda foydalaniladigan cho'p. Bu so'z asli arabcha bo'lib, harakatga keltiruvchi ma'nosini ifodalaydi va u «harraka» - حرک - aralashtirmoq, harakatga keltirmoq fe'lidan yasalgan.

Mistar مسطر - kotib tomonidan matnni ko'chirishda qog'ozdagi qo'lyozma satrlarining to'g'ri va ravon chiqishini ta'minlashda ishlatilgan yozuv quroli. Mistarni tayyorlashda qalin karton qog'oz yoki bir necha varaqlar bir-biriga yopishtirib tayyorlangan qog'oz olinib, unga yo'g'on iplar bir-biridan ma'lum va teng masofadagi qatorlarda tortilib turadi. Xattot bunday mistarni toza qog'oz yoki varaqning tagiga qo'yib qo'li bilan bosgan va uning natijasida iplarning izi qog'ozga tushib, botiq chiziqlar paydo bo'lgan. Kotib ana shu botiq chiziqlar bo'ylab, matnni ko'chirgan. Mistar so'zi termin sifatida asosan Alisher Navoiy hamda Bobur asarlarida uchraydi.

Satr سطر - qo'lyozma asarning, umuman, maktub, hujjat kabilarning yozilgan har bir qatori satr termini bilan ifodalangan. Satr

soʻzi arabcha boʻlib, chiziq, yoʻl, qator maʼnolarini ifodalaydi. Oʻzbek tiliga uning asosan, qator va satr maʼnolari koʻchgan va shu maʼnoda qoʻllaniladi.

Poygir پایگیر - poygir soʻzining lugʻaviy maʼnosi qadam olmoq boʻlib, fors tilidagi پا – oyoq hamda گرفتن – olmoq feʼlining hozirgi zamon oʻzagi oʻzaro birikuvidan hosil boʻlgan. **Poygir** – kelgusi sahifasidagi birinchi soʻzni tugallanayotgan sahifa yozib qoʻyishni anglatadi. Demak, poygir (yaʼni qayd qilingan soʻz) sahifalarini chalkashtirib yubormasligimizning oldini oladi.

Kolofon – qoʻlyozma soʻngida keltiriladigan maʼlumotnomasi. Unda kitob nomi, qoʻlyozmaning koʻchirilgan sanasi va kotibning mulohazalari beriladi. Qoʻlyozma formati, unda ishlatilgan xat turi, qogʻoz turi, siyoh navi, turli bezaklar ham qoʻlyozmaning tavsiflashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xullas poygira tayangan holda sahifalarni toʻliq yoki toʻliq emasligini bilib olamiz. Bundan anglashiladiki, poygir yozma yodgorliklarda raqamlar ifodalashi mumkin boʻlgan vazifani ham bajarib kelgan.

Xattotlik maktablari haqida maʼlumot

Xattot va madaniy hayot. Sharq xalqlari, shu jumladan, Oʻrta Osiyo xalqlarining madaniyat tarixi eng qadimiy va koʻp sohalarda yuksak taraqqiyot bosqichiga erishilganligi bu kunda butun dunyo ilm-fan ahli tomonidan eʼtirof etilgan haqiqatdir. Oʻrta Osiyo xalqlari oʻz oʻtmishida bir necha dafʼa iqtisodiy, siyosiy va madaniy taraqqiyot davrini boshidan kechirgan.

Arablar istilosidan soʻng IX-XI asrlarda Oʻrta Osiyoda, ayniqsa, Xorazmda madaniy va ilmiy tafakkur beqiyos barq urib gulladi. Jahonga tanilgan al-Farobiy, Ibn Sino, al-Beruniy singari ulugʻ mutaffakir olimlar dahosidan hozirgacha bashariyat bahramand boʻlib kelmoqda. Shuni alohida qayd etish zarurki, bu porloq davr arab istilosining mahsuli emas, aksincha, arab istilosiga qadar Oʻrta Osiyoda mavjud boʻlgan xorazmiylar va surdiylarning uzoq asrlik boy madaniyatining qonuniy taraqqiyotidan iborat boʻlgan. Arab istilosiga qadar Oʻrta Osiyo xalqlari, shu jumladan, turkiy xaqar (ayniqsa, uygʻurlar) yaratgan madaniy obidalar fikrimizning isbotidir. Ayniqsa, 1965-yili Samarqandda ochilgan Afrosiyob arxeologik yodgorliklari arablarga qadar Oʻrta Osiyo xalqlarining mislsiz taraqqiyot darajasida ekanini yana bir marta tasdiqlaydi.

XIII-XIV asrlarda mo'g'ullar O'rta Osiyoni vayron qilib, obod shaharlarni xarobaga aylantiradilar. Madaniy yodgorliklar parchalanib, ilm-fan xazinasini bo'lgan minglab qo'lyozma kitoblar gulxanlarda kuydiriladi. Mo'g'ul bosqinchilari qancha barbod bermasinlar, ijodkor xaq o'z madaniy merolsini ardoqlaydi, eng og'ir va mashaqqatli hollarda madaniy hayot olg'a tomon boraveradi.

XIV-XV asrlarda Temuriylar davrida O'rta Osiyo feodalizm jamiyatida qisqa muddatli bo'lsa ham markazlashgan feodal davlati joriy qilinib, mamlakat hdyotida iqtisodiy, siyosiy va madaniy yuksalish ro'y berdi. Ayniqsa, XV asr Hirotda, Samarqandda O'rta Osiyo xadqlari madaniyati o'zining eng porliq davrini boshidan kechirdi. Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Xondamir, Behzod, Sulton Ali va Mirzo Bobir bu davrning aql egalaridan bo'lganlar.

XVI asrning boshidan safaviylar va shayboniylar hokimiyat tepasiga kelishi bilan iqtisodiy va madaniy hayot asta-sekin inqirozga yuz tuta boshlaydi.

XIX asrga kelganda, ayniqsa, O'rta Osiyoning Rossiya bilan iqtisodiy va siyosiy aloqalari kuchaya borgan sari madaniy hayotda yana ko'tarilish ro'y bera boshladi.

Shunday qilib, IX asrdan to XX asrgacha, taxminan 1000-yillik tarixida O'rta Osiyo xalqlarining ilm-fan va ma'naviy madaniyat sohasida yaratib qoldirgan buyuk merosi bizning davrimizgacha, asosan, qo'lyozma kitoblar shaklida etib kelgandir.

Arab yozuvida kitobat qilingan ming-yillik madaniy meros nasldan-naslga qo'lyozma shaklida o'tib kelgan. Shu qo'lyozma kitoblar tufayligina O'rta Osiyo xalqlari ota-bobolari yaratib qoldirgan madaniy merosdan bahramand bo'lganlar. Shu qo'lyozma tufayli O'rta Osiyodagi har bir xalq, har bir millat o'z tarixiga ega bo'lgan. Nihoyat, shu qo'lyozmalar tufayli O'rta Osiyo xalqlari jaxon madaniyat tarixi taraqqiyotiga o'z hissasini qo'sha olgan.

Bu qo'lyozma kitoblarning muallif tomonidan parcha-parcha qog'ozlarga yozilib ijod etilgandan so'ng, uni oqqa ko'chirib, kitob tusiga kirituvchi g'oyat murakkab, mashaqqatli, ayni vaqtda sharaflil vazifani bajaruvchi shaxs kitob bo'lgan. Kotiblik daf'atan qaraganda kishiga bir texnik vazifaga o'xshab ko'rinadi. Kitob go'yo muallifning yaratgan asarini harfma-harf ko'chiruvchi kishidek bo'lib tuyuladi. Haqiqatda esa bunday emas.

O'rta asr tarixida va u davrdagi madaniy hayotda kotibatlik hunari eng sharaflil va muqaddas vazifa hisoblangan. Avvalombor kotibning

savodli bo'lishining o'zi feodalizm sharoitida ko'p vaqt hokimlar, amirlar savodsiz bo'lgan bir paytda uni (kotibni) yuqori mavqega olib chiqadi. Ikkinchidan. Kotib kitobat qilish munosabati bilan har bir ko'chirgan kitobning mazmunini o'zlashtira boradi. Shuning natijasida haqiqiy kotib o'z zamonasining o'qimishli ilm-ma'rifat egalari qatoridan joy oladi. Demak, O'rta asr Sharq mamlakatlarida kitob ko'chirish bilan shug'ullangan xattotlarni biz oddiy ko'chiruvchilik vazifasini bajaruvchi shaxs deb emas, balki har bir xattotni o'z zamonasining o'qimishli ma'rifatparvar, ilg'or ziyolisi va yirik madaniyat arbobi deb tushunishimiz kerak.

Arab yozuvi O'rta Osiyoga islom dini bilan kirib kelgan. Shu sababli arab mamlakatlaridagi va shuningdek, O'rta Osiyodagi bir guruh xattotlar Qur'on hamda diniy kitoblarni ko'chirish bilan shug'ullanganlar. O'z zamonasida nihoyatda muqaddas hisoblangan «kalomi sharif», din, shariat haqidagi kitoblarni ko'chirish vazifasi x_sar kimning qo'lidan kelavermagan.

Bulardan tashqari tarixdan yana shu narsa ma'lumki. O'rta asrlar yashagan bir qancha olim, shoir va fozil kishilar yoshlikdan xattotlik san'atini egallab, keyinchalik kotiblikda ham nom chiqarganlar. Bunday ulug' zotlar faqat o'z asarlarinigina kitobat qilmasdan, balki boshqa mualliflar asarini ham ko'chirganlar. Masalan, Hofiz Sheroziy Xusrav Dehlaviyning «Xamsa»sini ko'chirgan. Temuriy bolalaridan bir nechalari (Boysunqor Mirzo, Rolib Mirzo, Badiuzzamon) kitobat bilan shug'ullanganlar. Alisher Navoiyning mohir xattot ekanligi tarixiy manbalardan ma'lum. Mirzo Bobir arab grafikasining turkiy xalqlarga moslab islox qilingan engil yozuv «xatti boburiy»ni irod etgan. Munis Xorazmiy xattotlik san'ati haqida «Savodi ta'lim» nomli risola yozgan va Alisher Navoiyning «Xamsa»sini nihoyatda go'zal xat bilan ko'chirgan. Nihoyat, Buxoro xattotlik maktabining so'ngi vakillaridan XIX asrning buyuk olimi, ensiklopedik aql egasi Axmad Donish o'ndan ortiq zebo qo'lyozmalar ko'chirib qoldirgan.

Ibn Bavvobning xat san'ati haqidagi risolasidagi asosiy g'oyalar keyinchalik juda ko'p risolalarda taraqqiy ettiriladi va yangi amaliy maslahatlar, nazariy fikrlar bilan boyitiladi.

Biroq Ibn Bavvob ixtiro etgan xat namunalari haqida XVI asrgacha, deyarli, hech qanday aniq ma'lumot yo'q. Faqat XV asrning II yarmida yashab 908/1502-03-yilda vafot etgan arab xattotlaridan Muhammad bin Hasan al-Tibiy o'zining risolasida Ibn Bavvob Tomonidan 17 xil xat ixtiro etilganligini to'la ravishda bayon qiladi hamda bu 17 xil xatni Ibn

Bavvob yozgan mo‘‘tabar nusxalardan ko‘chirib, ularning nomlarini birma-bir ko‘rsatadi. Muxammad Bin xasan al-Tibbiy risolasini arab olimlaridan doktor Saloxddin al-Munajjid 908/1502-03-yilda ko‘chirilgan nusxasini 1962-yilda faksimal shaklida nashr qildirgan va unga katta so‘z boshi yozgan.

Mazkur risola orqali biz Ibn Bavvobga nisbat berilgan xat namunalari bilan tanishish imkoniga egamiz.

Arab xatining husnixatdagi eng muhim qoidalari va turlarini mashhur ixtirochi Ibn Bavvob 36 tur xatdan tubandagi 16 turini Ibn Muqladan keyin ixtiro qilganligi va takomillashtirganini XVI asr (1519-yil)da yashagan ulug‘ xattot Muhammad binni Hasan Tibbiy o‘zining «Jome‘i mahosini kitobat ul-kuttab» nomli asarida Ibn Bavvob usulidan suratlarini yozib ko‘rsatgan.

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondida mavjud minglab kitoblar va kitobat san‘ati, husnixat to‘g‘risidagi qator risolalarda berilgan ma‘lumotlardan husnixat san‘ati O‘rta Osiyo xalqlarining ma‘naviy madaniyat tarixida etakchi rol o‘ynagan san‘atlardan bo‘lgan degan xulosa chiqarish mumkin.

O‘rta Osiyoda xattotlik san‘atining keng taraqqiyoti Temur va Temuriylar davridan boshlanadi. Husnixat san‘ati dastlab Xuroson poytaxti Hirotida rivojlanib, u erda Sulton Ali Mashhadiy boshliq yirik xattotlik maktabi tashkil topadi. Maktabning o‘ziga xos xususiyati shundan iboratki, bu erda, asosan, XIV asrda Mir Ali Tabriziy yaratgan nasta‘liq xat uslubi Sulton Ali tomonidan takomillashtiriladi. Bu uslub yirik va mayda nasta‘liq kitobat ishlarida keng qo‘llanib, badiiy va tarixiy asarlar faqat nasta‘lish xatida kitobat qilingan. Diniy va ba‘zi ilmiy asarlar esa nasx xatida ko‘chirilgan. Ko‘fiy, riqo‘. Sulsva nasx xatlari esa ko‘proq me‘morchilik, naqqosh san‘atida va Sharq epigrafiyasida ishlatilgan.

Hirot maktabi haqida ma‘lumot

Hirot Xurosonning eng katta va mashhur shaharlaridan bo‘lib, olimlar, fozillar, shoirlar va xattotlar bilan to‘lgan xushmanzara bog‘-bo‘stonlari, turli meva va suvlarining ko‘pligi bilan shuhrat qozongan.

Xurosonning katta qismidagi markaziy shaharlardan yana biri Marv Shohjon (Turkmaniston)dir. Yoqut Hamaviyning aytishicha, al mavron (ikki marv) degan so‘z bo‘lib, biri Marvrud ikkinchisi Marv shohjondir.

Yoqut shunday deydi: «Marvda ilmiy ahamiyatga ega bo‘lgan qimmatli kitoblar juda ko‘p edi. Men u erdan ketgan vaqtimda (1220-

yilda) vaqf qilingan 10 ta kutubxona bor ediki, dunyoda kitobning ko'pligi va yaxshiligi jihatidan unday joyni ko'rmaganman. Ular quyidagicha:

I Katta jomega qarashli 2 ta kutubxona bo'lib, biri Sulton Sanjar xodimlaridan Aziziddin Abu Bakr Zanjoni nomiga qo'yilgan. Unda 12 ming jildga yaqin qo'lyozma kitoblar saqlanadi.

II Al-Kamoliya kutubxonasi (kimga nisbat berilganligi ma'lum emas).

III 1100-yilda vafot etgan Al Mustavfiy Abulsa'd Muhammad ibn Mansurning madrasasidagi kutubxona.

IV Nizom al-Mulk Hasan binni Ishohning madrasasidagi kutubxona.

V-VI Somoniylarga tegishli ikki kutubxona.

VII Al-Amidiyya madrasasidagi kutubxona.

VIII Marvdagi oxirgi vazirlardan Majdi mulkning kutubxonasi.

IX Madrasa Xotuniyadagi kutubxona.

X Yana u erda Az-Zamiriya kutubxonasi. Bularning hammasi 1221 yilda mo'g'ullar tomonidan xarob etilgan».

Husnixat o'rgatish metodikasining shakllanish tarixi.

O'zbek xalqi uzoq asrlik tarixida yaratib qoldirgan madaniy me'rosida xattotlik san'ati alohida o'rin egallaydi. Arab istilosidan so'ng o'rta Osiyo xalqlari tomonidan islom dinining qabul qilinishi munosabati bilan arab yozuvi ham kirib keladi. (O'rta asrlarda har qanday asar qo'lda ko'chirilib kitob qilingan. Nafis kitob ko'chirish katta hunar va san'at hisoblangan. Bu hunar egalari tarixda xattot nomi bilan mashhur bolganlar. Xattotlarning ko'chirgan kitoblari kishilarni hayajonga solib, ularni zavqlantirgan. Shuning ushun ham xattotlik bilan nom chiqargan shaxslar oddiy ko'chiruvchi emas, balki o'sha davrning ilm-ma'rifat va yirik madaniyat arbobi hisoblangan. Qo'lda ko'chirilgan har bir asar san'at mo'jizasi kabi nodir asar hisoblangan. XIV-XVI asrlarda bir qancha iste'dodli san'atkorlar nafis kitoblarning ijodchilari yetishdi. Muhammad bin Husayn at-Tibiy, Mir Ali Tabriziy, Xorazmiy, Sulton Ali Mashhadiy, Mir Ali Qilqadam, Mimislar shular jumlasidandir. Bulardan tashqari, o'rta asrlarda yashagan bir qancha olim va fozil kishilar yoshlikdan xattotlik san'atini egallab, keyinchalik kotiblikda ham nom chiqarganlar. Ular faqat o'z asarlarinigina emas, balki boshqa mualliflarning asarlarini ham ko'chirganlar. Masalan Hofiz Sheroziy

Xusrav Dexlaviyning “Xamsa”sini ko‘chirgan. Alisher Navoiyning mohir xattot ekanligi tarixiy manbalardan ma’lum. Zahriddin Muhammad Bobur arab grafikasida turkiy xalqlarga moslab “Xatti Boburiy” deb atalgan alifbe yaratdi. Mimis Xorazmiy xattotlik san’ati haqida “Savodi ta’lim” nomli risola yozdi va Alisher Navoiyning “Xamsa”sini nihoyatda chiroyli xat bilan ko‘chirdi. Muqimiy ham juda mayda nasta’liq va shikasta xati uslubida bayoz ko‘chirgan. Bularning hammasi shuni ko‘rsatadiki, (o‘rta Osiyoda nafis kitob yaratish texnikasi ixtiro etilmagan bir davrda kotiblikka talab nihoyatda kuchli bo‘lgan. Qo‘l yozmalarni kitob holiga keltirishda bir necha mutaxassislar ishtirok etganlar. Bu jarayonda qog‘ozrez (qog‘oz quyuvchi), xattot, (muzahhib (oltin suv bilan bezak beruvchi), lavoh (lavha chizuvchi), musavvir va sahhof (muqovqchi) ishtirok etadi. Shu yo‘sinda tayyorlangan nafis kitoblar shohlar, buyuk olimlar va shoirlar kutubxonalarida saqlanar edi. O‘rta Osiyo ustalari, ayniqsa, Samarqand va Buxoro ustalari qog‘oz ishlashda katta shuhrat qozongan edilar. Ularning qog‘ozlari pishiq va silliq edi. Xattot uchun esa ana shunday sifatli qog‘ozlar kerak bo‘lar edi. Qog‘ozlar kustar holda turli usullarda tayorlangan. Xattotning asar ko‘chirish qurollari: “siyoh”, “qamish qalam”, “mistar” (transporant), qalamning uchini chiqarib turish uchun “qalamtarosh”, qamish qalamning uchini kesish uchun yasalgan maxsus suyak plastinka “qalam qat” dan iborat bolgan. Qamish qalam xattotning asosiy yozuv quroli hisoblangan. Uni 18 tayyorlash ham alohida san’at talab etgan. Qamish qalamdan qog‘ozga siyoh tommaslik uchun hamda qalamda doim etarli darajada siyoh bo‘lishi uchun siyohdon (dovot) ga tolguncha ipak los solingan. Siyohga bo‘ktirilgan ipak loslar qalamning yetarli miqdorda siyoh bilan ta’minlanishiga yordam beradi. Xattotlar texnik vazifalardan tashqari o‘z yozuv uslublarini ham ishlab chiqarishga intilganlar. Masalan, XII asrdan boshlab xattotlar hayotida ko‘fiy xati uslubi keng o‘rin oldi. Bu uslub asosida arab yozuvining quyidagi olti xil asosiy uslublari maydonga keladi:

1. Suls xati - bu xatning to‘rt bahrasi tekis, ikki bahrasi yumaloq shakilda yoziladi.

2.Nasx xati - bu xatning ixtirochisi mashhur xattot Ibn Muqla’ hisoblanadi.

3.Muhaqqaq xati - bir bo‘lak qismi tekis bolib, qolgan bo‘laklari yumaloq shaklida yoziladi.

4.Rayhoniyy xati - muhaqqaqdan kelib chiqqan bo‘lib uning ixtirochisi Ibn Bavvobdir.

5. Tavqe xati - yarim tekis, yarim yumaloq chiziqdan tashkil topgan.

6. Riyo xati - ko'pchilik harflag bir-biriga qurama qilib yoziladi. Yuqorida ko'rsatib o'tilgan xatlarning har biri o'z o'rnida qollanilib kelingan. Muhaqqaq xatidan qasida va she'rlar yozishda, suls-ilmiy asarlar va xat yo'l-yo'riqlarida, rayhoniyy va nasx-qissa va xabarlarida, tavqe buyruq va farmonlarda, riyo xati maktublarda ishlatilgan. Undan tashqari, bu asosiy usulning har biri ingichka va yo'g'on qalamlarda yozilishi natijasida yana o'n ikki xil xatni tashkil qilgan. Shuning uchun ham eski maktablarda yozuv malakasini hamma o'quvchilar ham to'liq egallay olmaganlar. Yozishga qiynalishning yana bir sababi ko'p xarflarning so'zda qo'llanish o'rniga qarab har xil shakl olishidir. Eski maktabda harflarni nusxaga qarab, alfavit tartibida katta-katta qilib yozish "sarxat" deb atalib, ba'zan sarxat yozish bir-ikki-yilga cho'zilgan. Sarxat yozishga o'rgatilganidan so'ng "murakkabot", ya'ni harflarni bir-biriga qo'shib 19 yo'zib o'rgatilgan. Murakkabotdan keyin "muqattaot" mashqi, ya'ni bayt va ruboiylar ko'chirib yozish o'rgatilgan. Eski maktabda muqattaotga juda ko'p vaqt sarf qilingan. Bolalar duoiy salomni yozishni bilsalar, ularning xat-savodi chiqqan hisoblangan. Eski maktabda chiroyli yozuvga alohida ahamiyat berilgan, ammo husnixat mashg'ulotlari uchun zarur bolgan qoidalar yuzaki tushuntirilgan. Chiroyli yozuvga o'rgatish vaqtida faqat qalamni qanday ushlash qoidalarigina eslatilgan. Qalam bilan bir marta yozilgandan so'ng uning ustida qayta yozishga yo'l qo'yilmagan, bu yozuv qoidalarini saqlashdagi birdan-bir usul bo'lgan. Bolalarga yuqoridagiga o'xshash ayrim yo'l-yo'riqlar ko'rsatilgani bilan ularning ko'zi bilan qog'oz orasidagi masofaning to'g'ri saqlanishiga e'tibor berilmagan. Xatto yozish vaqtida nafas olish ham ta'qiqlangan. Eski maktabda husnixat qoidalarini o'rgatuvchi birdan-bir qo'lanma "Mufradot" kitobi bo'lgan. Domlalar yozishni o'rgatish va husnixat mashq qildirishda shu kitobdan foydalanganlar. Bu vaqtda husnixatga o'rgatishning birdan-bir yo'li ko'chirib yozish ko'nikmasini hosil qilish bo'lgan. Bolalar uchun arab alfavitida yozish juda qiyin bolib, unda biror nuqtaning noo'rin qo'llanishi yoki nuqtalar sonini kam yoki ortiq bo'lishi so'zning ma'nosini tubdan o'zgartirib yuborgan. Shuning uchun, arab yozuvida juda ehtiyot bo'lib yozish zarur edi. Ana shunday bir vaqtda husnixat bo'lishni, har bir harfni to'g'ri va aniq yozishni talab qilish, bu masalaga kishilarning diqqatini jalb qilishda husnixat ta'limini o'rgatuvchi metodik qo'llanma juda muhim edi. Bu ishga birinchi bo'lib shoir va xattot Shermuhammad Avazbek o'g'li Munis (1778-1829) bel bog'laydi.

Munis 1804-yilda o‘zbek tilida ‘Savodi ta’lim’ nomli risola yozadi. Uning bu risolasi amaliy hamda nazariy tomondan o‘sha davrga nisbatan katta ahamiyatga ega edi. Munisning bu asari uning vafotidan keyin Xorazm xattotlari tomonidan ko‘chirib yoziladi. Munis bu risolasini ikki qismga bo‘lib, birinchi qismida husnixat ta’limini bergan ustozlari haqida, xat va chiroyli yozuv asboblari haqida foydali maslaxatlar beradi.

So‘z maxzanining nishonasi ham,
Ma’ni durining hazonasi ham,
Har so‘zki, ko‘nguldan o‘vdi mavjud,
Xat bo‘lmasa bo‘lg‘ay erdi nobud...

U yozuv qoidalariga ham katta ahamiyat berib shunday deydi: Olam ishi intizomi andin, Olam elining nizomi andin, Ul bo‘lmasa bo‘lmag‘ay kitobat, Bu bo‘lmasa qolmag‘ay hikoyat...

“Savodi ta’lim”ning ikkinchi qismida arab alfavitidagi harflarning o‘lchovi va shakli katta kichikligi tushuntiriladi. Munis bu kitobida harflarning o‘lchovini qat’iylashtirib har xillikka chek qo‘yib, husnixat ta’limiga yangilik kiritgan. Uning bu risolasi xattot va kitoblarga hamda o‘z xatini tuzatmoqchi bo‘lgan kishilarga yaqindan yordam bergan.

Hozirgi kunda maktablarimiz oldida turgan muhim vazifalardan biri o‘quvchilarning savodxonligini oshirishdir. O‘quvchilarning savodxonligini oshirishda toza va chiroyli yozuvning roli katta. Ulug‘ rus pedagogi K.D. Ushinskiy husnixat darslariga alohida e’tibor berib, ‘dastlabki orfografik malakalar husnixat darslarida tiklanadi’, - degan edi.

O‘zbek maktablari 1940-yildan boshlab, rus grafikasi asosida yozuvga o‘ta boshladi. O‘zbek maktablari uchun husnixatga maxsus oid qollanmalar yaratilmagan bo‘lsa ham bu davrda yaratilgan turli metodik qollanmalardan foydalanib kelingan.

1948-yilda V. A. Saglin tomonidan tuzilgan ‘Boshlang‘ich sinflarda yoziivga o‘rgatish’ nomli qo‘llanmada I, II, III, IV sinflarda husnixatga o‘rgatishning maqsad va usullari bayon etiladi. Bu kitobda yozuvda uchraydigan tipik xatolarni tuzatish uchun ko‘rsatmalar va tez yozishga o‘rgatish uchun tayyorgarlik mashqlari beriladi. Qo‘llanmada doskada bo‘r bilan yozish qoidalar ham kiritiladi.

1948-yilda E.V. Gur‘yanov tomonidan tuzilgan “Yozuv mashqlarning psixologik eslatmalari” va ‘Alifbe davrida yozuvga o‘rgatishning psixologiyasi va metodikasi’ nomli qo‘llanmalarda esa yozuv jarayoniga ilmiy asosda yondashiladi va yozuvning

psixofiziologik asoslari ochib beriladi. Muallif bu qo'llanmalarda o'quvchilarning diqqatini boshlang'ich sinflarda darsning samaradorligini oshiruvchi qator shart-sharoitlarga tortadi hamda amaliy ko'rsatmalar beradi. 1959-yilda E.V. Gur'yanovning "Yozuvga o'rgatish psixologiyasi" kitobi nashr qilindi. Bu qo'llanmada, asosan, yozuvga o'rgatish psixologiyasi to'la ochib beriladi, hamda eski kaligrafik yozuv sistemasi tanqid qilinadi. Muallif bosim bilan yoziladigan yozuv sistemasini misollar bilan ko'rsatib beradi, hamda mavjud yozuv grafikasini soddalashtirishni talab etadi.

1983-yilda D. A. Psarevskiy tomonidan yozilgan "Yozuvga o'rgatish" kitobida birinchi marta boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun darslarni qanday tashkil etish yo'llari ko'rsatiladi. Muallif bu kitobda harflarni izchillik bilan o'rgatishni, har xil bog'lanishlarni to'liq ko'rsatib o'tadi. Ammo chiroyli yozuvga o'rgatishning asosiy shartlari ustida kam ko'rsatma beradi.

1970 - yidan boshlab soddalashtirilgan harflar qabul qilindi, undan "Alifbe" kitobida, o'quvchilar uchun qo'llanma va metodik ko'rsatmalaridan foydalanila boshlandi. Yangi shriftning asosiy xususiyatlari quyidagilardir: juda ko'p harflarning shakli soddalashtirilgan, katta harflarning shakliga yaqinlashtirilgan; yangi harflar bir sharoitda qo'lni uzmasdan bog'lab yozishga mo'ljallangan. Yozuv qurollari takomillashib borishi bilan E.V.Guryanov tomonidan tavsiya etilayotgan yozuv sistemasi 1970-yildan boshlab maktablarda keng qo'llanila boshlandi.

Shu vaqtlarda rus alfaviti o'qitiladigan maktablar uchun yangi soddalashtirilgan harflar bilan husnixat kitoblari nashr qilina boshlandi.

O'zbek maktablarida soddalashtirilgan kiril alifbosida chiroyli yozish va chiroyli yozishga o'rgatish borasida M.G'ulomov tadqiqot ishlarini olib bordi. U o'zining qo'llanmalarida 1-4-sinf o'quvchilarini chiroyli yozishga o'rgatish usullarini, husnixat qoidalarini ishlab chiqdi, amaliyotga tadbiq etish metodikasini 22 ochib berdi.

Amaldagi yozuvni husnixat qoidalari ularga doir amaliy mashqlar namunasi Y.Abdullayevning "Sovg'a", "Yangi alifbo va imlo" "Hamroh" o'z aksini topgan.

"Tushunchalar tahlili" metodi

Mazkur metod talabalar yoki qatnashchilarni mavzu bo'yicha tayanch tushunchalarni o'zlashtirish darajasini aniqlash, o'z bilimlarini mustaqil ravishda tekshirish, baholash, shuningdek, yangi mavzu

bo'yicha dastlabki bilimlar darajasini tashhis qilish maqsadida qo'llaniladi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

- ishtirokchilar mashg'ulot qoidalari bilan tanishtiriladi;
- talabalarga mavzuga yoki bobga tegishli bo'lgan so'zlar, tushunchalar nomi tushirilgan tarqatmalar beriladi (individual yoki guruhli tartibda);
- talabalar mazkur tushunchalar qanday ma'no anglatishi, qachon, qanday holatlarda qo'llanilishi haqida yozma ma'lumot beradilar;
- belgilangan vaqt yakuniga yetgach talabalar berilgan tushunchalarning tog'ri va to'liq izohini o'qib eshittiradi yoki taqdimod orqali namoyish etadi;
- har bir ishtirokchi berilgan to'g'ri javoblar bilan o'zining shaxsiy munosabatini taqqoslaydi, farqlarini aniqlaydi va o'z bilim darajasini tekshirib, baholaydi.

Namuna: "Xattotlik" mavzusi bo'yicha tayanch tushunchalar tahlili

Tushunchalar	Sizningcha bu tushuncha qanday ma'noni anglatadi?	Qo'shimcha ma'lumot
Xattotlik		
Mixrak		
Mistar		
Satr		
Poygir		
Kolofon		
Qog'oz		
Siyoh		
Qalam		



7-MAVZU: YOZUV MATERIALLARI VA QUROLLARI. YOZUVNING GIGIYENIK SHARTLARI

Reja:

- 7.1. Yozuvning gigienik shartlari
- 7.2. Yozuv qurollari va ulardan foydalanish.
- 7.3. Xattaxtaga qo'yiladigan talablar

Xattaxtaga qo'yiladigan talablar

Sinf taxtasidan to'g'ri foydalanish metodikasi. Sinf taxtasi yozuvning aniq va chiroyli bo'lishida asosiy rol o'ynaydi. Shuning uchun har bir maktab yuqori sifatli sinf taxtalari (doskalar) bilan ta'minlangan bo'lishi shart.




1-rasm

Sinf taxtasida o'quvchilar uchun yozilgan har bir yozuv aniq va chiroyli bo'lishi lozim. O'quvchilar sinf taxtasiga yozishni yaxshi ko'radi, shuning uchun ular vaqt-vaqti bilan doskaga chiqarib turiladi. Ular sinf taxtasiga yozayotganda harf va uning unsurlarini to'g'ri yozishga harakat qiladi, chunki sinfdagi o'rtoqlari ularning yozuvini kuzatib turadi. Lekin ayrim maktab o'quvchilari sinf taxtasining to'g'ri kelgan yeridan yozaveradilar, yozuvlari ham bir tekis chiqmaydi. Bunday kamchiliklarning bo'lmasligi uchun har bir o'qituvchi yomon yozadigan o'quvchilarning qo'lidan ushlab daftar kabi o'xshab sinf taxtasida ham yozish qoidalarini o'rgatib borishi lozim.

Sinf taxtasiga yozilgan har bir harf o'quvchilarga aniq ko'rinib turishi lozim. Sinf taxtasining yuzi tekis bo'lib, juda silliq ham bo'lmasligi lozim, aks holda, bo'r sirg'anib ketaveradi. Sinf taxtasini ikki turga bo'lish mumkin: biri doim devorga osig'lik turadigan, ikkinchisi vertikal o'q atrofida aylanadigan sinf taxtasi. Bunday sinf

taxtasining qulay tomoni shundaki, uni tushayotgan yorug'likka qarab burish mumkin bo'ladi. Bulardan tashqari, maktabda bir necha ko'chma sinf taxtasi ham bo'lishi kerak




2- rasm

Vertikal o'q atrofida aylanadigan doskaning uzunligi 1,65 m, balandligi esa 1,13 m ga tengdir. Bunday sinf taxtasidan ikki smenali maktablarda foydalanish mumkin. Katakarga ajratilgan sinf taxtasi yuqori sinf o'quvchilari uchun qulay emas, shuning uchun sinf taxtasining orqasidan (tekis tomonidan) foydalaniladi. Boshlang'ich sinflarda vertikal o'q atrofida aylanadigan sinf taxtasidan foydalaniladi (uning bir tomoniga daftarning kataklari chizilgan, ikkinchi tomoni esa rasm darslari uchun mo'ljallangan bo'ladi).

Devorga o'rnatilgan sinf taxtasining qulay tomoni shundaki, u kam joy oladi.

Sinf taxtasi linoleumdan yoki taxtadan yasaliishi mumkin. Linoleumdan yasalgan sinf taxtasi sifatli hisoblanadi, chunki taxtadan yasalgan sinf taxtalari har -yili bo'yab turiladi. Natijada bo'yoqlar qatlami hosil bo'lib, sinf taxtasiga yozish vaqtida bo'r sirg'alib ketaveradi.


Sinf taxtasi qoida bo'yicha eniga 1200 mm, uzunligi 3000 mm bo'lishi lozim (3- rasm).



3- rasm

Sinf taxtasi chetiga raqamlar tortilgan, pastki qismida esa bo‘r va latta qo‘yadigan joy bo‘lishi lozim.

Sinf taxtasidagi yozuv o‘quvchilarga yaxshi ko‘rinib turishi uchun unda har xil egri-bugri yo‘llar, tirlalgan chiziqlar bo‘lmasligi va u har bir sinf o‘quvchilarining yoshiga moslab osib qo‘yilgan bo‘lishi kerak. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun poldan 85 sm, 5—10- sinf o‘quvchilari uchun esa 95 sm yuqoriga o‘rnatilgan bo‘lishi lozim. O‘quvchilarga yozuvlarni yanada yaqqolroq ko‘rsatish uchun sinf taxtasini balandroq qo‘yish ham mumkin. Ammo bunda sinf taxtasining uzunligi bilan teng bo‘lgan taxta qo‘yilishi lozim (4- rasm).



4- rasm


Sinf taxtasining ostiga bo‘r maydalarining to‘kilmasligi uchun pastki ramkaning ustiga eni 5-6 smli taxtacha o‘rnatilishi, chap tomoniga esa bo‘r turishi uchun quticha mahkamlanishi maqsadga muvofiqdir.

Sinf taxtasi devorning o‘rtasiga o‘rnatilgan bo‘lib, yorug‘lik chap tomondan tushib turishi kerak.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari o‘qiydigan darsxonalardagi sinf taxtasi yozuv darslari uchun moslashtirilib, kataklarga ajratilgan bo‘lishi, yozayotganda qimirlamasligi lozim. Agar sinf doskasi qora rangda bo‘lsa, havorang bo‘yoq bilan, doska jigarrang linoleumdan qilingan bo‘lsa, qora bo‘yoq bilan kataklar chiziladi. Sinf taxtasiga kataklar chizish vaqtida, albatta moyli bo‘yoqdan foydalanish kerak.


Sinf taxtasidagi chiziqlar o‘quvchilarning daftaridagi chiziqlardan o‘n marta katta bo‘lishi kerak. Sinf taxtasi kataklarga ajratilmagan bo‘lsa, o‘qituvchi husnixat mashqlarining boshlanishidan oldin doskani chizib tayyorlab qo‘yishi kerak. Buning uchun o‘qituvchi chizg‘ich va

uchburchakdan foydalanib, kataklarni quyidagi tartibda chizishi mumkin



5- rasm

Doskadagi chiziqlar yo‘g‘on-ingchka bo‘lmay bir tekisda bo‘lishi zarur. Devorga o‘rnatilgan doskadan samarali foydalanish maqsadida uni uch qismga bo‘lib, bir qismiga o‘sha sinfning o‘ziga mos chiziqli daftarning chiziqlari chiziladi, o‘rtada esa rasm darsi uchun joy qoldiriladi, o‘rtadagi bo‘sh joyning yoniga matematika darsi uchun kataklar chiziladi (6- rasm).




6- rasm

Sinf taxtasidan bunday samarali foydalanish dars sifatini oshiradi. Husnixat mashg'ulotlarini to'g'ri uyushtirishdan sinf taxtasi bilan bir qatorda bo'r ham kata rol o'ynaydi. Har xil shakldagi qattiq yoki ho'l bo'rlardan foydalanish dars sifatini pasaytiradi, harf va uning unsurlarini noaniq ifodalashga olib keladi: tegishli yo'g'onlikdagi yoki ingichkalikdagi chiziqlarni chizishni qiyinlashtiradi.

Bo'r yumshoq bo'lishi, ammo nam bo'lmasligi kerak. Bo'r 15x15 mm li kvadrat shaklida bo'lib, uzunligi 50 mm dan oshmasligi yoki 30 mm dan kam bo'lmasligi lozim. Bunday bo'rni ushlash qulay bo'lib, yozishga osonlik tug'diradi. Qo'lni toza tutish maqsadida bo'rning yarmigacha qog'oz o'raladi.

Bo'r uch barmoq: bosh, o'rta va ko'rsatkich barmoq bilan ushlanadi. Yozish vaqtida ko'rsatkich barmoq bilan bosib turiladi va tegishli chiziq chiziladi (7- rasm).



7- rasm


Sinf taxtasida harf va uning unsurlarini ko'rsatishdan oldin bo'rning uchini qalamtarosh bilan tekislab yozishga moslab olish zarur.

Husnixat mashg'ulotlarida dumaloq bo'rlardan foydalanishga ruxsat etilmaydi, chunki u tegishli chiziqlarni bermaydi va har xil qalinlikda yozadi.

Bo'rni to'g'ri ushlash qoidalarini o'quvchilarga ko'rsatish va unga amal qilishga o'rgatib borish lozim. Ayrim o'quvchilar bo'rni besh barmoq bilan ushlab, bor kuchlari bilan bosib yozadi. Bunday o'quvchilarning qo'lidan ushlab, mashq qildirish zarur.


Ba'zi vaqtlarda sinf taxtasi yaltirib ko'rinib o'quvchilarga undagi yozuvlar ko'rinmay qoladi. Buning uchun sinf taxtasining pastki ikki burchagiga uzunligi 20—25 sm bo'lgan ikkita yog'och oyoqcha

qoqiladi. Bu yog‘och oyoqchalar mahkam qilib qoqilmasdan, o‘rtasiga bir dona mix urilib, u aylanib turishi lozim. Chunki u kerak bo‘lmagan vaqtda sinf taxtasining yon tomoniga burib qo‘yiladi (8- rasm).



8- rasm

Sinf taxtasi yaltirab ko‘ringan vaqtda esa shu oyoqchalar devorga tirab qo‘yiladi (9- rasm).



9- rasm

Natijada sinf taxtasidagi yaltirash yo‘qolib, yozuv hamma o‘quvchilarga aniq ko‘rinadi.¹

“ESSE” metodi

Yozuv malakalarini rivojlantiruvchi interfaol usullar.



Bunday usullar ham inson fikrlash qobiliyatini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Ular norasmiy fikr va qiyofalarni qayd qilish, har tomonlama ko‘rib chiqilmaguncha saqlab turish va ularni yanada aniqroq ifodalash imkonini beradi. Bunday usullardan foydalanish yaxshi imkoniyatlar beradi. Yozma nutqni rivojlantirishning quyidagi usullariga to‘xtalamiz:

➤ **Esse** – fransuzcha “essai” so‘zidan olingan bo‘lib, “sinov, analiz, tajriba, dastlabki loyixa” ma‘nolarini bildiradi. Esse - shaxsning biror maqsadga mavzuga oid yozma ravishda ifodalangan dastlabki mustaqil erkin fikri. Bunda ta‘lim oluvchi o‘zining mavzu bo‘yicha taassurotlarini, g‘oya va qarashlarini erkin tarzda bayon qiladi. Esse yozishda xayolga kelgan dastlabki fikrlarni zudlik bilan qog‘ozga tushurish, iloji boricha ruchka (qalam) ni qog‘ozdan uzmasdan, to‘xtalmasdan yozish. So‘ngra matnni qayta tahlil qilib, takomillashtirish tavsiya etiladi. Mana shundagina yozilgan essening haqqoniy bo‘lishi e‘tirof etilgan. Essening muayyan mavzu, tayanch tushuncha yoki erkin mavzuga bag‘ishlab yozish tavsiya etiladi. Esse - ta‘lim oluvchilarning darsda eshitgan ma‘ruzasi yuzasidan idrok etgan, o‘zlashtirgan tushunchalarini umumiy tarzda qisqa bayon qilib beruvchi xati hisoblanadi.

➤ **Asoslovchi esse** - bu shunday esseki, unda muallif biror mavzu bo‘yichap muayyan nuqtai - nazarga ega bo‘lib, esse mazmunida uni himoya qiladi, buning uchun bir qator asoslovchi dalillar keltiradi. Shundagina asoslovchi esse metodi bajarilgan bo‘ladi. Esse metodi o‘zining bir qator afzalliklari bilan ajralib turadi. Bu metod orqali g‘oyalarni erkin tarzda bayon qilish mumkin.

➤ **Biologik diktant** - fanga oid matndagi gaplarning ayrim so‘zlari, formulasi yoki biror fikr tushurib qoldirilib bayon qilinadi (yoki audio eshittiriladi). O‘quvchilar esa har bir bo‘sh qolgan joyga oid javoblarni o‘zlari topib yozib boradilar.

¹ Y.Y.Azimov, Sh.Y.Yusufzoda “Husnixat o‘qitish texnologiyasi”. Darslik “Fan va ta‘lim” 2022



➤ **Taqriz** - bu o‘qilgan matnni ijobiy yoki salbiy nuqtai - nazardan baholanishidir.

Taqriz yozishda matnni o‘qigan kishining bu haqidagi shaxsiy fikri, bayon qilinishi lozim, matndan ko‘chirib yozish yoki uni qayta ta’riflash qabul qilinmagan.

Namunaviy savol. Yuksak o‘simliklarning gul hosil qilib ko‘payishining ijobiy hamda salbiy jihatlari haqida esse yozing.



8-MAVZU: ALIFBONING YOZMA SHAKLI. HUSNIXAT DAFTARIGA QO‘YILADIGAN TALABLAR.

Reja:

- 8.1. Alifboning yozma shakli.
- 8.2. Yozuv qurollari va ulardan foydalanish.
- 8.3. Husnixat daftariga, bo‘rga va ruchkaga qo‘yiladigan talablar.

Tayanch atamalar: Xattaxta, «To‘g‘ri o‘tir» plakati, Alifboning yozma shakli, harflar alohida yozilgan albom, husnixat daftari, rangli bo‘rlar, ruchka, yozuv daftari.



Alifboning yozma shakli

Yozuv qurollari va ulardan foydalanish

O'qituvchi sinfda o'quvchilarning ish joyini to'g'ri tashkil etgandan so'ng ularga yozuv qurollari va daftardan qanday foydalanishni o'rgatishi lozim. Birinchi navbatda o'qituvchi o'z shogirdlari uchun sifatli yozuv qurollari tanlaydi, chunki yozuvning chiroyli bo'lishi ko'p jihatdan yozuv qurollariga bog'liq. Hozirgi zamonda yozuv qurollarining turi nihoyatda ko'p va ularning hammasi ham talabga javob bermaydi. Ko'pgina yozuv qurollari ta'lim standartlari talablariga javob berolmaydi. Shuning uchun o'qituvchining o'zi o'quvchilarni sifatli yozuv qurollari bilan ta'minlashi lozim.

Yozuvning chiroyli bo'lishi ko'p jihatdan yozuv quroli va materialiga bog'liqdir. Yozuv qurollari va materiallari quyidagilar sanaladi:

1. Xattaxta.
2. «To'g'ri o'tir» plakati.
3. Alifboning yozma shakli.
4. Harflar alohida yozilgan albom.
5. Husnixat daftari.
6. Rangli bo'rlar.
7. Ruchka.
8. Yozuv daftari.

Bola maktabga qadam qo'ygan kundanoq yozuv qurollaridan to'g'ri foydalanishga, ularni ozoda saqlashga o'rgatib boriladi.

O'qituvchi o'quvchining yozuv qurollari va materiallarini muntazam tekshirib borishi muhim vazifa sanaladi. Dastur talabi bo'yicha 1-sinf o'quvchilari uchun yozuv yo'li 4 mm, bosh harflar uchun 8 mm bo'lgan qiya chiziqlari siyrak bo'lgan 2 chiziqli daftar tavsiya etiladi.

Husnixat daftariga, bo'rga va ruchkaga qo'yiladigan talablar

2-4-sinflarda chiziqlari 8 mm 1 chiziqli daftar tutilishi lozim. Kichik harflarning bo'yi 3 mm, bosh harflarning bo'yi 6 mm, raqamlarning bo'yi harflardan 2 marta qisqa bo'ladi. 1-2-sinfda husnixat uchun maxsus alohida daftarga, 3-4-sinflarda ona tili daftariga yozadilar.

1-2-sinflarda foydalaniladigan daftarda qiya chiziqlar orasidagi masofa 30 mm va qiya chiziqlarsiz kichik harflar yoziladigan parallel chiziqlar orasidagi masofa 4 mm ga teng bo'lgan ikki chiziqli daftar tavsiya etiladi.

Qiya chiziqlari siyrak bo'lgan ikki chiziqli daftarga yozdirib borish va mashq qildirish orqali 1-sinf o'quvchilarini mayda harflar bilan tez yozishga o'rgatib boriladi. Bunday daftarda mashq qilish o'quvchilarga harflarning eni va ular orasidagi masofani ko'z bilan chamalash, qiyaligiga rioya qilish imkoniyatini beradi.

1-sinfda «Husnixat» predmeti 2-yarim-yillikdan boshlanadi. O'quvchi daftariga sana va oy yozdiriladi. Xat boshiga amal qilishga o'rgatiladi, daftar hoshiyasi bo'lishi shart. Darftarga sarlavha yozdirilganda, sarlavha va matn orasida satr qoldirilmaydi.

Daftarga xatoni to'g'rilash yo'li o'rgatiladi. Bu holda xato harfning ustidan chiziq tortib, ustiga to'g'risini yozishga odatlantiriladi. Daftar uy vazifasi berilgach, yig'ib olinadi, tekshiriladi va baholanadi.

Yozuv materiali bo'lgan **daftarni** yuritishga quyidagi talablar qo'yiladi:

1. Daftarga toza va aniq yozish.
2. Daftar muqovasidagi yozuvlar yagona talab asosida yozilishi, yonda daftar qaysi fan uchun tutilganligi, nechanchi sinf, maktabning nomi va nomeri, o'quvchining ismi va sharifi ko'rsatib o'tilishi zarur.
3. 1-sinf o'quvchilarining daftarlari muqovasi o'qituvchi tomonidan yoziladi.
4. Har bir daftarda hoshiya bo'lishi shart.
5. 2-sinfdan boshlab mashqdan tortib raqami, qayerda bajarilganligi (sinfda yoki uyda) yozib qo'yiladi.
6. Harf yoki bo'g'in hamda so'zlarning tagiga ehtiyotkorlik bilan chiroydi va tekis chiziladi.
7. Xato yozilgan harf yoki harfiy birikmalarni namuna sifatida daftar hoshiyasiga yozib ko'rsatiladi.
8. Noto'g'ri yozilgan harflarni bo'yash, o'chirish yoki qavs ichiga olib qo'yishga ruxsat etilmaydi.
9. Mashqlarni bajarishda, matn yozishda xat boshidan yozish qoidalariga amal qilish talab etiladi.

Ruchka. Chiroyli husnixat bilan yozishga erishishda yozuv qurolining ahamiyati katta. Hozirda yozuv quroli sifatida sharikli ruchkadan foydalanish tavsiya etiladi. Sharikli ruchka yozish uchun qulay, ingichka, yengil, barmoqlar orasida tutishga mos. Ruchka barmoq orasida tutilganda, ruchka uchi bilan barmoq oralig'i 1,5-2 smga teng bo'lishi shart. Aks holda barmoqni ruchka uchidan uzoq ushlash yoki juda yaqin tutish yozuv sifatini buzadi, harflarni xunuk yozishga olib keladi.

Sharikli ruchkada maxsus siyoh bilan to'ldirilgan sterjenning bo'lishi undagi ancha vaqt foydalanish imkoniyatini yaratadi. Ruchka sterjeni siyohi faqat binafsha rangda bo'lishi talab qilinadi.

O'qituvchi darftarni tekshirganda qizil pastali ruchkadan foydalanadi. Ruchka papkada maxsus penalda saqlanadi. Partada esa ruchkani qo'yish uchun maxsus joy bo'ladi. O'quvchi ruchakasidagi siyoh tugagan taqdirda, lozim bo'lganda foydalanish uchun ruchka va sterjenlar bo'lishi zarur.

Xattaxta sinfda o'quvchi uchun yozuv materialidan biri sanaladi. O'quvchining husnixati daftar va xattaxtada takomillashtirib boriladi, shuning uchun xattaxtada yozuvni amalga oshirish uchun uning rangi qora va to'q yashil bo'lishiga erishish lozim. Bunda xat aniq va chiroyli ko'rinishga ega bo'ladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari foydalanadigan xattaxtaning uch qismdan iborat bo'lishi, xattaxtaning bir bo'lagiga yozuv daftarining, ikkinchi bo'lagiga katak daftarining chiziqlari chizilishi juda muhimdir.

Bu chiziqlar yordamida o'quvchi chiroyli yozuvga o'rganadi. Shuningdek, xattaxtaning bo'yi ham chiroyli yozuvda katta ahamiyat kasb etadi, shu sababli u yuqori va pastga o'quvchi bo'yiga moslab harakatlantirishga moslangan bo'lishi e'tiborga olinadi.

Bo'r xattaxtaga yozishda yozuv quroli sanaladi. Uning yog'li bo'lishi katta ahamiyat kasb etadi. Bo'rning sifati yozuv sifatini ta'minlaydi. Husnixatga o'rgatishda yuqoridagilar e'tiborga olinishi shart.

Mavzuni takrorlash va mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Hattotlik qanday sabablarga ko'ra yuzaga keldiq
2. Eski maktablarda yozuv o'rgatish qanday olib borilganq
3. Munisning «Savodi ta'lim» asarida nimalar haqida ma'lumotlar beradiq
4. Xattotlar va xattotlik maktablari, ularning tarixiy ahamiyati haqida so'zlang.

Hamkorlikda o'qitishning “Arra”, ya'ni “Zig-zag” metodi.

Bu metodda o'quvchilar 6 - 8 tadan bo'lgan guruhlariga ajratiladi.

Dars materiallari ham alohida blok-modullarga ajratiladi. Har bir blok uchun



topshiriqlar tuziladi va har qaysi guruhga bir blokdan tarqatiladi. Har bir guruh mazkur blok uchun ikkitadan mutaxassis tayyorlaydi. So'ngra har bir guruh yana ikkiga ajratiladi va mutaxassislar o'zlari o'zlashtirgan bilimlarini tartib bilan tushuntirib berishadi.

«Arra» metodi asosida o'qitishni tashkil etishda aniq misollar orqali quyidagicha tushuntirish mumkin. Masalan, sinfda 32 ta o'quvchi bo'lsa, 4 xil rangli kartochkalar yordamida 8 ta o'quvchidan iborat bir xil rangli kartochkaga ega bo'lgan 4 ta “mutaxassislar tayyorlash” guruhiga ajratiladi.



Bu guruhlar berilgan blokda topshiriqlarni bajarib bo'lgach, har biri 4 tadan rangli, lekin bir xil kartochkaga ega bo'lgan 8 ta guruhga ajratiladi. Mazkur guruhdagi mutaxassislar o'zlari o'zlashtirgan bilimlarni tartib bilan tushuntirib berishadi. So'ngra mavzu yuzasidan munozara o'tkaziladi.

“Arra” metodida har bir o'quvchi boshqa o'quvchi bergan ma'lumotni diqqat bilan eshitishi, kerakli ma'lumotlarni daftarga yozib borishi lozim. Dars yakunida o'qituvchi test topshiriqlari yordamida o'quvchilar bilimini baholaydi.

“Arra” metodini boshqa usulda ham tashkil etish mumkin. Buning uchun o'quvchilar 4-5 kishidan iborat guruhlariga ajratiladi. Barcha guruhlariga bir xildagi topshiriqlar beriladi.



Guruhlardagi o'quvchilar topshiriqlarni bo'lishib olishadi. Har bir o'quvchi o'ziga tegishli topshiriqni puxta o'zlashtirishga harakat qiladi. Shundan so'ng guruhlar “Mutaxassislar uchrashuvi” da bo'lganidek qayta taqsimlanadi; mutaxassislar o'zlariga tegishli o'quv materiallarini tushuntirib

berishadi. Mashg'ulot so'ngida o'quvchilar bilimi test topshiriqlari yordamida baholanadi.

Quyida “Yozuvning gigienik shartlari” mavzusi bo'yicha o'quv topshiriqlari berilgan. Mavzu mutaxassislar tayyorlash guruhlariga soniga muvofiq 4 ta blokka ajratiladi.

1-blok: Alifboning yozma shakli.

1. Alifboning qanday shakllari bor?
2. Alifboning bosma shakli haqida nimalarni bilasiz?

3. Alifboning yozma shakli haqida nimalarni bilasiz?
4. Alifbo va Alifbening farqini bilasizmi?

2-blok: Yozuv qurollari va ulardan foydalanish.

1. Yozuv qurollariga nimalar kiradi?
2. Xattaxta nima?
3. Xattaxtaning qanday turlari bor?
4. Xattaxtaga qanday talablar qo'yiladi?

3-blok: Husnixat daftariga, bo'rga va ruchkaga qo'yiladigan talablar.

1. Husnixat daftariga qanday talablar qo'yiladi?
2. Bo'rga qanday talablar qo'yiladi?
3. Ruchkaga qanday talablar qo'yiladi?
4. Yozuv qurollarining husnixatga ta'siri qanday?

Hozirgi yozuv shriftiga tavsif.

Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosida 26 ta harf va 3 ta harf birikmasi mavjud. Bu harflar turli xil katta va kichik yozma va bosma shakllarga ega. Yozma harflar quyidagi xususiyatlarga ega:

- harflar bosmasdan yozishga mo'ljallangan;
- harflar qo'l uzmasdan tutash yoziladi.

O'zbek alifbosidagi harflar yozilishiga ko'ra quyidagi guruhlariga ajratiladi:

Bu alifbo Y.Abdullayevning "Hamroxim" qo'llanmasida berilgan.

Yozma kichik harflar:

1. Ikki chiziq oralig'ida yoziladigan harflar:
a, e, i, m, n, o, r, s, u, v, x, o', sh, ch.
2. Ikki chiziqning yuqorisiga ko'tarilib yoziladigan harflar :
b, d, k, l, t, h.
3. Chiziqdan pastga tushib yoziladigan harflar:
g, q, j, p, y, g', ng
4. Chiziqdan yuqori va pastga tushurilib yoziladigan harf:

Yozma bosh harflaming hammasi chiziqdan yuqorida yoziladi.

Yozma kichik harflar tutashtirilishiga ko'ra 3 guruhga bo'linadi.

1. Yuqori kesishishdan tutashtiriladi:
o, o', v
2. Pastki kesishishdan tutashtiriladi:

a, d, e

3.Oʻrta qismidan kesishishdan tutashtiriladi:

b, f g, j

Yozma bosh harflar tutashtirilishiga koʻra 2 guruhga boʻlinadi.

1. Tutashtiruvchi unsurli bosh harflar

2. Tutashtiruvchi unsursiz bosh harflar

Yozma kichik va bosh harflarning qator oraligʻining qayeridan boshlanib yozilishiga koʻra 2 guruhga boʻlinadi.

1. Qator oraligʻining ustki chizigʻidan boshlanib yoziladigan harflar.

2. Qator oraligʻining ostki chizigʻidan boshlanib yoziladigan harflar.

Kichik yozma harflar oʻz navbatida 2 guruhga boʻlinadi.

a) qator oraligʻining ustki ustki chizigʻidan boshlanadigan harflar.

i, j, m, n, p, t, u, v, y, ng.

b) qator oraligʻining ustki chizigʻining pastidan boshlab yoziladigan harflar.

a, g, o, q, r, s, x, z, gʻ, oʻ, sh, ch, b, d, e, h, k, l

Bosh yozma harflar esa quyidagi guruhlariga boʻlinadi:

Yuqoridan boshlab yoziladigan harflar:

B, D, E, F, G, H, J, K, Oʻ, I, O, P, Q, R, S, T, U, V, Z, Y, Z, Gʻ, SH, CH

Pastdan boshlab yoziladigan harflar:

A, I, M, N

Hozirgi alifbodagi harflarni quyidagi unsurlari asosida guruhlash mumkin:

- y, g, gʻ, j

- b, f, h, k, l

- m, n, v, k

- a, r, u, y

- a, q, g, oʻ, gʻ, ch, E

- n, m, i

- t, d, U, M

- R, F, B, T, P

- J, H, K, Y, G, Gʻ

- x, p

Kichik harflar va ularning tutashtirilishi.

Alifbodagi harflar yozilish shakliga koʻra:

- a, r, u, y

- n, m, i

- t, d, U, M

- R, F, B, T, P

Yozma harflar, odatda, qo‘l bilan yoziladi, bosma harflar esa, asosan, yozuvga oid texnik vositasilar (kompyuter) yordamida shuningdek, qo‘l bilan yoziladi.

Kichik va bosh bosma harflar rasmiy ma’qullangan shaklda bir-biriga tutashtirilmay, tik yoziladi. Yozma harflar esa o‘ng tomonga 65-70 daraja qiya qilib tutashtirib yoziladi. Kichik harflar o‘ng va chap tomonidan, bosh harflar esa o‘zidan keyingi harf bilan tutashadi. So‘zda yozma harflar bir-biri bilan tutashtirilib, bir butunlik zanjir hosil qiladi. Ammo bu zanjir so‘zlarda imlo belgilari (tutuq, ko‘chish belgilari, chiziqcha) bo‘lgan o‘rinlarda uziladi, qo‘l harakati to‘xtab, belgilar qo‘yilgandan keyin harakat davom etadi. Mazkur belgilarni, so‘zni yozish jarayonida qo‘yib borish, harflarning ustiga qo‘yiladigan ishorani esa so‘zni yozib bo‘lgandan keyin, uni o‘qib turib qo‘yish tavsiya qilinadi. Yozma bosh harflarda qo‘l harakati kichik harflarni yozishga nisbatan ko‘proq uziladi: ayrim harflarga unsurlari qo‘shiladi va hokazo. Lotin yozuviga asoslangan yangi o‘zbek alifbosidagi yozma kichik va bosh harflar yozuvda bir-biri bilan tutashtirilishi jihatidan ikki guruhga ajratiladi:

tarkibida tutashtiruvchi unsuri bo‘lgan harflar;

tutashtiruvchi unsuri bo‘lmagan harflar (Bunday harflarga tutashtiruvchi unsur yozuv jarayonida qo‘shiladi).

Tutashtiruvchi unsurli kichik harflar o‘zidan keyingi harf bilan qayeridan tutashtirilishiga ko‘ra uch guruhga bo‘linadi:

a) ustki qismidan tutashtiriladigan harflar: o, o‘, v (bunday ikki chiziq (asosiy chiziqlar) orasiga yoziladigan harflarning bo‘yi 4 mm f, g, j, p, y, g, ng, eni 3 mm bo‘ladi);

b) o‘rta qismidan tutashtiriladigan harflar: b, (ikki chiziqdan yuqoriga ko‘tarilib yoziladigan harflarning bo‘yi 8 mm, pastga tushadiganlari 7 mm, f ning bo‘yi esa 11 mm bo‘ladi).

c) ostki qismidan tutashtiriladigan harflar: a, d, e, k, i, h, l, m, n, r, t, u, x, z, sh, ch; gj, p, q, g‘, y, q, ng.

Harflarni tutashtirib yozish deyilganda, odatda, kichik va bosh harflarning o‘zidan keyingi harfga - o‘ng tomonidagi harfga tutashtirilishi nazarda tutiladi. Aslida esa harflar yozuvda har ikki tomonidan ham tutashadi. Bunga erishish uchun, ayniqsa, kichik harflarni shakllantirishda chizilgan chiziq ustidan qo‘l harakatini davom ettirib, tutashuvchi nuqtagacha olib borish kerak bo‘ladi.

Quyida bu ishlar qanday amalga oshirilishi to‘g‘risida to‘xtalamiz.

1. Ostki qismidan tutashtiriladigan harflar o‘zidan oldingi va keyingi harflar bilan

(bundan z, r, x, s mustasno) quyidagicha tutashtiriladi, misollar:

ma, mi, me, mu, ek, el, lekin, gul, jiyda, -yil, g‘alla, tenglik

2. Unli harflar o‘zidan keyingi, z, r, x, s harflarining yuqori qismiga tutashtiriladi;

tutashtirish jarayonida z, r harflarining yuqori qismida tugunchak hosil qilinadi:

azim, iz, ez, uz, oz, o‘z, ari, iri, erka, or, ur, o‘ra, xo‘roz

Mazkur harflarni s bilan tutashtiruvchi tutashuvchi harfning unsuri bilan s ning yuqori qismi tutashtirilib, so‘ng uning etak qismi chiziladi:

asta, is, usta, es; os, o‘s, asta.

3. q, o‘, v harflari- yuqori qismidan tutashtiriladigan harflar o‘zaro hamda o‘zidan

keyinga ostki qismidan tutashtiriladigan harflarning ustki qismidan tutashtiriladi:

ovoz, ana, ovchi, ovora, omad, o‘sma, oila, ojiz, o‘gil, o‘q, oy, oppoq

4. q, o‘, v harflari ikki chiziq yuqorisiga ko‘tarilib yoziladigan harflardan oldin

kelganda bu harflaming o‘rtasiga tushiriladi:

odam, ohu, okean, olmoq, o‘q, obbo, ofarin

5. v dan oldin a, i, e, u harflari kelganda v ning ostki qismiga tutashtiriladi:

avval, evi bilan, uvol;

6. q, o‘ harflari esa yuqori qismiga tutashtiriladi:

o‘q, ovcharka

Harfni ko‘rish - o‘qishda avval uning yuqori qismiga ko‘z tushadi. Ana shu holni e‘tiborga olib, harflarni tutashtirishda imkoniyat bo‘lgan o‘rinlarda ularning yuqori qismidan emas, ostki qismidan tutashtirishga, harfning yuqori qismida chiziqchalarning imkoniyat bor darajada oz bo‘lishiga ham e‘tibor berish zarur.

Bosh harflarning tutashtirilishi: Yozma bosh harflarining bo‘yi 8 mm bo‘lib, ular o‘zidan keyingi kichik harflar bilan tutashtiriladi.

Bosh harflar o‘z tarkibida tutashtiruvchi unsuri bor yoki yoqligiga ko‘ra ikki guruhga bo‘linadi:

- tutashtiruvchi unsurli bosh harflar;
- tutashtiruvchi unsursiz bosh harflar. (Tutashtiruvchi unsursiz bosh harflarga yozish vaqtida unsur qo‘shiladi).

Tutashtiruvchi unsurli bosh harflar: A, E, G, H, L, J, I, M, Q, R, U, X, Y, Z, Sh, Ch (ng harf birikmasining yozma bosh shakli o'zbekcha so'zlarda qo'llanmaydi: bu tovush bilan so'z boshlanmaydi, ba'zi chet so'zlarda ikki mustaqil fonemani bildiradi: Ngiliy);

Tutashtiruvchi unsursiz bosh harflar: B, D, F, N, O, P, S, T, V, O'
Bosh harflar qayeridan tutashtirilishiga ko'ra ikki turga bo'linadi:

- o'rta qismidan tutashtiriladigan bosh harflar:

A, L, Y, J, G, G'

- pastki qismidan tutashtiriladigan bosh harflar:

E, B, D, F, H, K, L, M, N, O, P, Q, R, S, T, U, V, X, Z, O', Sh, Ch

O'rta qismidan tutashtiriladigan bosh harflar o'zidan keyingi ikki chiziq orasiga yoziladigan harflarning ustki qismidan tutashtiriladi:

Anzirat, Isoy Yulduz, Gulnoz, G'ulom

Bu harflar ikki chiziqning yuqorisiga ko'tariladigan harflarning o'rtasiga tutashtiriladi:

Akbar, Ilyos, Ikrom, Adham, Abdulla, Idriz, Alixon, Ahmad, Abdullayev, Afandi

O'rta qismidan tutashtiriladigan harflar z, r, x, s harflarining chap tomonidagi chiziqqa tutashtiriladi:

Aziza, Arofat, Izzat, Asom, Islom

3.Ostki qismidan tutashtiriladigan bosh harflar ikki chiziq orasiga yoziladigan harflarning ostki qismidan tutashtiriladi:

Omon, Vasila, Hakim, Tohir, Kamol, Lobar, Muhiddin, Qumri, Rahima, Ulfat, Xadicha, Bobur, Dilbar, Farhod, Nafisa, Olimjon, Po'lat, Sobir, O'lmas, Zayniddin ²

Mavzuni takrorlash va mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

1. Bosma va yozma harflarning o'ziga xos xususiyatlariga egaligi.
2. Yozish jarayonida qanday hojatlarda qo'l uziladi?
3. Yozma harflar tutashtirilishiga ko'ra qanday gumhlarga ajratiladi?
4. Nima uchun qatoming ostki qismidan tutashtirishiga e'tibor qaratiladi?
5. Bosh harflar kichik qatorlarga qanday tutashtiriladi?

Boshlang'ich sinflarda husnixat darslarini rejalashtirish Husnixat darslari boshlang'ich sinflarda 1- sinfning 2- yarim-yilligidan boshlanadi. Husnixat darslari ona tili dasturi talablariga muvofiq

² X . G 'ulomova, Sh. Yo'ldosheva, G.Mamatova , H .Boq iyeva , A .Sobirova "Husnixat va uni o'qitish metodikasi" . O'quv qo'llanma T o s h k e n t « I Q T I S O D - M O L I Y A » 2007

rejalashtiriladi. Darslarning vazifasi dastur talablarini amalga oshirishga qaratiladi. Dastur talablarini to'liq amalga oshirish uchun ishni rejalashtirib olish lozim. Rejalashtirishda husnixatga o'rganish jarayonida ish turlarining qiziqarli va turli -tuman bo'lishiga e'tibor qaratiladi. Boshlang'ich sinfda husnixat o'quv dasturi bo'yicha 1-sinfning ikkinchi yarim-yilidan ona tili darslariga qo'shib tashkil etiladi.. Bu davrga kelib yozuv sharti ham o'zgaradi. O'quvchilarning daftarida harf namunasi yo'qligi tufayli ular qo'shimcha bir qancha shartlarni bajaradilar. Jumladan bosma harfni yozma harfga aylantiradilar. Bundan tashqari, mashq shartlari ham bajarilishi lozim.

O'qituvchi husnixat daqiqasini rejalashtirishda albatta yuqoridagi holatlarni hisobga olishi lozim.

Amaldagi dasturga muvofiq boshlang'ich sinflarda husnixatga:

- 1) bir dars ajratiladi;
- 2) darsning ma'lum daqiqalari ajratiladi.

1-sinfda husnixat yuzasidan o'quvchilarda quyidagi konikmalarni shakllantirish ko'zda tutiladi.

- yozuv jarayonida partada to'g'ri o'tirish;
- daftarni 65 gradus qiyalikda qo'yish;
- ruchkani to'g'ri ushlash;
- yozuv chiziqlarini farqlash;
- so'zlar orasidagi bir xil tenglikni saqlash.

Shuningdek, ikkinchi sinfda chiroyli yozuv malakasini shakllantirish quyidagi vazifalarni o'z ichiga oladi:

1. Partada to'g'ri o'tirish, ruchkani to'g'ri ushlash, daftarni to'g'ri tutish.

2. O'quvchilarda chiroyli yozishga qiziqish uyg'otish.

3. Husnixat darslarini sanoq-ohang usullari va jismoniy mashqlar bilan bog'lab olib bo'rish.

4. O'quvchilarning chamalab yozish qobiliyatlarini o'stiruvchi mashqlar bajartirish.

5. Qo'l va barmoq muskullari harakatini o'stiruvchi mashqlar bajartirish.

6. Harflarni qo'l harakatini uzmasdan tutashtirib yozishga o'rgatish.

7. Xato yozilgan harflar yuzasidan qo'shimcha mashqlar bajartirish.

8. Uyda husnixat bilan yozishni mashq qilish.

2- sinfda husnixat darslarini rejalashtirganda quyidagilarga e'tibor berish lozim:

a) bir chiziqli daftarga yozish qiyinligini hisobga olib harflarni genetik tamoyil asosida yozdirish;

b) har bir harfning o'zidan oldingi va o'zidan keyingi harfga tutashtirilishini o'rgatish;

d) harf elementlarining o'xshashligini hisobga olgan holda guruhlash;

e) bosh harflar elementlarining yuqoriga va pastki tomon tushishini hisobga olgan holda guruhlash;

f) imlosi qiyin bo'lgan so'zlarni yozuv material sifatida tanlash;

g) yozuv suratini oz-ozdan oshirib borish maqsadida material hajmini ko'paytirib borish

i) yozuv materiallarining tarbiyaviy ahamiyatiga e'tibor berish.

3-4-sinfda har bir ona tili darsining 8-10 daqiqasini husnixatga ajratiladi. Unda ham gigiyenik talablarga qat'iy rioya qilinadi. O'quvchilarning husnixatdan egallagan ko'nikmalari mustahkamlanadi. Rejalashtirishda bosh va kichik harflarni, bir xil elementga ega harflarni guruhlab yoki yozilishi murakkab harflarni tanlab olib, tuzilishida farq bor murakkab harflar ishtirok etgan so'z, gap va matnlarni yozish rejalashtiriladi. Bolalar bir chiziqli daftarga tuzilishi murakkab harflarni yozishni o'rganadilar. Bu sinflarda yozuv tezligiga alohida ahamiyat beriladi. Boshlang'ich sinfda o'quvchilarining husnixat malakalarini shakllantiruvchi mashq matnlarini o'quvchilarning o'zlari tanlaydilar.

Matn tanlashda quyidagilarga rioya qilish lozim:

- umumdidaktik talablar asosida tanlanadi; - materiallarning mavsumga mos bo'lishi;

- bosqichli ketma-ketlik tamoyiliga amal qilinishi;

- husnixat materialining o'rganiladigan mavzu bilan bog'lanishiga;

- imlo bilan bog'lanishiga;

- bolalar hayoti bilan bog'lanishiga;

- ajratilgan vaqtga mosligiga.



9-MAVZU: NUTQ O‘STIRISHNING PSIXOLINGVISTIK VA INKLYUZIV OMILLARI

Reja:

- 9.1. Psixolingvistika fanining paydo bo‘lish tarixi va ilmiy-nazariy asoslari
- 9.2. Bolalar nutqini o‘stirishda ontogenez-psixolingvistik omillarning o‘rni va ahamiyati
- 9.3. O‘quvchilar yo‘l qo‘yadigan nutqiy xatolarning asosiy turlari, ularni to‘g‘rilash va oldini olish yo‘llari

Psixolingvistika fanining paydo bo‘lish tarixi va ilmiy-nazariy asoslari

Psixolingvistika - bu lingvistikaning bir bo‘limi bo‘lib, bolalar nutqini, boladagi nutqiy qobiliyatning shakllanishini, shaxs tilining paydo bo‘lishi va rivojlanishini, shuningdek, individning tilida yosh bilan bog‘liq bo‘lgan o‘zgarishlarni o‘rganadigan sohadir. **Onto** yunoncha “**ontos**” so‘zidan olingan bo‘lib, “**borliq**” degan ma‘noni anglatadi. Ontologiya, ontogenez, ontolingvistika kabi tushunchalar uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Agar nutq ontogenezi bolalar nutqning rivojlanishini bosqichma-bosqich tavsiflasa, ontolingvistika bog‘liq bo‘lgan o‘zgarishlarni o‘rganadigan sohadir. Bolalar nutqi lingvistikasi (ontolingvistika) yangi ilmiy soha bo‘lib, o‘tgan asrning oxirgi choragidan shakllana boshlagan. ”Ontolingistikaning **obyekti** bolaning nutqiy faoliyati bo‘lsa, **predmeti** bolalarning o‘z ona tilini o‘zlashtirish jarayoni hisoblanadi”³.

3. O'quvchilar nutq madaniyatini takomillashtirish. Til kishilik o'rtasidagi eng muhim aloqa vositasidir. Tilning mana shu ijtimoiy ahamiyatidan kelib chiqib, maktabda o'quvchilarning nutq madaniyatiga alohida e'tibor beriladi.

Bu vazifalarni bajarish uchun o'qituvchi o'quvchilar bilan rejali ish olib borishi lozim. Buning uchun esa o'quvchilar nutqini o'stirish ustida ishlash tushunchasiga nimalar kirishini bilib olish muhimdir.

Nutq o'stirishda uch yo'nalish aniq ajratiladi:

- 1) so'z ustida ishlash;
- 2) so'z birikmasi va gap ustida ishlash;
- 3) bog'lanishli nutq ustida ishlash.

So'z, so'z birikmasi va gap ustida ishlash uchun lingvistik baza bo'lib leksikologiya (frazologiya va stilistika bilan birgalikda), morfologiya, sintaksis xizmat qiladi; bog'lanishli nutq esa logikaga, adabiyotshunoslik va murakkab sintaktik butunlik lingvistikasiga asoslanadi.

Ko'rsatilgan uch yo'nalish parallel olib boriladi: lug'at ishi gap uchun material beradi; so'z, so'z birikmasi va gap ustida ishlash bog'lanishli nutqqa tayyorlaydi. O'z navbatida, bog'lanishli hikoya va insho lug'atni boyitish vositasi bo'lib xizmat qiladi.

O'quvchilar nutqini o'stirish o'z metodik vositalariga ega, o'zining mashq turlari bor. Bulardan eng muhimlari bog'lanishli nutq mashqlari hisoblanadi.

Nutq o'stirishda izchillik to'rt shartni, ya'ni mashqlarning izchilligi, istiqboli, xilma-xilligi, xilma-xil mashq turlarini umumiy maqsadga bo'ysundirish ko'nikmasini amalga oshirish bilan ta'minlanadi. Har bir yangi mashq oldingisi bilan bog'lanadi va keyingisiga o'quvchilarni tayyorlaydi, umumiy maqsadga bo'ysungan holda yana qandaydir yangilik qo'shadi.

O'zbek xalqiga xos xususiyatlardan biri shundaki, ular so'zlayotgan gaplarining ma'nosiga mos iboralarni o'z o'rnida qo'llashadi, bu esa albatta, o'sha so'zlarning ta'sir kuchini yanada oshirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, keksalarimizning biron gapi yo'qki, ibora va o'xshatishlarsiz sayqallanmagan bo'lsa. O'xshatishlar orqali gaplar jozibador, aniq tasavvur chizmalarini chiza oladigan, yetkazilmoqchi bo'lgan sezgilar aynan yetkaziladi. E'tibor bersak, og'ir sukunatni "o'lik chiqqan uyday" yoxud kutilmagan gapdan esankirash holatini "ustiga sovuq suv quyganday" kabi o'xshatishlar orqali ifodalanganda ongimizda qanchalar aniq tasavvurlar hosil bo'ladi. Halollik timsolini "ona sutiday" ta'rifidan ortiq aniqlikda izohlash mushkul bo'lsa kerak.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari nutqini o'xshatishlar bilan boyitish ishini uch bosqichga ajratish mumkin: tushuncha hosil qilish.

1. O'quvchilarda o'xshatish haqida
2. O'qish kitobi darsliklari matnida uchraydigan o'xshatishlar ustida ishlash, ularning ma'nosini tushuntirish.
3. O'xshatishlarni o'quvchilar nutqiga kiritishga doir mashqlar bajarish.

Boshlang'ich sinflarda badiiy asar tilini tahlil qilish orqali o'quvchilarda o'z ona tiliga muhabbat hissi, badiiy asarni ongli o'qish ko'nikmasi o'stiriladi, asar g'oyasini chuqur idrok etishga zamin hozirlanadi, o'quvchilar nutqi rivojlantiriladi.

O'qish kitobi darsliklarida berilgan ertaklarda o'xshatishlar, jonlantirish va mubolag'alardan foydalanilgan. O'quvchilarga ularni izohlab berish, keyinchalik matndan toptirish, qayta hikoyalashda ulardan nutqlarida foydalanishga o'rgatish zarur.

Asar o'qib bo'lingach, badiiy til vositalari ustida ishlanadi. Chunki ularning ma'nosi kontekstdan, asar mazmunidan anglashiladi. Ayniqsa, masallarda allegoriyani ochishda ko'chma ma'noli so'zlardan ko'p foydalaniladi. Ular bolalarga masal mazmunini tushunishga xalal bergani uchun ayrim ko'chma ma'noda ishlatilgan so'zlar asarni o'qishdan oldin tushuntiriladi.

3-sinf "O'qish savodxonligi I qism" dan o'rin olgan "Tog'lar" (Azim Suyun) she'rida "Burgut kabi balandlab uchdim", "Ko'kida oy – chashma yarqiroq" misralarida metafora; "Kakliklari bilan ellashdim", "Tug'donalar bilan tillashdim", "Andizlari bilan sirlashdim" misralarida o'xshatish, jonlantirish. Bular ustida ishlaganda quyidagicha savol-topshiriqlardan foydalanish mumkin:

1. Ko'kida oy – chashma yarqiroq deganda nimani tushunasiz? (Ko'kdagi oy suvda oynadek yarqirashini)

2. Burgut kabi balandlab uchish mumkinmi? (burgutdek viqor bilan, baland parvoz qilgandek tuyg'uni his qilish)

3. Kakliklar bilan ellashdim tushunchasini izohlang? (hattoki kakliklar bilan ham bir el bo'ldim)

4. "Tug'donalar bilan tillashdim" misrasini qanday tushunasiz? Tug'dona bilan tillashib bo'ladimi?

(daraxtlarni ham do'stdek bilish degan ma'noni bildiradi)

5. "Andizlari bilan sirlashdim" Andizlar bilan sirlashish mumkinmi? (O'tlar ham insonlardek o'sib, ulg'ayishini o'rganish)²²

2-sinf "O'qish savodxonligi III qism kitobi" dagi matnlarda ham o'xshatish ko'p uchraydi. Ayniqsa "Suv va daraxt" (Zamira Ibrohimova) ertagida juda go'zal o'xshatishlar qo'llangan. Jumladan quyidagi gaplarga e'tibor beraylik:

Buloq endigina ko'z ochgan, sho'x – sho'x qaynab chiqayotgan suvlari kichkinagina ariq hosil qilgan ekan.

Bu gaplardan daraxtning dimog'I ko'tarila boshlabdi. U hatto Buloqni mensimay qo'yibdi.

Buloq xafa bo'libdi – yu, lekin indolmabdi.

Bu o'xshatishlar ustida ishlashda quyidagi savollardan foydalanish mumkin:

1. Ko'z ochgan buloq deganda nimani tushunasiz?

2. Sho'x – sho'x qaynayotgan suvni qayerda ko'rgansiz? Bu ariq, yoki daryoda kuzatiladimi? Nega aynan sho'x -sho'x?

3. Mensimay qo'yish deganda nimani tushunasiz?

4. Buloq ham xafa bo'ladimi?²³

Darslikagi Miltiqboy Xonnazarov qalamiga mansub "Laylak qor" she'rida ham qorni tasvirlash uchun chroyli o'xshatishlardan foydalanilgan. Quyida mazkur she'rdagi o'xshatish qo'llangan misralarni keltiramiz:

Qish faslining **erkasi**,

Dala qirning **ko'rpasi**,

Sen tufayli dalalar,

Maza qilib **uxlaydi**.

Yumshab qir – u shudgorlar

Bahorga **kuch to'playdi**.²⁴

²² "O'qish savodxonligi" 3-sinf (I qism) darslik, novda edutainment Toshkent -2023. B-32

²³ "O'qish savodxonligi" 2-sinf (III qism) darslik, novda edutainment Toshkent -2023 B-22-23

Po‘lat Mo‘minning "Kitob - hammabop" she'rida ham o‘ziga xos o‘xshatishlar qo‘llangan:

Hayotimiz oynasi,
Bilimlarning onasi,
Buyumlar durdonasi.
Menga o‘rgatgan odob
Bu kitobdir, bu - kitob!
Aks etgan yer-u osmon,
O‘tmish, kelajak zamon.
Unda she’r, ertak, doston,
Har savolga bor javob,
Bu kitobdir, bu - kitob!
Mazmunlari xilma-xil,
Aqlingga qo‘shgan aql,
Do‘stimdir juda ahil,
Fan yo‘lida nur-oftob,
Bu kitobdir, bu – kitob!

Boshlang‘ich sinflarda o‘xshatishlar ma’nosini izohlashda Nizomiddin Mahmudov hamda Durdona Xudoyberganovalarning "O‘zbek tili o‘xshatishlarining izohli lug‘ati" dan foydalanish mumkin. Boshlang‘ich sinflarda adabiy tushunchalar va badiiy vositalar ustida ishlash o‘quvchilarning ijodiy tafakkurini o‘stirishga, ularda jonlantirish, o‘xshatish, mubolag‘a kabi adabiy tushunchalar yuzasidan dastlabki tasavvur hosil qilishga yordam beradi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga o‘z nutqida o‘xshatishlardan foydalanishga o‘rgatish uchun quyidagi topshiriqlardan foydalanish mumkin.

1. Nuqtalar o‘rniga o‘xshatish mazmuniga mos so‘zni qo‘yib o‘qing.
... day tiniq ko‘l,...day beozor odam,...day qattiq non.
2. Ikki ustunchadagi so‘zlardan foydalanib o‘xshatishlar hosil qiling.

qo‘y	odam
Kaft	tosh
Shisha	suv
yoqut	gilos
Asal	qovun
Zahar	qalampir

²⁴ "O‘qish savodxonligi" 1-sinf (I qism) darslik, novda edutainment Toshkent -2023 B-29

Bu soʻzlardan oʻxshatish hosil qilish uchun oʻquvchilar ular orasidagi oʻxshah belgini bilishi kerak. Shuning uchun oʻqituvchi oʻquvchilar bilan quyidagicha savol-javob oʻtkazadi:

Oʻqituvchi: Oʻquvchilar, odam qoʻyga nimasi bilan oʻxshashi mumkin?

Oʻquvchilar: -Yuvoshligi bilan?

Oʻqituvchi: Demak, qoʻy va odam soʻzlari ishtirokida qanday oʻxshatish qilish mumkin?

Oʻquvchilar: - Qoʻyday yuvosh odam deyish mumkin.

Oʻqituvchi: - Tosh kaftga nimasi bilan oʻxshaydi?

Oʻquvchilar: - Silliqligi bilan.

Oʻqituvchi: - Suv shishaga nimasi bilan oʻxshaydi?

Oʻquvchilar: - Tiniqligi bilan.

Oʻqituvchi: - Oʻquvchilar yoqut nimaligini bilasizlarmi?

Oʻquvchilar javob berolmasa, oʻqituvchi yoqutning nimaligini tushuntiradi: Yoqut qizil rangli qimmatbaho tosh. (Yoqutning rasmini koʻrsatadi.)

Oʻqituvchi: - Gilos yoqutga nimasi bilan oʻxshar ekan?

Oʻquvchilar: - Qizilligi bilan.

Oʻqituvchi: - Qovun asalga nimasi bilan oʻxshaydi?

Oʻquvchilar: - Shirinligi bilan.

Oʻqituvchi: - Qalampir zaharga nimasi bilan oʻxshaydi?

Oʻquvchilar: - Achchiqligi bilan?

3. Nuqtalar oʻrniga quyida berilgan oʻxshatishlardan mosini qoʻyib ib yozing.

1. Koʻm- koʻk Shohimardon togʻlari ... tovlanadi. 2. ... yigit ketmon bilan yer agʻdaryapti. 3. Azim bilan Sobir... qadrdon. 4.Nasiba ... qizarib ketdi. 5. Sinfda bolalar... gʻuvullaydi. 6. Dengiz botib borayotgan quyosh nurlaridan... tovlanadi. 7. Qahhor aka bu togʻlarni... biladi. 8. Kema chayqaladi. 9. Buloqdan ... tiniq suv oqib chiqadi. 10. Osmonda yulduzlar ... sochilib ketgan, juda koʻp edi. 10. Nafisaning yuzi... oqarib ketdi.

Foydalanish uchun oʻxshatishlar: ayiqday baquvvat, aka ukadek, beshikday, anorday, ariday, besh qoʻlday, billurday, zumratday, atlasday, bodroqday, boʻzday.

4. Berilgan matndagi gaplarga quyidagi oʻxshatishlardan mosini kiritib yozing.

Oʻlkamizga ... bahor kirib keldi. Janubdan ... turnalar uchib keldi. Daraxtlar oq, pushti ga burkandi. Qir-u dalalarga Daryo va anhorlarda

suvlar oqmoqda. Osmonni tez-tez bulutlar qoplaydi va ... yomg'ir quyadi.

Foydalanish uchun o'xshatishlar: tuya karvonidek tizilib, harirday yopinchiqlar, kelinchakdek bezanib, toychoqday pishqirib, yashil gilam to'shalganday, sevinchi-dan yig'laganday, qalin ko'rpaday.

5. Quyidagi o'xshatishlardan foydalanib gap tuzing.

Dumdek ergashib yurmoq, durday tishlar, yelday uchmoq,

yelimday yopishmoq, zilday og'ir, zig'irday kichik, ipakday mayin, kamalakdek tovlanmoq, kaftday tekis, kelinchakdek bezanmoq, kiyikday chaqqon, ko'z qorachig'iday asramoq, marjonday tizilmoq.

6. Quyidagi so'zlarni o'xshatish yo'li bilan tasvirlang.

Namuna: qovun - asalday shirin qovun

Soch, suv, husayni, yostiqlik, it, ko'z, havo, qorin, pichoq, bug'doy.

7. Quyidagi o'xshatishlarni to'ldiring. Namuna: Qorday oppoq ko'ylak.

Qorday... toshday..., shamolday. shishaday..., tandirday..., xumday..., buzoqday..., oltinday..., kumushday... yoqutday..., asaldek... itday... onaday qashqasiday ota-onaday..., ..., osmonday..., otning ohanraboday....

8. Matndagi ajratib ko'rsatilgan so'zlar oldidan o'xshatish keltirib yozing. O'lkamizga saxovatli kuz kirib keldi. Daraxlar bargi sariq tusga kirdi. Salqin kechalar, ertalab maysa ko'katlar, dov- daraxtlar bargini bezaydigan shudringlar kuz kelganidan darak bermoqda. Ariqlardagi suv tiniq bo'lib qoldi.

Kuzning birinchi oyi mevalar, sabzavot mahsulotlari, qovuntarvuzlar serob bo'lishi bilan dillarga quvonch baxsh etadi. Daraxtlarda noklar, shaftolilar, olmalar, toklarda uzumlar tovlanadi. Polizlardan pishgan qovunlarning hidi anqiydi.

Bu davrda paxta dalalari ham o'ziga xos manzara kasb etadi. Paxtalar ochiladi

Maktabda o'quvchilar nutqini o'stirishga ona tili o'qitishning asosiy vazifasi deb qaraladi. Nutq o'stirish faqat ona tili va o'qish darslarininggina emas, balki o'quv rejasidagi barcha fanlar (tabiatshunoslik, matematika, mehnat, tasviriy san'at, ashula darslari)ning, shuningdek, sinfdan tashqari o'tkaziladigan tadbirlarning ham vazifasidir.

Nutq turlari. Kishilar tildan fikr bayon qilish quroli sifatida foydalanadilar. Ular o'z fikrlarini ovoz bilan eshittirib bayon qilishdan

oldin u haqda o‘ylab oladilar. Bu ichki nutq hisoblanadi. Ichki nutq eshittirilmagan va yozilmagan, "o‘ylangan" (fikrlangan) nutqdir, bu nutq fikrlovchi kishining o‘ziga qaratiladi.

Tashqi nutq tovushlar yordamida eshittirilib yoki grafik belgilar bilan yozilib, boshqalarga qaratilgan nutqdir. Ichki va tashqi nutqning fiziologik tabiati bir xil; farqi - tashqi nutqda nutq organlarining harakati natijasida tovush chiqariladi yoki yozib bayon etiladi; ichki nutqda nutq organlarining harakati tovushsiz yuzaga keladi.

Ichki nutq materialni tushunish va yodda saqlashga yordam beradi, tashqi nutqni o‘stirishda birdan-bir zaruriy vosita hisoblanadi. O‘ylash, fikr yuritish ichki nutq asosida bo‘ladi. Ichki nutq o‘quvchini tashqi nutqqa, javobgarlikni his qilib gapirishga o‘rgatadi. Ichki nutq jarayonida o‘ylash o‘quvchining nutqi va tafakkurining o‘sishida muhim vositadir.

Maktabda o‘quvchilarning tashqi nutqigina emas, balki ichki nutqi ham o‘stiriladi. Bolalar ichda o‘qishga o‘rganadilar va ichki nutqda materialni o‘zlashtiradilar, turli vazifalarni o‘zlari hal qiladilar, asosiysi o‘zlarining og‘zaki va yozma fikrlarini tayyorlab oladilar.

Fikrni ifodalash usuliga ko‘ra nutq og‘zaki va yozma bo‘ladi. Og‘zaki nutq yozma nutqdan quyidagicha farqlanadi: og‘zaki nutq tovush nutqi, yozma nutq esa grafik nutqdir. Og‘zaki nutqda eshitish sezgisi, yozma nutqda esa ko‘rish va motor-harakat (qo‘l harakati) sezgisi asosiy o‘rin tutadi. Og‘zaki nutq ham, yozma nutq ham kishilarning o‘zaro aloqa quroli sifatida xizmat qiladi, ammo og‘zaki nutq aniq hayotiy sharoitda, bevosita aloqa jarayonida yuzaga keladi; yozma nutqdan bevosita, aniq sharoitdan ajratilgan holda ham, kishi ishtirokisiz ham foydalaniladi.

Og‘zaki nutq ko‘pincha dialog tarzida, yozma nutq esa monolog tarzida bo‘ladi. Yozma nutq logik izchillikka rioya qilgan holda, ayrim til shakllarini tushirib qoldirmay, ortiqcha takrorga yo‘l qo‘ymay bayon qilishni talab etadi, shuning uchun yozma nutq ancha murakkab va mavhum hisoblanadi.

O‘QUVCHILAR NUTQIGA QO‘YILGAN TALABLAR

O‘quvchilar nutqini o‘stirishda aniq belgilangan bir qator talablarga rioya qilinadi:

1. O‘quvchilar nutqi **mazmundor** bo‘lsin. Hikoya yoki insho o‘quvchilar uchun yaxshi ma’lum bo‘lgan dalillar, ularning kuzatishlari, hayotiy tajribalari, kitoblardan, rasmlardan, radioeshittirish va

teleko'rsatuvdan olgan ma'lumotlari asosida tuzilsagina mazmunli bo'ladi. Bolalar bilmagan narsa, ko'rmagan voqea-hodisalar haqida yetarli tayyorgarliksiz so'zlashga yo'l qo'yilsa, nutq kambag'al, mazmunsiz chiqadi.

Nutq o'stirish metodikasi hikoya, insho uchun materialni puxta tayyorlashni, ya'ni material yig'ish, uni muhokama qilish, to'ldirish, asosiy mazmunini ajratish, zaruriy izchillikda joylashtirishni talab qiladi. Albatta, bunda o'quvchilarning yosh xususnyatlari va qiziqishlari ham hisobga olinadi.

2. Nutqda **mantiqiylik** bo'lsin. o'quvchilar nutqi mantiqan to'g'ri bo'lishi, fikr izchil, asosli bayon etilishi, asosiy o'rinlar tushirib qoldirilmasligi va o'rinsiz takrorga, mavzuga taalluqli bo'lmagan ortiqchalikka yo'l qo'yilmasligi talab etiladi. Nutqning mantiqiyliги narsa, voqea-hodisalarni yaxshi bilish bilan belgilanadi, mantiqiy xato esa material mazmunini aniq bilmaslik, mavzuni o'ylamasdan noqulay tanlash natijasida kelib chiqadi. Bu ikki talab nutqning mazmuni va qurilishiga taalluqlidir. Nutqni til jihatidan shakllantirishga oid talablar ham mavjud.

3. Nutq **aniq** bo'lsin. O'quvchi dalillar, kuzatishlar, taassurotlarini haqiqatga mos ravishda oddiy bayon etibgina qolmay, shu maqsadning eng yaxshi til vositalaridan (so'z, so'z birikmasi, gaplardan) foydalangan holda, maxsus tasvirlar bilan ifodalashga o'rgansin.

4. Nutq **til vositalariga boy** bo'lsin. Mazmunni aniq ifodalash uchun o'quvchi nutqi til vositalariga boy bo'lishi, u har qanday vaziyatda ham kerakli sinonimlardan, xilma-xil tuzilgan gaplardan mazmunga eng mosini tanlab foydalana olish ko'nikmasiga ega bo'lishi zarur. Albatta, boshlang'ich sinf o'quvchilariga til boyligi yuzasidan yuqori talab qo'yib bo'lmaydi, ammo o'qituvchi o'quv ishlarida ularning so'z boyligini oshirib borishni har vaqt ko'zda tutishi kerak.

5. Nutq **tushunarli** bo'lsin. Og'zaki nutq eshituvchiga, yozma nutq esa uni o'quvchiga tushunarli bo'lishi zarur. So'zlovchi yoki yozuvchi nutqini eshituvchining yoki o'quvchining imkoniyatini, qiziqishini hisobga olgan holda tuzsa, uni hamma birdek, hech qiyinchiliksiz tushunadi.

6. Nutq **ifodali** bo'lsin. Agar nutq ifodali, ya'ni jonli, chiroyli, ishontiradigan bo'lsa, eshituvchiga yoki o'quvchiga ta'sir etadi. Og'zaki nutq eshituvchiga intonatsiya orqali ta'sir etsa, og'zaki nutq ham, yozma nutq ham tinglovchi va o'quvchiga hikoyaning umumiy ruhi, dalillar, tanlangan so'zlar, ularning emotsionalligi, tuzilgan jumla, iboralar

yordamida ta'sir etadi. Nutqning tushunarli va ifodali bo'lishi har qanday shevaga xos va ortiqcha so'zlardan sof bo'lishini taqozo etadi.

7. Nutq **to'g'ri** bo'lsin. Maktab uchun nutqning adabiy til normalariga mos to'g'ri bo'lishi alohida ahamiyatga ega.

Yozma nutq grammatika, imlo va punktuatsiya jihatidan, og'zaki nutq esa orfoepik jihatdan to'g'ri tuzilishi talab etiladi. Nutqning to'g'ri, bo'lishi uchun so'z tanlash va nutq logikasi katta ahamiyatga ega.

Yuqorida sanab o'tilgan talablar o'zaro bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lib, maktab ishlari tizimida kompleks ravishda amalga oshiriladi.

O'quvchilar nutqini o'stirishda mashg'ulotning boshqa turlari bilan bog'liqligi. O'quvchilar nutqini o'stirish boshqa o'quv predmetlaridan o'tkaziladigan mashg'ulotlar bilan ham uzviy ravishda bog'lanadi. Ona tili darslarida o'quvchilar til yordamida tabiat va kishilar hayoti haqida bilim oladilar; ular kuzatishni, o'ylashni va ko'rganlari, eshitganlari, o'qiganlari haqida to'g'ri bayon qilishni o'rganadilar. Ona tili darslari bolalar lug'atini boyitishga samarali yordam beradi, nutqni to'g'ri tuzishni o'rgatadi.

O'qish darsi va u bilan bog'liq holda olib boriladigan kuzatish, ekskursiya o'quvchilarga tabiat hodisalari, kishilar hayoti va mehnati haqida, axloq qoidalari, boshqa kishilar bilan muomala qilish haqida bilim beradi; bu darslarda bolalar nutqiga, uni shakllantirish va o'stirishga keng imkoniyat mavjud. She'r, maqolalarni o'qish, o'qilganlarni qayta hikoyalash, ekskursiyada, predmet va tabiat hodisalarini kuzatish vaqtida ko'rganlarini hikoya qilish o'quvchilar og'zaki nutqini o'stirish vositasidir. Ona tili darslarida esa yozma nutqni o'stirish uchun keng imkoniyatlar mavjud. Grammatikani o'rganish va o'qish darslarida o'quvchilar bajaradigan so'z birikmasi, gap tuzish, bayon, inshoga doir turli xil mashqlar nutqiy malakalarni egallashda ularga yordam beradi.

Grammatika va to'g'ri yozuv darslarida tilni maxsus o'rganish bilan bolalar alohida tovush, bo'g'in, so'z va gaplarni eshitishga va aytishga o'rganadilar. Ular narsa, harakat, belgi bildirgan ko'pgina so'zlarni, shuningdek, tovush, harf, bo'g'in, so'z, o'zak, so'z yasovchi, shakl yasovchi, qo'shimcha, so'z turkumi, ot, sifat, fe'l, son, olmosh, bog'lovchi, gap, gap bo'lagi, bosh bo'lak, ikkinchi darajali bo'lak, darak gap, so'roq gap, undov gap, turlanish, bosh kelishik singari juda ko'p yangi atamalarni bilib oladilar.

Boshlang'ich sinflardagi boshqa darslarda ham o'quvchilar nutqi xilma-xil so'zlar bilan boyitiladi. Kuzatish va ko'rgazmali qurollar bu

darslarda ham bilim olish, tushunchalarni shakllantirish vositasi hisoblanadi.

Masala yechish jarayonida esa ular shu vaqtgacha o'z nutqlarida ishlatib kelgan bo'ladi, qoladi, hosil bo'ladi, teng kabi so'zlarning yangi ma'nosini bilib oladilar; ...bizga ma'lum, masalada so'rallyapti kabi so'z birikmalarini ishlatishga o'rganadilar.

Matematika darslari o'quvchilarning bog'lanishli nutqini o'stirishda muhim ahamiyatga ega. Ular masalani yechishda savolga to'liq javob berishga, atamalarni to'g'ri ishlatib, qoidalarni o'z saviyalariga mos ravishda aniq shakllantirishga o'rgatiladi. Bular, o'z navbatida, o'quvchilar nutqini boyitish va faollashtirish vositasi hisoblanadi.

Bog'lanishli nutq ko'nikmalarini egallashga masala yechish bilan bog'liq holda olib boriladigan ishlar, ayniqsa, masala tuzishga o'rgatish mashqlari samarali ta'sir ko'rsatadi. Masala o'qib eshittirilgandan so'ng, o'quvchilar uning asosiy mazmunini eshitib idrok etishga, to'g'ri, qisqa va aniq qayta aytib berishga o'rgatiladi. Masala tuzishga o'rgatish esa mantiqiy izchil, muhokama elementlari bilan kichik hikoya tuzish imkoniyatini beradi. Bu mashq o'quvchidan faollikni va mustaqillikni talab etadi, bolaning bilish faolligi va mustaqilligini oshirish esa uning umumiy rivojlanishida va tarbiyaviy maqsadda juda muhimdir. Masala tuzish kichik hikoya tuzishdir. Masalaning hikoyadan farqi shundaki, unda nimadir noma'lum bo'lib, uni topish uchun ma'lum so'roqqa javob berish talab etiladi. O'quvchi rasm asosida «Daraxtga uchta chumchuq qo'ngan edi, yana ikkita chumchuq uchib kelib qo'ndi. Daraxtda nechta chumchuq bo'ldi?» masalasini tuzadi. Bu masalani yechishda o'quvchilar daraxtga qo'ngan chumchuqlar sonini bilish uchun nima qilish kerakligini o'ylaydilar, muhokama qiladilar. Masalani yechish uchun aniq izchillikda muhokama yuritish va tushuntirish bilan bolalar o'z fikrlarini matematika tilida aniq va bog'lanishli bayon etishga o'rganadilar.

Shunday qilib, matematika darslarida o'qituvchi bolalar lug'atini boyitish, turli xil gap, bog'lanishli nutq va bayon, muhokama elementi mavjud bo'lgan hikoya tuzish ustida ishlaydi. O'qituvchi matematika tili xususiyatlarini o'zlashtirishga ko'maklashish bilan bog'liq holda, o'quvchilar tafakkurini, nutqini o'stiradi. O'qituvchi matematik mazmungaagina emas, balki shu mazmunni bolalar nutqida to'g'ri shakllantirishiga ham e'tibor bersa, bu darslarda o'quvchilar egallaydigan bilim haqiqiy va ular nutqining o'sishi uchun samarali vosita bo'ladi. "Fikrni aniq shakllantirishni talab qilish, masala shartini

ongli takrorlatish, mustaqil masala tuzdirish va savollar yordamida masalani yechish yo'lini tushuntirish ko'nikmasi ustida ishlash o'quvchilarda qayta hikoyalash, insho va muhokama qilish madaniyatini o'stiradi"²⁵.

O'quvchilar tabiiy (SCIENCE) fan darslarida va ekskursiya vaqtida ko'rgan narsalarini o'qituvchi yordamida guruhlaydilar, ularni o'zaro taqqoslab, o'xshash va farqli tomonlarini topib aytadilar. Bular, o'z navbatida, tabiatga oid ayrim tushunchalarni aniq bilib olishga imkon beradi va tafakkurni o'stiradi. Tabiat hodisalari va predmetlarni idrok etish bilan bolalar ongida tabiatshunoslikka oid tushunchalar hosil bo'ladi. Bu tushunchalar ta'lim jarayonida yo narsalarni (daraxt, olma, shaftoli, o'rik, olxo'ri, gul, o't kabi), yoki ularning belgisini (mevali, mevasiz, achchiq, nordon, shirin; qizil, oq kabi), harakatini (daraxt o'sadi, qush uchadi, bulbul sayraydi kabi) ifodalovchi so'zlar bilan bog'lanadi.

Texnologiya va tasviriy san'at darslari ham, jismoniy tarbiya va musiqa darslari ham, shuningdek, darsdan tashqari mashg'ulotlar ham o'quvchilar nutqi va tafakkurini o'stirishga imkon beradi.

O'quvchilar nutqini o'stirishda o'qituvchining nutq madaniyati katta ahamiyatga ega. O'qituvchi barcha darslarda, sinfdan va maktabdan tashqari mashg'ulotlarda faqat orfoepik talaffuz va adabiy til normalariga rioya qilgan holda ifodali, ta'sirli so'zlashi, shuningdek, har doim o'quvchi daftariga, barcha hujjatlarga: husnixat va imlo qoidalariga rioya qilgan holda yozishi zarur. Bu bilan u bolalarni ifodali so'zlashga, xatosiz, chiroyli yozishga o'rgatadi, tilga sezgirlikni uyg'otadi.

Nutq fikrni bayon etish vositasi bo'libgina qolmay, uni shakllantirish quroli hamdir. Fikr nutqning psixologik asosi vazifasini bajaradi, uni o'stirish sharti esa fikrni boyitish hisoblanadi. Aqliy faoliyat tizimini egallash asosidagina nutqni muvaffaqiyatli o'stirish mumkin. Shuning uchun o'quvchilar nutqini o'stirishda materialni tayyorlash, takomillashtirish, mavzuga tegishlisini tanlash, joylashtirish va mantiqiy operastiyalarga katta ahamiyat beriladi.

Tafakkur til materiali yordamida nutqiy shakllantirilsa va bayon etilsagina muvaffaqiyatli o'sadi. Tushuncha so'zlar yoki so'z birikmalari bilan ifodalanadi, shunday ekan, tushuncha til vositasi bo'lgan so'zda muhim aloqa materialiga aylanadi. Kishi tushuncha ifodalaydigan so'z

²⁵ Рождественский Н. С, Кустарева В.А. Методика начального обучения русскому языку, «Просвещение», М., 1965, Б-297.

(soʻz birikmasi)ni bilsagina, shu tushunchaga asoslangan holda, tashqi nutqda fikrlash imkoniga ega boʻladi.

Nutqda fikr shakllantiriladi, shu bilan birga, fikr nutqni yaratadi. «Nutq tafakkur bilan chambarchas bogʻlangandir. Nutq boʻlmasa, tafakkur ham boʻlmaydi, til material boʻlmasa, fikrni ifodalab berib boʻlmaydi».²⁶

Fikrni nutqiy shakllantirish uning aniq, tushunarli, sof, izchil, mantiqiy boʻlishini taʼminlaydi. Tilni egallash shu tilning fonetikasini, lugʻat tarkibini, grammatik qurilishini bilib olish, fikrni takomillashtirish uchun, tafakkurni oʻstirish uchun shart- sharoit hozirlaydi. Bilimlar, dalillar, har xil axborotlar tafakkurning ham, nutqning ham materialidir. Nutq tafakkur jarayonini oʻrganishning muhim vositasi boʻlib xizmat qiladi. Nutqdan oʻquvchi fikriy rivojining asosiy oʻlchovlaridan biri sifatida foydalaniladi. Oʻquvchining barcha predmetlardan materialni oʻzlashtirishi va umumiy aqliy rivojlanish haqida fikr yuritganda, u yoki bu mavzuni bola oʻz nutqida (yozgan inshosida, axborotida, qayta hikoyalashda, savollarga bergan javobida) qanday bayon eta olishiga qaraladi.

Nutq ikki koʻrinishga ega ogʻzaki va yozma nutq. Bular oʻzaro uzviy bogʻlangan boʻlsa ham, har birining oʻziga xos xususiyati bor. Ogʻzaki nutqda tovushlar, soʻzlar nutq orqali talaffuz qilinsa, eshitish aʼzolari orqali qabul qilinadi. Shuning uchun oʻquvchilarning ogʻzaki nutqini oʻstirishida, avvalo ularning nutqidagi kamchiliklar sabablarini aniqlash, uni bartaraf etish yoʻllarini izlab topishimiz kerak.

Chiroyli soʻzlashni, savodli, toʻgʻri yozishni, oʻz fikrini ravon va aniq bayon etishni bilmagan yoki etolmagan oʻquvchi bilimlarni muvafaqqiyat bilan oʻzlashtira olmaydi. Har bir insonning nutqi chiroyli, mukammal, talaffuzi aniq, ravon boʻlsa, fikrlash doirasi keng, idrok qilishi ham teran boʻladi. Nutq orqasli odamzot oʻzining ichki hissiyotlarini ham bayon qiladi, nutq esa barcha insonlarda ham bir xilda-toʻla rivojlangan yoki shakllangan boʻlavermaydi.

Baʼzi bolalar tovushlarni notoʻgʻri talaffuz qilibgina qolmay, ularni bir-biridan farqlay ham olmaydilar. Nutqdagi bunday kamchiliklar darslarni oʻzlashtirishda bolalar uchun sezilarli qiyinchiliklarni tugʻdiradi. Bunday mashgʻulotlar yordamiga

²⁶ "Иванов П.И. Умумий психология. "Ўқитувчи", Тошкент, 1967, 306-бет.

muxtoj bo'ladilar. Bunday hollarda logopedik mashg'ulotlar yordamiga muxtoj bo'ladilar.

Ma'lumki, boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqlaridagi nuqsonlarni bartaraf etish o'quvchilar va logopedlar zimmasiga yuklanadi. Talaffuzdagi kamchiliklarni aniqlashda bolaning nutqini tekshirib ko'rish, nutq buzulish sabablarini o'rganish lozim. Buning uchun har bir bola nutqini tekshirish varaqasi to'ldirilib, qaysi tovushlar to'g'ri yoki noto'g'ri talaffuz qilayotgani belgilab boriladi. Nutq o'stirish-ongli o'qishni, so'zlash va yozishga o'rgatishni, til haqida o'quvchilarning yoshi va tushunchasiga mos bo'lgan bilim berishni, ularning lug'at boyligini oshirishni, boshqalarning nutqiga e'tibor va qiziqishni o'stirish, kitob o'qishga muhabbat uyg'otishni ko'zda tutadi. Og'zaki nutqqa o'rgatishning ilk davrida daktiologiya (qo'l alifbosi)dan foydalaniladi. Bu narsa bolalarning tovushlarni talaffuz qilib, o'zlashtirib borganlari sari faqat yordamchi vosita bo'lib xizmat qiladi.

Boshlang'ich sinf, ona tili darslarida olib boriladigan barcha mashg'ulotlarning yetakchi o'rni nutq o'stirish bo'lib, u savod o'rgatish, chiroyli yozish ko'nikmalarini shakillantirish va fikrlash doirasini kengaytirish vazifalarini o'z ichiga oladi. Bu darslarda ko'proq amaliy maqsadlarni ko'zlash, til boyliklaridan nutqda foydalanish malakalarini shakillantirish, ijodiy fikrlash, o'quvchilarning til sezgirligini tarbiyalash lozim. Ularning og'zaki nutqini muntazam o'stirib boorish bog'anishli nutq, matn tuzishlarda amaliy yordam beradi.

Ma'lumki, bu vazifalarni amalga oshirish yo'llari xilma- xildir.

Savod o'rgatish darslarida amaliy mashg'ulatlarga keng o'rin berish va malakalarni singdirishda qiziqarli va jonli narsalardan, texnika vositalaridan, turli o'yin va o'yin turidagi mashqlardan foydalanish samarali natijalar beradi. Darslikka doir hikoyalar, ertaklar, she'r va maqollardagi notanish so'zlar o'qib yoki eshittirib tushuntiriladi. Masalan, "Kim sezgir", "Bu nima, "Nomini ayt" o'yinlari.

Mashqning bu turlari urlari o'quvchilarga yangi harf o'rgatilgandan keyin uni qay darajada o'zlashtirilganliklarini sinash va mustahkamlash maqsadida o'tkaziladi.

O'qituvchi doskaga o'rnatilgan harflarni ma'lum bir tartibda teradi va uni o'qigach, o'quvchilarga ham navbat bilan o'qitadi. So'ngra bolalarga sezdirmay ayrim harflar almashtirib qo'yiladi. Bunda o'quvchilarning sezgirligi, topqirligi baholanib, rag'batlantiriladi.

Texnologiya darslarida ham o'quvchilarning nutqini o'stirishga katta e'tibor berilib, o'rgatuvchi xarakterdagi o'yinlardan foydalanish yaxshi samara beradi. Masalan: "Mehmon kutamiz", "sabzavotlar va mevalar do'koni", "Shar shaklidan kim ko'p narsa yasaydi?".

O'yinlar orqali milliy qadriyatlarimizdan, o'zbekona me'rosimizdan foydalanib, qadr-qimmat, mehr-oqibat, odob- axloq, ota-ona va kattalarni hurmat qilish kabi xislatlarni bola qalbiga singdirish mumkin. Masalan: "Odobli bola", o'yinida sinf guruhga bo'linib, har guruhdan bir o'quvchi ishtirok etadi.

O'qituvchi: -Xo'sh bolalar, odobli bola ertalab, o'rnidan turib nima qiladi".

O'quvchi: -Odobli bola erta barvaqt turib, badan tarbiya qiladi, ota-onasiga va oila a'zolariga salom beradi.

O'qituvchi: -Odobli bola qanday salom beradi?

O'quvchi: -"Assalomu alaykum" deb salom beradi, keyin nonushta qiladi.

O'qituvchi: - Odobli bola dasturxon atrofida qanday o'tiradi.

O'quvchi: - Odobli bola kattalardan pastda o'tiradi, "Bismillohir rahmonir rahim", deb dasturxonga kattalardan keyin qo'l uzatadi, og'zida ovqat bilan gapirmaydi.

Shu kabi savol-javoblardan keyin guruhlar javobi izohlanib, to'plagan ballar e'lon qilinadi va rag'batlantiriladi.

Bu xildagi dars-o'yin turdagi mashg'ulotlar bolalarni mehnatsevarlikka tayyorlaydi, ularning mustaqil, ijodiy faoliyatini, lug'at boyligini oshirib, nutqini rivojlantirishga yordam beradi va mustahkamlaydi. darslarning uzviy bog'liqligini mustahkamlaydi.

Shunday qilib, har bir darsda, u qaysi predmet bo'lishidan qat'iy nazar, birinchi galdagi vazifamiz o'quvchilarning ongli, ravon, to'g'ri va ifodali o'qishiga erishishimiz, nutqini o'stirishga harakat qilmog'imiz lozim.

Bu tadbirlar o'quvchilarning-yil davomida olgan bilimlarini namoyish qilishga, tahlil etishga va mustahkamlashga, og'zaki nutqini o'stirishga, eslash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi.

Ma'lumki, nutq tafakkur bilan bog'liq, shuning uchun u tafakkur bilan uzviy bog'liq holda o'stiriladi. Darsda o'qilgan asarni o'quvchilar ongli tushunishi, asosiy mazmunini, g'oyasini anglab yetishi uchun analiz, sintez, taqqoslash, umumlashtirish kabi logik priyomlar qo'llanadi. O'qilgan asarni analiz qilishda har xil ish usullaridan foydalaniladi. Bolalar hikoyadagi asosiy qatnashuvchi shaxslarni

aytadilar, o'qituvchi rahbarligida asarning sxematik rejasini tuzadilar (tugun, kulminatsiya, yechim). Masalan, bolalar Roald Dalning "Oyog'I osmunda bo'lgan sichqonlar" hikoyasida qatnashuvchi shaxslar sifatida Levonni, sichqonlarni²⁷ aytadilar; "Och bo'ri" ertagida qatnashuvchilarni: bo'ri, xo'roz, qo'zi²⁸ni aytadi. Qatnashuvchi shaxslarni o'quvchilar har xil tartibda aytishlari mumkin. Ammo, o'qituvchi ularni asarda qatnashgan tartibda aytishni so'raydi. Natijada o'qituvchi rahbarligida hikoyaning jadvali tuziladi. O'qituvchi bergan savoli yordamida bolalar 87 yoshli Levon ismli qariya uyida sichqonlarni payqaganini, u buni halovatini buzganini, u qopqonlar sotib olganini, qopqonlarni shiftga yopishtirganini, pishloq qo'yib chiqqanini aytishadi. Bu foyda bermay, sichqon qopqonga tushmaganini, ertasi kuni Levon shiftga stul, stol, televizorni, barcha narsa, hattoki, gilamchani ham shiftga yopishtirganini aytishadi. Sichqonlar bu safar sichqonlar o'zlarini shiftda turibmiz, pol u yerda deb qichqirishganini, sichqonlar bundan jazavaga tushganini, chora sifatida esa sichqonlarning kattasi aytgandek boshiga turib olishganini, so'ng, miyasiga qon quyilishi sababli, sichqonlar hushidan ketishganini, Levon ularni ertalab ko'rib, terib olganini va sichqonlardan qutulganini bayon qilishadi. Hikoyaning mazmuni shunday aniqlanadi. Shunday qilib, hikoya mazmuni bilan birinchi tanishish o'quvchilardan ongli ishlashni, ya'ni voqealarni, qatnashuvchilar sostavini analiz qilishni talab qiladi. O'qish bilan bog'liq holda bajariladigan bunday logik ishlar asta-sekin murakkablasha boradi.

Boshlang'ich sinflar o'qish darslarida o'quvchilar nutqini o'stirish vositalaridan biri to'g'ri uyushtirilgan qayta hikoyalashdir. Maktab tajribasida to'liq, qisqartirib, tanlab va ijodiy qayta hikoya qilish turlari mavjud. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun matnni to'liq yoki matnga yaqin qayta hikoyalash ancha oson, boshqa turlari esa nisbatan qiyinroqdir. Qayta hikoyalashda o'qilgan hikoya mazmuni yuzasidan o'qituvchining savoli o'quvchilarni hikoyaning detallari haqida, ayrim voqealar o'rtasidagi bog'lanishning sabab-natijalari haqida fikrlashga qaratilishi lozim. Asar syujetining rivojlanishida qatnashuvchi shaxslar, ularning hatti-harakati asosiy rol o'ynaydi. Bolalar asar mazmunini unda ishtirok etuvchi shaxslar va ularning hatti-harakati, xarakterli xususiyatlarini tahlil qilish yordamida yaxshi anglab yetadilar. O'qituvchining savoli asar qahramonlari nima qilgani, ularning u yoki

²⁷ O'qish savodxonligi" 3-sinf (I qism) darslik, novda edutainment Toshkent -2023. B-16

²⁸ O'qish savodxonligi" 2-sinf (III qism) darslik, novda edutainment Toshkent -2023. B-8

bu hatti-harakatlari qayerda va qanday sharoitda yuz bergani haqida soʻzlab berishga, voqealarning izchil bayon qilinishiga va oʻzaro bogʻliqlikni yoritishga yoʻnaltirilishi lozim. Oʻquvchi oʻqilgan asar mazmunini oʻqituvchi savoli yordamida aytib berishida faqat analizdan emas, sintezdan ham foydalanadi: ayrim faktlarni oʻzaro bogʻlaydi (sintezlaydi), bir-biriga taqqoslaydi, ular yuzasidan muhokama yuritadi va xulosa chiqaradi. Koʻpincha boshangʻich sinf oʻquvchilari qatnashuvchi shaxslar hatti-harakatini yaxshi tushunmasliklari, baʼzan notoʻgʻri yoki yuzaki tushunishlari natijasida asar mazmunini anglab yetmaydilar. Shuning uchun ham oʻqituvchi savolni juda oʻylab tuzishi, u bolani fikrlashga, oʻylashga majbur etadigan, qatnashuvchi shaxslarning hatti-harakati, voqealarning bogʻlanishi yuzasidan muhokama yuritadigan, ularni oʻzaro qiyoslashga, ijobiy va salbiy tomonlarini aniqlashga yordam beradigan boʻlishi lozim. Oʻquvchi asarda qatnashuvchilarning hatti-harakatini qanchalik aniq koʻz oldiga keltira olsa, hikoyaning asosiy mazmunini shunchalik chuqur tushunadi, shunchalik mustaqil qayta hikoya qilib beradi.

Shunday qilib, nutqni tafakkurdan ajratib boʻlmaydi, nutq tafakkur asosida rivojlanadi; fikr nutq yordamida pishib yetiladi, yuzaga chiqadi. Ikkinchi tomondan, nutqning oʻsishi fikrni shakllantirishga yordam beradi, takomillashtiradi.

BOGʻLANISHLI NUTQ VA UNI OʻSTIRISH VAZIFALARI:

Bogʻlanishli nutq haqida umumiy tushuncha.

Fikrni bayon etish ehtiyojini amalga oshirishga qaratilgan, tugallangan mavzuni ifodalaydigan, logik va grammatik qoidalar asosida tuzilgan, mustaqil, tugallangan va oʻzaro bogʻlangan maʼnoli qismlarga boʻlinadigan nutq bogʻlanishli nutq deyiladi.

Bogʻlanishli nutq birligi sifatida hikoya, maqola, roman, monografiya, doklad, hisobot kabilarni, maktab sharoitida esa oʻqituvchi bergan savolga oʻquvchilarning keng, mukammal ogʻzaki javobini, yozma bayon va inshoni olish mumkin.

Boshlangʻich sinflar metodikasida bogʻlanishli nutqqa oid mashq turlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- 1) berilgan savolga keng, mukammal javob;
- 2) oʻqilgan asarni tahlil qilish, grammatik materialni oʻrganish; oʻquvchilar lugʻatini faollashtirish bilan bogʻliq holda har xil matnli mashqlar;

3) muntazam o‘tkazilgan kuzatishlarni yozish, ob-havo kundaligini yuritish;

4) o‘qilgan matnni turli variantda og‘zaki qayta hikoyalash;

5) berilgan mavzu, rasm, kuzatishga oid boshlab berilgan yoki oxiri berilgan hikoya, reja yoki syujet asosida o‘quvchilarning og‘zaki hikoyasi;

Bu mashqlarning hammasi nazariyasiz, amaliy tarzda beriladi. Bunday mashqlarni takroriy ishlatmaslik yoki asosiylarini tushirib qoldirmaslik uchun nutqiy mashqlarning aniq rejasi tuzib olinadi.

Bog‘lanishli nutqdan mashqlarning turli xil bo‘lishida, avvalo, material manbaiga, tematikaga, shuningdek, janriga, til xususiyatiga, mashq turiga rioya qilinadi.

Bog‘lanishli nutqqa oid aniq ko‘nikmalar

O‘quvchilar nutqini o‘stirish ularga aniq ko‘nikmalarmi singdirish demakdir. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari mustaqil mashq sifatida bog‘lanishli nutqni o‘stirishdan quyidagi ko‘nikmalarni bilib oladilar:

1. Mavzuni tushunish, chegarasini aniqlash va uni nisbatan to‘liq yoritish ko‘nikmasi. Masalan, «Biz uy ishlarida ota- onamizga qanday yordamlashamiz?» mavzusi berilsa, o‘quvchilar aniq bajargan ishlari haqida hikoya qiladilar. Ular mavzuni yaxshi tushunishlari uchun bayon matni qayta hikoya qildiriladi, inshoda esa berilgan mavzu yuzasidan mustaqil hikoyalash mashq qilinadi.

2. Inshoni asosiy fikrga bo‘ysundirish ko‘nikmasi. Bolalar ishi ma’lum fikrni (tabiatning ajoyib tasvirini idrok etish, o‘zlarining baxtli hayotidan g‘ururlanish, mehnatga va mehnatkash insonlarga muhabbatni) ifodalaydi.

3. Hikoya, insho uchun mavzuga taalluqli, uni yoritishga zarur bo‘lgan materialni yig‘ish. Bu bayonga ham taalluqli bo‘lib, namunaviy matn tahlil qilinadi, mazmunini to‘g‘ri tushunish ustida ishlanadi, asosiy mazmun ajratiladi.

O‘qituvchidan o‘quvchini navbatdagi inshoga tayyorlashda shu mashqning pedagogik maqsadini, o‘quvchilarni nimaga o‘rgatishni, tafakkuri va nutqini qanday boyitishni, shuningdek, mashqlar izchilligida shu inshoning tutgan o‘rnini aniq ko‘z oldiga keltirish talab etiladi. SHuning uchun o‘quvchilarning bog‘lanishli nutqini o‘stirishga oid mashq turlarining bir-yillik rejasini tuzib olish tavsiya etiladi. Rejada o‘quvchilar yoshiga mos bayon va inshoning barcha turlari hisobga olinishi zarur. Metodik an’anaga ko‘ra matnli mashqlar tasvirlash, hikoya qilish va muhokamaga bo‘linadi. Boshlang‘ich sinflarda bular,

asosan, tasvir yoki muhokama elementlari bo'lgan hikoya tarzida uchraydi.

Har uchala janr uchun foydalaniladigan material xarakterida ham, qurilishida ham, til vositalarini tanlashda ham o'z xususiyatlari mavjud. Insho yoki bayonga tayyorlanayotganda o'qituvchi (yoki o'quvchi) matnning janr xususiyatlarini hisobga oladi.

Hikoya boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun mos janr hisoblanadi, chunki u jo'shqin, jonli, ta'sirchan bo'ladi. «O'qish savodxonligi» kitobda bunday hikoyalar ko'plab berilgan.

Tasvirda syujet, qatnashuvchi shaxslar bo'lmaydi; unda tabiat, ayrim predmet va hodisalar tasvirlanadi. O'quvchilar O'qish savodxonligi » kitobida berilgan ko'pgina tasviriy matnlarni o'qiydilar, ularni qayta hikoya qiladilar, bayon, ayrim narsa yoki hodisalarni tasvirlab insho ham yozadilar. Masalan, «Qishda jonivorlar hayoti», «Bahorning taomi» kabi. Tasvirga xos xususiyatlar shundan iboratki, unda sifatlash, taqqoslash, metaforalar ko'p bo'ladi. Tasvir o'quvchilar uchun hikoyaga nisbatan qiyin janr hisoblanadi, shuning uchun boshlang'ich sinflarda ko'proq tasvir elementlari bo'lgan hikoya tarzidagi bayon va insho yozdiriladi.

Muhokama bog'lanishli matnning anchagina qiyin shakli hisoblanadi, shuning uchun boshlang'ich sinflar dasturida muhokama tarzida insho yozdirish tavsiya etilmaydi; o'quvchilar inshoda muhokama elementlaridagina foydalanadilar. Masalan, «Qushlar uyasini nima uchun buzish mumkin emas», «Paxta bizning milliy boyligimiz» mavzularida og'zaki hikoya tuzdirilsa yoki insho yozdirilsa, muhokama elementi, albatta, bo'ladi.

O'qituvchi bog'lanishli nutqni rejalashtirganda, turli janrda mashq qilishni ko'zda tutadi va o'quvchilarga hikoya, tasvir va muhokama elementlarini o'rgata boradi. Bunda ko'proq hikoya tarzidagi matn tuzdirishga ahamiyat beradi. Bolalarning bog'lanishli nutqni egallash darajasiga qarab, matnga tasvir muhokama elementlari kiritib boriladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining bog'lanishli nutqini o'stirishda inretfaol usullardan foydalanish.

Interfaol metod - ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi faollikni oshirish orqali ularning o'zaro harakati ta'sir ostida bilimlarni o'zlashtirishni kafolatlash, shaxsiy sifatlarni rivojlanishiga xizmat qiladi. Ushbu usullarni qo'llash dars sifati va samaradorligini oshirishga yordam beradi. Uning asosiy mezonlari- norasmiy bahs-munozaralar o'tkazish, o'quv materialini erkin bayon etish, mustaqil

o'qish, o'rganish, seminarlar o'tkazish, o'quvchilarni tashabbus ko'rsatishlariga imkoniyatlar yaratilishi, kichik guruh, katta guruh, sinf jamoasi bo'lib ishlash uchun topshiriq, vazifalar berish, yozma ishlar bajarish va boshqalarda iborat.

Interfaollik, bu - o'zaro ikki kishi faolligi, ya'ni, bundan o'quv-biluv jarayoni o'zaro suhbat tariqasida dialog shaklida (kompyuter aloqasi) yoki o'qituvchi - o'quvchilarning o'zaro muloqotlari asosida kechadi. Interfaollik o'zaro faollik, harakat, ta'sirchanlik, o'quvchi o'qituvchi, o'quvchi o'quvchi (sub'yekti subyekt) suhbatlarida sodir bo'ladi.

Interfaol metodlarning bosh maqsadi o'quv jarayoni uchun eng qulay muhit va vaziyat yaratish orqali o'quvchining faol, erkin, ijodiy fikr yuritish, uni ehtiyoj, qiziqishlari, ichki imkoniyatlarni ishga solishga muhit yaratish. Bunday darslar shunday kechadiki, bu jarayonda birona ham o'quvchi chetda qolmay, eshitgan, o'qigan, ko'rgan bilgan fikr mulohazalarini ochiq oydin bildirish imkoniyatlariga ega bo'ladi. O'zaro fikr almashish jarayoni hosil bo'ladi. Bolalarda bilim olishga havas, qiziqish ortadi, o'zaro do'stona munosabatlar shakllanadi. Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning yosh xususiyatlari, savodxonlik darajalari, shaxsiy tabiyatlariga ko'ra didaktik o'yinlar orqali evristik suhbatlar loyihalashtirish asosidagi metodlar keng qo'llanilmoqda. Agar o'qitish jarayonida har bir o'quvchi o'zining o'zlashtirish imkoniyati darajasida topshiriqlar olib ishlaganida u yuqori sifat va samaradorlikni ta'minlagan bo'lar edi. Bunday holatni faqat tabaqalashtirgan ta'lim orqaligina amalga oshirish mumkin. Endi ta'lim jarayonlarini didaktik o'yinlar orqali amallarga oshirish haqida fikr yuritamiz: Interfaol o'yinli metodlar o'quvchi faoliyatini faollashtirish va jadallashtirishga asoslangan. Ular o'quvchi shaxsidagi ijodiy Imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish va rivojlantirishning amaliy yechimlarini aniqlash va amalga oshirishda katta ahamiyatga ega. Interfaol o'yinlarning asosiy turlari: intellektual (aqlli) va harakatli hamda aralash o'yinlardan iborat. Bular o'quvchilarda aqliy, jismoniy, axloqiy, ma'naviy, ma'rifiy, psixologik, estetik, badiiy, tadbirkorlik, bunyodkorlik, mehnat, kasbiy ko'nikmalarni rivojlanishiga yordam beradi. Bu metod o'quvchini ichki imkoniyatlarini ishga tushishiga, o'ylashga, erkin fikr yuritishga, muloqotga, ijodkorlikka yetaklaydi. Ayniqsa, unda atrof-muhit, hayotni bilishga qiziqish ortadi, uchragan qiyinchilik, to'siqlarni qanday yengish va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantiradi Ta'lim-tarbiya jarayonida asosan o'quvchilarda ta'lim olish motivlarini, ularni turi yolanishlardagi

qobiliyat va qiziqishlarini oshiradigan, biror kasbga moyilliklarini ko'rsatadigan, didaktik o'yinlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Interfaol o'yinlar nazariy, amaliy, jismoniy, rolly, ishchanlik va boshqa yo'nalishdagi turlarga ajratiladi. Ular o'quvchilarda tahlil qilish, hisoblash, o'lchash, yasash, sinash, kuzatish, solishtirish, xulosa chiqarish, mustaqil qaror qabul qilish, guruh yoki mustaqil jamoa tarkibida ishlash, nutq o'stirish, til o'rgatish yangi bilimlar olish faoliyatlarini rivojlantiradi. Umumiy o'yinlar nazariyasiga ko'ra, mavjud barcha o'yin turlarini tasniflashga ularni funksional, mavzuli, konstruktiv, didaktik, sport va harbiy o'yinlarga ajratiladi.

Interfaol o'yin turlarini tanlashda quyidagi mezonlarga rioya qilish yaxshi natijalar beradi.

- ishtirokchilarni tarkibi boyicha, ya'ni o'g'il bolalar, qiz bolalar yoki aralash guruhlar uchun o'yinlar:

- ishtirokchilarning soni bo'yicha -yakka, juftlikda, kichik guruh, katta guruh, sinf jamoasi, sinflararo va ommaviy tarzda o'yinlar

- o'yin jarayoni bo'yicha fikrlash, o'ylash, topag'onlik, harakatlar asoslangan, musobaqa va boshqalarga yo'naltirilgan;

- vaqt me'yori bo'yicha dars, mashg'ulot vaqtining reja bo'yicha ajratilgan qismi, o'yin maqsadiga erishguncha, g'oliblar aniqlanguncha davom etadigan o'yinlar.

Ayrim didaktik o'yinli dars shakllari:

- ishchanlik o'yini darsi - mavzu bo'yicha masalalarni hal qilish jarayonida o'quvchilarning faol ishtirok etishini ta'minlash orqali yangi bilimlarni o'zlashtirish mashqi;

- rolly o'yin darsi -mavzu bo'yicha masalalarni o'rganishda o'quvchilarga oldindan ma'lum rollarni taqsimlash va dars jarayonida shu rollarni bajarishlarini tashkil etish asosida bilimlarini mustahkamlash; -

- teatrlashtirilgan dars- mavzu bilan bog'liq sahna ko'rinishlarini tashkil etish orqali dars mavzusi bo'yicha chuqur, aniq ma'lumotlar berish;

- "Kim oshdi savdosi" darsi- o'quv fani, ayrim bo'limi bo'yicha bilimlarini har bir o'quvchi qanchalik ko'proq bilishini namoyish etish;

- yarmarka darsi- mavzuni bo'laklarga bo'lish oldindan o'zlashtirgan o'quvchilarning o'zaro muloqatlari asosida qiziqarli tushuntirish orqali o'tiladigan darslar ;

o'yin darsi- mavzuni sahnalashtirilgan holdagi konsert shaklida ifodalash mashqlari bo'lib, o'quvchilarni faollashtirish va bilimlarini mustahkamlash imkoniyatini beradi.

-integral (integral) dars boshqa darslarga doir va integratsiyalash uchun qulay bo'lgan mavzular bo'yicha tashkil qilingan dars bo'lib, o'quvchilarning turli fanlarga qiziqishlarini orttirib, ta'lim jarayonidagi faolligini taminlaydi. Bularning bari o'quvchilarga fanlararo bog'liqlikni o'rgatish orqali ularda olam tuzilishini ilmiy asoslarini to'liq idrok etish va ilmiy dunyoqarashlarini shakllantirish, ijodiy tafakkurlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Interfaol usullarning asosiy maqsad va vazifalari quyidagilardan iborat:

1. O'quvchilarni mustaqil, ijodiy, tanqidiy, mantiqiy fikrlashga o'rgatish;

2. Muammoli vaziyatni amaliy va hayotiy topshiriqlar asosida yechish;

3. O'z-o'zini fikrlashga majbur etish;

4. Faollashtirish;

5. O'quvchilarni tashkilotchilik va yo'naltiruvchanlikka undash;

6. Do'stona munosabatlarni shakllantirish;

Interfaol metodlarda o'qitishning mohiyati quyidagicha:

o'rgatuvchi ham o'rganuvchi ham ma'lumotlar bilan faol ishlashi;

o'quvchilarni mustaqil fikrlashga undashi va o'rgatishi;

o'qituvchiga o'quvchilarni fikrlashga o'rgatish uchun xizmat qilsa, o'quvchilarga esa, «fikrlashni o'rganishlari uchun» xizmat qilishi;

Interfaol usullardan foydalanish:

1. Individuallashtirish.

2. Kichik Juruhlarga ajratish.

3. Tabaqalashtirish.

4. O'rgatish va o'rganish jarayonida demokratik, do'stona muhitni yaratish.

5. O'zaro muloqot, hamkorliklikni tashkil etish. I

nterfaol metodlarni qo'lashda foydalaniladigan vositalar:

1. Darsliklar, qo'shimcha o'quv adabiyotlar.

2. Texnika vositalari.

3. Tapqatma materiallar.

4. Multimediyalar.

5. Slaydlar.

6. Ko'rgazmali qurollar.

7. Didaktik o‘yinlar.

O‘quvchi shaxsiga qaratilgan ta’lim, o‘quvchining faolligini oshirish, mustaqil, ijodiy fikrlashga o‘rgatish, mustaqilligini, erkinligini ta’minlash, qiziqishlari asosida (motivatsiya) ish yuritish, ichki imkoniyatlarni ishga solish, o‘z qiziqishlari orqali qo‘shimcha ta’lim olishga yo‘llash, o‘z-o‘zini rivojlantirishni o‘z ichiga oladi.

BOG‘LANISHLI NUTQ. OG‘ZAKI QAYTA HIKOYA QILISH VA YOZMA BAYON

Namunaviy matnni qayta hikoyalash va bayon yozishga qo‘yilgan talablar.

Bayon o‘qib berilgan namunaviy matnni, matn mazmunini ma’lum tayyorgarlikdan so‘ng yozma qayta hikoyalashdir.

Namunaviy matn og‘zaki va yozma hikoya qilinadi. Bayon yozishga tayyorgarlik o‘qish darslarida o‘qilgan asar matnini qayta hikoyalash, savollarga javob berish, reja tuzish, reja asosida qayta hikoyalash jarayonida boshlanadi. Ona tili darslarida mashq ishlash jarayonida tayyorgarlik yozma shalda oshiriladi. Har qanday qayta hikoyalash asosida bayon yozish mumkin. Bayon yozishda kichik hajmdagi tuzilishi sodda matn tanlanadi. Keyin u murakkablashtirilib boriladi. Hikoya shaklidagi matndan asta- sekin tasvir muhokama elementlari bor matn tanlashga o‘tiladi. Qatnashuvchilari soni ko‘paytirib boriladi. Bayon asta-sekin ijodiy xarakter kasb etib boradi.

Boshlang‘ich sinf dasturiga ikkinchi sinfda 30-35 so‘zli matn tanlanadi. So‘roqlar yordamida bayonlar yoziladi. Uchinchi sinfda 40-60 so‘zli matn, to‘rtinchi sinfda 70-90 so‘zli mustaqil tuzilgan reja asosida bayon yoziladi.

Bayonning ahamiyati:

- bolalarda adabiy nutq to‘g‘ri shakllanadi
- nutq madaniyati egallanadi
- badiiy uslub singdiriladi
- badiiy tilga sezgirlik oshiriladi

Bayonning mavzulari:

- kishilarning hayoti, mehnati, yutuqlari ifodalangan matn
- tabiat bilan bog‘langan matn
- fan-texnika madaniyat yutuqlarga oid matn

Bayon mavzusi o‘quvchilarni bilimni kengaytiradi. Dunyoqarashini shakllantiradi. Qayta hikoyalashda til materiallaridan nutq aborotlaridan

sintaktik qurilishdan foydalana olish zarur. Qayta hikoyalashda maxsus tayyorgarlikda quyidagi talablarga rioya qilinadi.

1) Qayta hikoyalash turi haqida o'quvchilarni ogohlantiradi. Matnga yaqinlashtirilib, tanlab, qisqartirilib, ijodiy qayta hikoyalanadi.

2) Suhbat, matn mazmuni tahlil qilinadi. Tili oborotlari, gaplari aniqlanadi

3) Qayta hikoyalanishni puxtalash uchun ifodali o'qish.

4) Matnni kompozitsiyali qismlarga bo'lish sarlavha, reja tuzish.

5) Matnni qayta hikoyalash kamchiliklarni tuzatish.

6) Qayta hikoyalashni bolalar hayoti bilan bog'lash.

To'liq yoki matnga yaqin qayta hikoyalash va bayon.

To'liq qayta hikoyalash uchun hikoya tanlanadi. Boshlang'ich sinflarda qayta hikoyalash ko'p o'tkaziladi. Bir kishining hikoya tarzidagi matni tanlanadi. Matn keyinchalik qahramonlar tabiat tasvirining muhokama elementlari bilan boyitiladi.

Qayta hikoyalash uchun tuzilgan savollar har bir gapga qaratilmasdan umumlashtiruvchi xarakterda bo'lishi kerak.

To'liq bayonga tayyorgarlik:

To'liq bayonda uchraydigan kamchiliklar:

a) Hikoyani to'g'r boshlashni bilmaslik;

b) Matn mazmunini davom ettira olmaslik;

c) Tushunmasdan noto'g'ri bayon qilish;

d) Bayon qilishda til kambag'illigi

Bu kamchiliklarni yo'qotish uchun:

a) Matnni qismlarga bo'lish

b) Qismlarga sarlavha topish

c) Reja tuzish

d) Reja asosida qayta hikoyalash

Til kambag'al bo'lmasligi uchun til materiallari ustida ishlash.

Bayon yozish quyidagicha uyushtiriladi.

1) Bolalarga bir- ikki marta o'qib beriladi.

2) Suhbat: qismlarga bo'lish, mazmuniy bog'lanishlarni aniqlab reja tuzish.

3) Lug'at ishi (so'z ma'nosi va imlosi)

4) Muhim til birliklariga diqqat qilish.

5) Gaplar tuzdirish.

6) Qayta hikoyalash.

7) Yozish.

Tanlab qayta hikoyalash matnning tor mavzusi, kichikroq soʻroqqa oid qism tanlanadi. Masalan: oʻqilgan matndagi qahramonlarning koʻrinishi, ikki qahramonning toʻqnashuvi, tabiat tasviri tanlanadi.

Tanlab hikoyalash turlari:

1) qahramonning tashqi koʻrinishini tanlab qayta hikoyalash, masalan, Odinaning qoʻy boqib kelgandan soʻng boyni uni jazolashi;

2) tabiat tasviri. Matnning bir qismini unga chizilgan rasm asosida qayta hikoyalash;

3) oʻqituvchining topshirigʻi bilan hikoyaning bir epizodini qayta hikoyalash;

4) berilgan mavzu asarning turli oʻrinlaridan parchalar olib qayta hikoyalash;

5) qisqartirib qayta hikoyalash; (quyidagi savollardan foydalaniladi)

- har bir qismni bir gap bilan aytish, 1-qismdan asosiy gap qaysi?

- ijodiy qayta hikoyalashning bir necha turi bor?

1) shaxsni oʻzgartirib qayta hikoyalash va bayon;

2) hikoyadagi biror qahramon tilidan qayta hikoyalash va bayon;

3) matnni ijodiy toʻldirib qayta hikoyalash va bayon;

4) soʻz bilan tasvirlash yoki sahnalashtirish.

Bunda quyidagi topshiriqlar bajariladi: "Siz shunday holatda oʻzingizni qanday sezasiz? Bular rasmlarda tasvirlangan deb oʻylang. Shu voqealar koʻz oldingizdan oʻtayaptimi? Siz koʻrgansiz, eshityapsiz oʻzingiz tasvirladim deb oʻylang".

Qahramonning tashqi koʻrinishini oʻylashingiz mumkin. Suhbat orqali asosiy joylari ajratib olinadi. Reja tuziladi. Reja asosiy oʻrinlarni ifodalashi zarur.

Tekshiruv bayoni asosan oʻquvchilarni bilimini aniqlash maqsadida oʻtkaziladi. Oʻquvchi bilimidagi sayoz oʻrinlarni belgilab olish, xato va kamchiliklarni bartaraf etish choralari rejalashtiradi. Tekshiruv bayoni bir oʻquv-yilida 2-3 marta oʻtkaziladi. Uning turi toʻliq taʼlimiy bayonnikabi kabi, oʻtkazilish tartibi ham bayon turidan kelib chiqib, taʼlimiy bayon kabi uyushtiriladi. Farqi shundaki, yozish jarayonida oʻqituvchi oʻquvchilarga yordam koʻrsatmaydi, bu bayon turi 3-4 sinflarda chorak oxirida yoki biror katta boʻlim oʻtib boʻlingach oʻtkaziladi. Masalan: ona tilidan soʻz turkumlaridan ot, sifat, son, olmosh, feʼl oʻtib boʻlingach, ularga doir bilimlarni aniqlash maqsadida oʻtkaziladi.

BOG‘LANISHLI NUTQ. OG‘ZAKI HIKOYA VA YOZMA INSHO

Og‘zaki va yozma insho turlari.

Insho turlari. Insho ijodiy ishning eng yuqori shakli bo‘lib, maktabda alohida o‘rin tutadi; barcha nutqqa oid mashqlar ma‘lum mazmunda inshoga bo‘ysunadi. Insho 1-sinfda kichik og‘zaki axborot va ehtirosli hikoyadan boshlanib, o‘z fikrini ifodalashga, o‘quvchi shaxsining tashkil topishiga xizmat qiladigan, ta‘lim-tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan jiddiy rejali aqliy ishga aylanadi. Insho shaxsni shakllantirishda foydali vosita bo‘lib, his-hayajon uyg‘otadi, aqliy mustaqillikka, fikrlashga, ko‘rgan-kechirganlari va o‘zlashtirganlarini baholashga, kuzatuvchanlikka, voqea-hodisalar o‘rtasidagi sabab-natija bog‘lanishni topishga, ularni qiyoslashga, xulosa chiqarishga o‘rgatadi. Insho fikrni tartibga soladi, o‘quvchilarda o‘ziga, o‘z kuchi va imkoniyatiga ishonch tug‘diradi.

"Insho" asli arabcha so‘z bo‘lib, ma‘nosi "yaratish", "bino qilish", "boshlash" demakdir. Bu co‘zning ma‘nosi hozirda ancha torayib, asosan, o‘quvchi va talabalar tomonidan yoziladigan ijodiy yozma ish ma‘nosida qo‘llanadi. Insho ijodiy ish bo‘lib, u o‘quvchidan faollik, qiziqish, fikr bildirishni talab qiladi. Material tayyorlash, uni tartibga solish, insho kompozitsiyasi va rejasi haqida o‘ylash, mantiqiy bog‘lanishni belgilash, so‘z, so‘z birikmasini tanlash, gap tuzish va uni o‘zaro bog‘lash, imloni tekshirish kabi barcha murakkab ishlar o‘quvchidan aqliy kuchini to‘la ishga solish bilan birga, o‘z ma‘naviy faoliyatini boshqarish ko‘nikmasini ham talab etadi. Inshoda til nazariyasi nutq tajribasi bilan qo‘shiladi. O‘quvchi inshoni mustaqil, ijodiy xarakterda bo‘lgani uchun, o‘zinikini yozgani uchun ham sevadi. Maktab rivojining barcha bosqichlarida bolalarning mustaqil tuzgan hikoyasi inshoga alohida ahamiyat berilgan. Maktablar yangi, o‘quvchilar nutqini o‘stirish, aqliy, ijodiy o‘sishiga mo‘ljallangan dasturga o‘tishi munosabati bilan uning ahamiyati yanada o‘sdi. Og‘zaki va yozma inshoga o‘rgatish jarayonida o‘quvchilarda mavzuni tushunish va yoritish, o‘z inshosini aniq fikrga bo‘ysundirish, material to‘plash, uni tartibga solish va joylashtirish, reja tuzish va reja asosida yozish, mazmunga va nutq vaziyatiga mos ravishda til vositalaridan foydalanish, yozgan inshosini takomillashtirish ko‘nikmalari hosil qilinadi. Bulardan tashqari, «texnik vazifalar ham amalga oshiriladi, ya‘ni matnni yozishda imlo qoidalari va husnixatga e‘tibor berish, matnni xatboshidan yozish, hoshiyaga rioya qilish kabi talablarga ham amal qilinadi. Og‘zaki va

yozma insho material manbaiga, mustaqillik darajasiga, tayyorlash usuli, janri va til xususiyatiga qarab tasnif qilinadi.

Insho **material manbaiga** ko'ra quyidagi uchga bo'linadi:

1) o'quvchining o'zi ko'rgan-bilganlari, eshitganlari haqidagi, ya'ni mehnat, kuzatishlar, ekskursiyalar, o'yinlar, o'z tajribasi va boshqa jonli materiallar asosidagi insho;

2) kitob material, rasmlar, film, spektakl, o'qituvchi hikoyasi va boshqa manbalar asosidagi insho;

3) turli manbalar materialidan foydalaniladigan insho.

Mustaqillik darajasiga, tayyorgarlik ko'rish metodiga ko'ra insho ikki turli bo'ladi:

1) sinf o'quvchilari uchun umumiy bir mavzu asosida jamoaviy tayyorgarlikdan so'ng yoziladigan insho;

2) alohida mavzu asosida individual tayyorgarlikdan so'ng yoziladigan individual insho.

Janriga ko'ra: hikoya, tasvir, muhokama tarzidagi insholarga bo'linadi. Boshlang'ich sinflarda tasvir va muhokama elementlari mavjud bo'lgan hikoya tarzidagi inshodan ko'proq foydalaniladi. Inshoni tasnif qilish ta'limiy vazifalarni chuqur anglash va metodik vositalarni tanlashga, shuningdek, ish turlarini zaruriy yo'nalishda, baravar taqsimlashga yordam beradi.

Boshlang'ich sinflarda yozdiriladigan inshoning muhim turlaridan biri kichik yoshdagi o'quvchilarning shaxsiy hayotiy tajribasiga asoslangan inshodir. Rasm asosidagi insho maktablarda tez-tez o'tkaziladi, chunki rasm bolalar nutqiy ijodini, tasavvurini boyitishga xizmat qiladi. Rasm bolalar sezgisiga ta'sir etadi, hayotning bola tajribasida hali uchramagan tomonlarini ochadi. Rasm o'quvchilarga tanish bo'lgan hodisalarni chuqur anglashga ham yordam beradi.

Rasm asosidagi inshoning uch asosiy turi bor:

1) rasmlar seriyasi yoki rasmlari asosida yoziladigan hikoya tarzidagi insho;

2) syujetli, o'quvchilarni o'ylashga, faraz qilishga undaydigan bir rasm asosida yoziladigan hikoya tarzidagi insho;

3) O'quvchilar avval rasmlar seriyasi asosida, so'ng bir rasm asosida, undan so'ng tasviri insho yozish (rasmni tasvirlash)ga o'rgatiladi.

Dasturga ko'ra, 1-sinf o'quvchilari o'yinlari, mehnatlari, voqea-hodisalar haqidagi taassurotlari asosida o'qituvchi rahbarligida hikoya tuzishlari va uni ma'lum tayyorgarlikdan so'ng yozishlari, 2 -sinfda

rasmlar seriyasi asosida kichik hikoya tuzish va uni jamoa tarzda tuzilgan reja asosida yozish, tabiatni kuzatish va mehnat jarayoni haqida, bolalarning o'yinlari, ishlari, sayillari haqida, avval o'qituvchi rahbarligida, keyin mustaqil ravishda kichik hikoya tuzish va uni yozish, shaxsiy ishlari haqida xat yoza olishlari, 3 - sinfda rasmlar (bir mavzuga oid bir necha rasm, syujetli rasmni tasvirlash) asosida hayotiy tajribalari, kuzatishlari, ekskursiyalardan olgan taassurotlari asosida rejani, avval jamoaviy ravishda, keyin mustaqil tuzib hikoya qilish va uni yozishlari talab etiladi. Boshlang'ich sinflarda insho ta'limiy xarakterda bo'ladi, 3-sinfdagina tekshiruv insho o'tkazish mumkin. Rag'batlantirish maqsadida ta'limiy insholar ham baholanadi, lekin salbiy baho qo'yish tavsiya etilmaydi.

O'quvchilar tarbiyasida inshoning ahamiyati. Inshoning tarbiyaviy ahamiyati tanlanadigan mavzuga, shuningdek, insho ustida o'quvchilar qanchalik mustaqil ishlashi va qiziqishiga, insho g'oyasiga ham bog'liq. Insho bolalarning voqea-hodisalarni chuqur his etishiga yordam beradi, izchil fikrlashga o'rgatadi, tilga va adabiy ijodga qiziqishlarini o'stiradi. Bolalar eng qiziqarli va o'zlariga yaqin voqea-hodisalar haqida hikoya qiladilar va yozadilar, ularning inshosi mustaqil ishlash malakasini o'stiradi, ommaviy faollikni oshiradi. Tanlangan mavzuning g'oyaviy yo'nalishini ochish tarbiyaviy vazifani hal qilishga imkon beradi. Bu jihatdan mehnat, mehnat qahramonlari haqidagi, bolalarning hayoti, maktab, tug'ilib o'sgan qishlog'i yoki shahri haqidagi, urush qahramonlari haqidagi mavzular ayniqsa qulay. Bu mavzulardagi insholar mehnat kishilariga, qahramonlarga chuqur hurmatni tarbiyalaydi. Insho jamiyat hayotini tushunishga o'rgatadi. Tabiatga, kishilarga, ularning yaxshilikka intilishlari va harakatlariga, mehnatga va mehnat mahsuliga muhabbatni tarbiyalaydi, kishilar xatti-harakatidagi chiroyli jihatlarni egallashga, hozirgi zamon axloqiy talablarini anglashda o'quvchilarga yordam beradi.

Inshoning tarbiyaviy ahamiyatini oshirish uchun quyidagilarga rioya qilish talab etiladi:

1. Osondan qiyinga tamoyiliga rioya qilgan holda og'zaki va yozma inshoni muntazam o'tkazib borish bilan o'quvchilarda mustaqillikni tarbiyalash. Mustaqil insho o'quvchilar faolligini o'stiradi.

2. Inshoni hayot bilan bog'lash. Bunda kuzatishlar asosidagi insho, kundalik yuritish, qilingan ishlar yuzasidan «hisobot tarzidagi insho, xat, maqola, o'qilgan kitob haqida taqriz kabilarning tarbiyaviy ahamiyati juda katta. «Vatan» so'zini aytish bilan kishining bolalikda o'sib-

ulg'aygan joyi tasviri ko'z oldida paydo bo'ladi. Ishlab chiqarishga ekskursiya materiali asosida mehnat haqidagi insho yangi tarbiyaviy imkoniyatlarni ochib beradi: unda bolalar ishlab chiqarishdagi muvaffaqiyat va qiyinchiliklar, ilg'or kishilar haqidagi, kasb va mutaxassislik haqidagi, texnika haqidagi ma'lumotlardan foydalanadilar. Ishlab chiqarishga ekskursiya va mehnatni tasvirlash bilan bog'liq holda kasb haqida suhbatlashishga to'g'ri keladi va bu inshoda o'z aksini topadi. Mehnat haqidagi insho gazetaga maqola shaklida yozilishi mumkin. Mehnat yoki ishlab chiqarish haqidagi insho mavzulariga «Bizning qishloq», «Qovun sayli», «Bog'da», «Bizning jamoamiz», «Pochtada», «Do'konda», «Paxtakorlarga yordamimiz», «Bizning hashar», «Maktab yer uchastkasida», «Daraxt o'tqazish» kabilar kiradi. «Men nimalarni bilaman?» mavzusidagi tanlovga bolalar juda qiziqadilar. Tanlov bolalarning mehnat ko'nikmalarini aniqlabgina qolmay, ularni uyda, polizda, bog'da ishlashga rag'batlantiradi. Maqsad kishilarga foyda keltiruvchi mehnatga hurmatni tarbiyalashdir. Qishloq maktab o'quvchilari otaonalariga sabzavotlar ekish, hosilni yig'ish, o'tin tayyorlash kabi ishlarda qanday yordamlashganliklari haqida yozadilar. Sinfda mehnat haqidagi insho muhokama qilinadi. Bolalar foydali, zaruriy ijtimoiy faoliyat sifatida mehnatning mohiyatini tushuntiradilar. Ular har qanday mehnat e'zozlanishini aytadilar. Kelajak haqida «Kim bo'lishni xohlayman?» mavzusida tayyorgarliksiz hikoya qilish tarzidagi insho ham katta tarbiyaviy kuchga ega. Juda yaxshi yozilgan inshoni sinfda ifodali o'qib berish va tahlil qilish bolalarni tarbiyalaydi. Ba'zi maktablarda bolalar inshosi va hatto bolalar she'rlari to'plami tuziladi, yaxshi yozilgan hikoya uchun tanlov e'lon qilinadi.

Insho mavzusi va uni yoritish. Mavzu insho predmeti bo'lib, uning mazmunini tashkil etadi. Mavzuga qarab inshoda aks ettiriladigan materiallar, dalillar, hodisalar tanlanadi. Inshoning to'g'ri va to'liq bo'lishi o'qituvchi mavzuni qanday shakllantirishi, o'quvchilar uni qanday tushunishlariga bog'liq. Insho ustida ishlashda mavzu tanlash, uni rejalashtirishda esa og'zaki va yozma insho mavzusini belgilab olish muhim rol o'ynaydi. O'quvchilar mavzuni yoritishga 1- sinfdan boshlab o'rganadilar. Ular mavzuga oid gap tuzadilar. Masalan, bahor havosi haqida, ona qishlog'i (shahri) haqida, qo'rqqoq quyon, ayyor tulki haqida gap tuzadilar. Keyin savollar asosida bir mavzuga oid bir necha gap tuzib, uni yozadilar. Insho uchun iloji boricha tor - aniq chegaralash mumkin bo'lgan mavzuni tavsiya qilish foydali. «Kuz» mavzusi o'quvchilar uchun juda keng mavzu bo'lib, bunda o'quvchi umuman kuz

haqida, kuzda qilinadigan ishlar haqida yozishi mumkin, u yozishda gaplarining aniq chegarasini bilmaydi. O‘quvchilarga kuzga oid «Paxta terimiga yordam», «Kuz kunlarining birida», «Bog‘da olma terdik», «Pomidor terishga yordamlashdik», «Kech kuzda bog‘ manzarasi» kabi mavzularni tavsiya qilish mumkin. Og‘zaki va yozma insho ustida ishlashda mavzu berib, uni yoritishni talab qilishdan tashqari, avval material to‘plash va shu yig‘ilgan materiallar asosida mavzuni shakllantirishni tavsiya qilish ham mumkin. Masalan, kech kuzda tabiatni kuzatish va material yig‘ish tavsiya qilinadi, kuzatishlar «Kech kuzda» mavzusida insho yozish bilan yakunlanadi. Bunda o‘quvchilar mavzuni to‘liq yoritadilar.

Insho rejasini tuzish. Reja har qanday og‘zaki yoki yozma hikoya qilishning zaruriy pog‘onasi, uning “loyihasidir”. Kishi o‘z nutqi haqida o‘ylab, asosiy gaplarini belgilab oladi. Insho uchun reja tuzish shuning uchun ham zarur. 1-sinfda reja rolini o‘qituvchi savollari, ya’ni so‘roq gaplar tarzidagi reja bajaradi; 2-sinfda reja o‘qituvchi rahbarligida jamoaviy tarzda tuziladi; 3-4-sinflarda esa mustaqil tuziladi. Boshlang‘ich sinflarda 3-5 talik oddiy reja tavsiya qilinadi. Bolalar avval o‘qigan hikoyalariga reja tuzadilar va uni reja asosida qayta hikoya qiladilar, keyin bayon rejasini tuzadilar, so‘ng bir mavzuga oid bir necha rasm (rasmlar seriyasi) asosidagi insho rejasini, ya’ni rasmlari reja tuzadilar, inshoga sarlavha topadilar.

Shundan so‘ng tasvirlangan voqea-harakatlar aniq ajratilgan, reja tuzishga qulay bo‘lgan rasm yoki kuzatishlar asosida yoziladigan insho rejasini tuzishga o‘tiladi. Reja tuzishga o‘rgatishda oldin nima haqida to‘xtalish, keyin uni qanday davom ettirish, undan so‘ng nima haqda aytish, nihoyat, hikoyani qanday tugatish kerakligini o‘quvchilarga tushuntirish foydali usul hisoblanadi. Reja avval so‘roq gap tarzida, keyin darak gap, oxiri nominativ gap tarzida tuziladi. Reja ko‘pincha insho yozishdan oldin unga tayyorlanish jarayonida (rasm asosida yoziladigan insho rejasi kabi) tuziladi. Ba’zan rejani ekskursiya, kuzatishdan oldin, unga tayyorgarlik jarayonida tuzish maqsadga muvofiq. Ekskursiya, kuzatish, ijtimoiy foydali mehnat rejasi shu ishlar bajarilishidan oldin yoki ular yuzasidan material to‘plash, insho uchun material tanlash va uni tartibga solish jarayonida tuziladi. Bunday reja insho yozishdan oldin ko‘rib chiqilib, unga ayrim aniqliklar kiritiladi. Inshoni yozishga tayyorlash. Og‘zaki yoki yozma inshoning turi va vazifasiga qarab unga tayyorgarlik ko‘riladi. Inshoga tayyorgarlikni o‘qituvchi boshqaradi, bunga o‘quvchilarni ishtirok ettiradi, ularning

o'ta faolligi va mustaqilligiga erishadi. Tayyorgarlik deganda, birinchidan, o'quvchilarda nimanidir tasvirlashga, hikoya qilishga talab uyg'otadigan vaziyat yaratish; ikkinchidan, insho uchun yetarli bo'lgan zarur material yig'ish; uchinchidan, mavzuga oid, uni yoritishga mos bo'lgan til vositalarini tanlash tushuniladi. Inshoga tayyorlik inshoni yozishdan bir necha kun ilgari boshlanadi, darsdan tashqari vaqtlarda va boshqa darslar jarayonida ham olib boriladi.

Og'zaki yoki yozma insho ustida ishlash quyidagi bosqichlarga bo'linadi:

1) material yig'ish, ya'ni kuzatish, ekskursiya, mehnat jarayoni, rasmni ko'rib chiqish, kinofilm, spektaklni ko'rish, badiiy va boshqa adabiyotlarni o'qish;

2) mavzuga va uni yoritishga mos material tanlash, uni tartibga solish, joylashtirish, ya'ni suhbat, muhokama qilish, zarur materialni ajratish, reja tuzish, lug'at ustida ishlash, imlo va leksik tomondan tayyorlash va hokazo;

Birinchi va ikkinchi bosqichdagi ishlar, odatda, darsdan tashqari vaqtda bajariladi. Masalan, ekskursiya asosidagi insho uchun material yig'ish uni yozishdan ancha ilgari boshlanadi; tabiat hodisalarini kuzatish bir hafta, hatto undan ko'proq davom etadi; rasmlar esa insho yozishdan oldin ko'riladi. Shunday qilib, insho yozish yoki og'zaki hikoya qilish darsi ilgari bajarilgan ishlarning yakunidir. Insho darsining umumlashtiruvchilik roli bog'lanishli nutq sohasidagi ko'nikmalarni egallash me'yoriga qarab ortib boradi. Insho darsining qurilishi tayyorlov bosqichining xarakteriga bog'liq. Tayyorlov bosqichida qancha ko'p ishlansa, insho darsida matn ustida shuncha chuqur ishlash imkoniyati yaratiladi. Insho yozishdan oldin yoki og'zaki hikoyalashda yig'ilgan materiallarni o'quvchilar yodiga tushirish, ularda qiziqish uyg'otish, yozishga yoki hikoya qilishga xohish uyg'otish zarur.

Insho yozish darsida quyidagi bosqichlarga rioya qilinadi:

1. Mavzuni, inshoning vazifasini e'lon qilish (yoki yodga tushirish), uni o'quvchilar bilan muhokama qilish. 2. Kuzatish davrida to'plangan materialni tartibga solish yoki material yig'ish (masalan, rasmga qarab insho yozish uchun rasmni ko'rish) maqsadida suhbat o'tkazish. Keyingi ona tili darsining ikkinchi qismidan 15-25 minut vaqt ajratib, tekshirilgan insholar yuzasidan yakuniy mashg'ulot o'tkaziladi (insho tahlil qilinib, xatolar ustida ishlanadi). O'qituvchi har bir insho turi uchun o'quv vazifasini belgilab oladi. Masalan, rasmlar seriyasi asosida

birinchi marta yozdiriladigan insho uchun quyidagi vazifalar belgilab olinadi:

1. O'quvchilarni inshoning yangi turi bo'lgan rasmlar seriyasi asosidagi insho bilan tanishtirish.

2. Rasmlari reja asosida matn rejasini tuzish. O'quvchilarning mustaqillik darajasi o'sib borgan sayin, inshoga talab ham orta boradi.

O'quvchilar inshosini tahlil qilish. Nutq o'stirish metodikasida o'quvchilar inshosi uchun baho me'yori muhim masala hisoblanadi. Tabiiyki, bunda yuqorida bayon etilgan asosiy talablarga rioya qilinadi. O'quvchilar inshosini baholashda quyidagilar hisobga olinadi:

1. Insho mavzusining yoritilishi (Mazmun mavzuga mosmi, ya'ni yetarli yoritilganmi, haqiqatga mos keladimi?).

2. Reja, kompozitsiya, izchillik (reja to'g'ri tuzilganmi, materialni bayon qilish tartibi rejaga mos keladimi, mazmunda takror yo'qmi, zarur o'rinlar tushib qolmaganmi, izchillik buzilmaganmi, asosiy fikr aniqmi, xulosa chiqarilganmi?).

3. Janri, uslubi (hikoya tarzidagi matnda tasviriy va muhokama elementlari bormi, uslubda xatoga yo'l qo'yilmaganmi, insho mavzusi va vaziyatni yoritish vazifasini janr va uslub oqlay oladimi, badiiylik elementlari bormi?).

4. Insho hajmi (so'z, gap soni; lakonizm yoki ko'p so'zlilik). O'quvchilar inshosiga qo'yilgan bunday talablar uni baholashda real yondashishga imkon beradi.

O'quvchilar inshosini tahlil qilish va undan keyingi ishlar

Insho bola shaxsini shakllantirish vositasi. Bolalar voqea-hodisalarni sinchiklab kuzatishni o'rganadi, fikrini izchil yoritishga o'rganadi. Adabiy tilni egallaydi.

Insho mavzusi: qahramonlik, mehnatsevarlik, vatanparvarlik, maktab, ilm-xosiyati, ota-onalarga munosabat, kattalarga hurmat, tabiat, bayramlar, hayvonot dunyosi, yaxshilik, yomonlik, odob-ahloq mavzularida bo'lishi o'quvchilarning shunday ahloqiy xulqqa ega bo'lishida muhim rol o'ynaydi. Inshoning tarbiyaviy ahamiyatini oshirish uchun:

1. Osondan qiyinga tamoyiliga amal qilish. Inshoni muntazam o'tkazib borilsa, o'quvchilarda mustaqillikni tarbiyalaydi.

2. Inshoni hayot bilan bog'lash. Kuzatishlar, kundalik yuritish, qilingan ishlar yuzasidan hisobot, xat, maqola, taqriz shaklida yozishning ahamiyati katta.

3. Insho uchun maktab va o'qituvchining tarbiyaviy vazifalariga mos mavzu tanlash. Mehnat, vatan, ahloqiy muammolar haqidagi mavzular kiradi.

4. Insho ustida ishlashda ishning emotsional darajasini oshirish. Tabiatni qiziqarli, obrazli, ta'sirli qilib tasvirlash.

Mavzular: "Bizning qishloq", "Jamoamiz dalasida", "Paxta boyligimiz", "Daraxt o'tqazish", "Polizda", "Bizning gulzor", "Varrak", "Kim bo'lsam ekan?", "Onam o'qituvchi", "Bu mening bobom".

Eng yaxshi insho sinfda o'qib beriladi. Konkurs e'lon qilinadi. Mavzu inshoning predmeti, uning mazmunini tashkil etadi. Mavzuga qarab material to'planadi, faktlar yig'iladi. Insho mavzusini to'liq yoritish uchun uni tushunishga bog'liq. Eng asosiy narsa insho uchun mavzu tanlash. Mavzu tartiblangan, chegaralangan bo'lishi lozim. Mavzular: "Karam uzish", "Uzumzorda", "Paxta terimi", "Kuz kunlarining birida", "Kech kuzda kolxoz bog'i", "Qorbo'ron o'ynadik", "Yozgi ta'tilning bir kunida"...

Mavzuni yoritish uchun o'quvchilarga topshiriqlar beriladi. M: "Uzumzorda" mavzusida insho yozish uchun: Uzumzor qishloqning qayerida joylashgan? U yerda kim bog'bon bo'lib ishlaydi? Qanday uzum turlari bor? Siz u yerga borganda nima qildingiz?

Uzumzorni tasvirlovchi so'z, birikmalar to'plang. Gaplar tuzing. Boqqa o'zingizning munosabatingizni bildiring. Topshiriqlar yozdiriladi, material to'planadi. To'plangan materiallar og'zaki savol-javob yo'li bilan aniqlanadi, kamchiliklar tuzatiladi, reja tuziladi, so'zlatiladi, so'ng yozishga ruxsat beriladi. Reja-bu loyiha. Har bir og'zaki va yozma hikoya qilishning zaruriy pog'onasi - reja.

1-sinfda reja so'roq gap shaklida, o'qituvchi tomonidan tuzib beriladi. 2-sinfda o'qituvchi rahbarligida o'quvchilar bilan jamoa bo'lib tuziladi. Unda ham asosan so'roq gap shaklida bo'ladi. 3. sinfda jamoa bo'lib tuziladi, darak gap shaklida bo'ladi. 4-sinfda mustaqil tuziladi, darak gap, atov gap (ba'zi qismi) shaklida bo'ladi.

O'quvchilar o'qigan hikoyasiga reja tuzib, qayta hikoyalaydilar. So'ng insho rejasini tuzadilar. So'ng seriyali rasm asosida reja tuzadilar, inshoga sarlavha topadilar. So'ng syujetli rasm va kuzatishlar asosida reja tuzishga o'tadilar. Reja tuzishga o'rganishdan oldin nima to'xtatilinadi; keyin qanday davom ettiriladi, so'ng nima haqida gapiriladi, nima bilan tugatiladi deb yo'l-yo'riq beriladi.

Reja insho yozishga tayyorgarlik davrida tuziladi.

Mavzu e'lon qilingach, ekskursiya kuzatishdan oldin tuzib olinsa, insho muvaffaqiyatli yoziladi.

Inshoga tayyorgarlikni o'qituvchi boshqaradi.

Tayyorgarlik davrida:

- 1) hikoya qilishga talab uyg'otadigan vaziyat yaratish;
- 2) insho uchun material yig'ish;
- 3) til vositalarini tanlash.

Tayyorgarlik insho yozilishidan bir necha kun oldin boshlanadi. Darsdan tashqari vaqtlarda, boshqa dars jarayonida ham tayyorgarlik ko'riladi.

Insho ustida ishlash 3 bosqichda:

1) material to'plash; kuzatish, ekskursiya, rasmni ko'rib chiqish, kinofilm, spektakl ko'rish, badiiy adabiyotlar o'qish;

2) mavzuga doir mos materiallar tanlash, sistema solish joylashtirish, suhbat, muhokama qilish, zarur materiallarni ajratish, reja tuzish, lug'at ustida ishlash, imlo va leksik tomondan tayyorgarlik ko'rish

3) inshoni nutqiy shakllantirish; insho matnni tuzish, yozish takomillashtirish, xatolarini to'g'rilash, tekshirish.

1-2-bosqichlardagilar darsdan tashqari paytlarda bajariladi.

Tayyorlov bosqichida qancha ko'p ishlansa, insho sifatli bo'ladi. Darsda yig'ilgan materiallar yodiga tushirilsa, yozishga qiziqish uyg'otiladi.

1-sinfda insho yozish bir dars, 2-sinfda bir dars keyingi soatdan 15-20 daqiqa, 3-4 sinfda bir-bir yarim, ba'zan 2 dars ajratiladi.

Xatolar ustida ishlashga 20-25 daqiqa ajratiladi.

1) mavzuni e'lon qilish, uni o'quvchilar bilan muhokama qilish

2) to'plangan materiallarni sistemaga solish, rasm asosida bo'lsa, rasmni ko'rish, suhbat o'tkazish.

3) reja tuzish yoki oldin tuzilgan rejaga aniqlik kiritish

4) Matnni nutqiy tayyorlash, zarur so'zlarni yozish, birikma gap, bog'lanishli nutq tuzish, imlosi qiyin so'zlarni tushuntirish;

5) Inshoni yozish, o'qituvchi ayrim o'quvchilarga individual yordam beradi.

6) Insho tekshiriladi, o'quvchilar tuzatishlari bo'lsa, baho pasaytirilmaydi (o'quvchilar tekshiradi).

7) O'qituvchi 2 kun ichida inshoni tekshiradi.

Inshoni baholashda quyidagilar hisobga olinadi:

- 1) mavzuning yoritilishi

- 2) reja, kompozitsiya, izchillik, xulosa chiqarilganmi?
- 3) Janri, uslubi, tasvir muhokama elementlari bormi? Badiiy elementlari bormi?
- 4) Insho hajmi
- 5) Leksikasi
- 6) Sintaksisi
- 7) Imloviy, ishoraviy savodxonligi
- 8) Husnixat, xat boshi, hoshiya.

Nutqiy xatolar va ularni bartaraf etish yo'llari

O'quvchilar yo'l qo'yadigan nutqiy xatolarning asosiy turlari, ularni to'g'rilash va oldini olish yo'llari.

Nutqiy xatolarga noto'g'ri (noo'rin) tanlangan so'zlar, noto'g'ri tuzilgan gaplar, morfologik shakllarni noto'g'ri ishlatish kiradi. Boshlang'ich sinflarda bunday xatolar ustida ishlash ancha qiyin, chunki ularni to'g'rilash va oldini olish uchun ona tili dasturida berilgan qisqa nazariy ma'lumot yetarli emas. Bolalar nutqini takomillashtirish ustida rejali, muntazam ish olib borish uchun asosiy nutqiy xatolar turini bilish zarur. Bunday nutqiy xatolarni o'rganish, shuningdek, ularning kelib chiqish sabablarini tekshirish xatolarni to'g'rilash va oldini olish uchun zamin hozirlaydi.

Nutqiy xatolar uch turga ajratiladi: lug'aviy-uslubiy, morfologik-uslubiy, sintaktik-uslubiy.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari nutqida lug'aviy-uslubiy xatolar ko'proq uchraydi. Bunday xatolarga quyidagilar kiradi:

1. Bir so'zni qayta-qayta ishlatish. Bunday xatoning kelib chiqishiga sabab, birinchidan, o'quvchi so'zni ishlatishga kam e'tibor beradi va faol lug'atidagi so'zdan takroriy foydalanadi; ikkinchidan, o'quvchining so'z boyligi kam, sinonimlarni bilmaydi, takrorlanadigan so'zlar o'rniga olmoshlardan foydalana olmaydi.

Agar o'qituvchi bir so'zni qayta-qayta ishlatmaslik uchun uning ma'nodoshlaridan yoki shu so'z o'rniga olmoshlardan foydalanish kerakligini yaxshi tushuntirsa, kichik yoshdagi o'quvchi matnni e'tibor bilan o'qib, takrorlarini nisbatan tez tuzata oladi.

2. So'zning ma'nosini yoki ma'no qirrasini tushunmaslik natijasida uni aniq ma'nosida ishlatmaslik. Bunday xato bolaning nutqi yaxshi rivojlanmaganligi, so'z boyligining kamligi sababli yuzaga keladi.

3. Shevaga xos so'zlardan foydalanish. O'quvchilar bunday so'zlarni ota-onalarining nutqi va nutqiy sharoit ta'sirida qo'llaydilar.

Ularda adabiy tilda qo‘llanadigan tushunchalarni shakllantirish asosida shevaga xos so‘zlarni ishlatmaslik ko‘nikmasi hosil qilinadi.

Leksik xatolar xilma-xil bo‘lgani uchun uni to‘g‘rilash va tushuntirish usullari ham turlicha, ammo bunday xatolarning oldini olishning umumiy yo‘li bor: bu yaxshi nutqiy sharoit yaratish, o‘qilgan va qayta hikoya qilingan matnni til tomondan tahlil qilish, matndagi so‘zlarning ma‘no qirrasini tushuntirishdir.

Morfologik-uslubiy, sintaktik - uslubiy, mantiqiy xatolar. Morfologik-uslubiy xatolarga so‘z shaklini, so‘z o‘zgartuvchi so‘z yasovchi qo‘shimchalarni noto‘g‘ri va qo‘llashdan kelib chiqadigan xatolar kiradi.

Sintaktik-uslubiy xatolarga so‘z birikmasi va gap tuzishga oid xatolar kiradi. Bunday xatolar juda xilma-xildir. Kompozitsion, mantiqiy va dalillarni noto‘g‘ri bayon qilish nutqiy xato hisoblanmaydi.

Tipik kompozitsion xatoga insho, hikoya, bayonning tuzilgan rejaga mos kelmasligi, ya‘ni voqea, kuzatishlarni bayon etishda izchillikning buzilishi kiradi. Inshoga tayyorgarlik vaqtida o‘quvchilar kuzatish, material to‘plash, dalillarni tanlashda tartibsiz, rejasiz ish tutsalar, hikoyani qanday boshlash, keyin nimalar haqida yozish va uni qanday tugatishni aniq ko‘z oldilariga keltira olmaydilar, natijada kompozitsion xatoga yo‘l qo‘yadilar. Bunday xato hikoya mazmunini to‘liq qamrab ololmaslik, materialni o‘z o‘rniga joylashtira olmaslik natijasidir. Inshoni rejali, izchil yozish ko‘nikmasi murakkab ko‘nikma bo‘lib, u o‘quvchilarda muntazam bajariladigan mashqlar yordamida asta shakllana boradi.

Mantiqiy xatolar:

1. Tasvirlanayotgan voqea - hodisa uchun zarur bo‘lgan so‘z, ba‘zan zarur lavha, dalil tushirib qoldiriladi. Bunday xatoning sababini tushunish uchun o‘quvchining insho yozish vaqtidagi ruhiy holatini kuzatish talab etiladi. U sekin yozadi, ammo ishga berilib ketib, tez fikrlaydi, ya‘ni u hikoya mazmunini biladi, ammo tez fikrlash va sekin yozish natijasida ayrim o‘rinlar yozuvda aks etmay qoladi.

2. Mantiqiy izchillik buziladi. Masalan, Zavodda paxtadan ip yigiriladi. Terimchi paxtani, paxta terish mashinasida teradi. Bunday mantiqiy xatolarni o‘quvchilar matnni qayta o‘qish va tahlil qilish jarayonida oson to‘g‘rilaydilar.

Xatolarni to‘g‘rilash va ularning oldini olish O‘quvchilar yo‘l qo‘ygan xatolarni guruhlash, ularning turlarini aniqlash va har bir xatoning kelib chiqish sabablarini o‘rganish asosida nutqqa oid xatolarni

to'g'rilash va ularning oldini olish tizimi ishlab chiqiladi. Bunda quyidagilarga e'tibor beriladi: - nutqqa oid xatolarni o'quvchilar daftarida to'g'rilash;

- 3-4-sinf o'quvchilari uchun umumiy bo'lgan nutqqa oid xatolar ustida sinfda ishlash (buning uchun darsning 15-20 daqiqalik qismi ajratiladi va tekshirilgan insho va bayon tahlil qilinadi, o'quvchilarning yo'l qo'yilgan xatoni mustaqil ravishda topishiga va uni to'g'rilashiga imkon beriladi);

- ayrim individual xatolar ustida darsdan tashqari vaqtda ishlash, xatoni topish, tushuntirish va to'g'rilash;

- yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan nutqiy xatolarning oldini olishga qaratilgan uslubiy mashqlar tizimi (o'qish va grammatika darslarida matnni til tomonidan tahlil qilish o'quvchilar yo'l qo'ygan xato ustida ishlash uchun asos bo'lib xizmat qiladi);

-o'quvchilarni tuziladigan matn leksikasidan, ayrim sintaktik qurilmalardan foydalanishga tayyorlash maqsadida har bir hikoya, insho, bayondan oldin uni til jihatidan mashq qilish; - imkoni bo'lsa, grammatik mavzu o'rganilayotganda, shu mavzu xatoning oldini olish uchun asos bo'lib xizmat qilishini ko'rsatish, tushuntirish;

-o'quvchilarni yozgan insho va bayonlarini o'zlari tekshirishiga va mustaqil takomillashtirishi ("tahrir qilish") ga maxsus o'rgatish.

Ko'rsatilgan yo'nalishlarning hammasi har bir sinf o'quvchilari uchun, ayniqsa, 3-va 4-sinf o'quvchilari uchun muvofiq keladi. Nutqiy xatolarni to'g'rilash va oldini olish til ustida ishlash bilan bog'lab, maqsadga muvofiq holda uyushtiriladi.

O'quvchilar og'zaki va yozma nutqida yo'l qo'ygan nutqiy xatolarni o'z vaqtida to'g'rilab borishi zarur. O'quvchi yo'l qo'ygan xatosining to'g'ri variantini o'zlashtirsin, imkoni bo'lsa, xatoning kelib chiqish sababini tushunsin. Xatoni to'g'rilashning eng foydali usuli yo'l qo'ygan xatosini o'quvchining o'zi to'g'rilashi hisoblanadi, agar o'quvchi xatosini to'g'rilay olmasa, uni o'qituvchi to'g'rilaydi. Xato turiga qarab to'g'rilanadi: gap yoki so'z birikmasi qayta tuziladi, so'z boshqasi bilan almashtiriladi, zarur so'z qo'shiladi, ortiqchasi ustidan chiziladi.

Insho yoki bayonni tahlil qilish darsida xatolar ustida ishlash maqsadi uchun darsning ikkinchi qismi 20-25 daqiqasi ajratiladi. O'qituvchi o'quvchilar insho yoki bayonni qanday yozganlari haqida qisqa tushuncha berib, eng yaxshi yozilgan matnni o'qib beradi, mazmundagi, mavzuni yoritishdagi kamchiliklar, imloviy va nutqiy xatolar aniqlanadi. Yo'l qo'yilgan xatoni to'g'rilash yo'li tushuntiriladi.

Shundan so'ng xato ustida birgalikda ishlanadi: o'qituvchi yo'l qo'yilgan xatoning bir turini to'g'rilash yuzasidan topshiriq beradi: „Noo'rin ishlatilgan so'zni boshqasi bilan almashtiring". Xatosi bor matnni o'qib yoki yozib beradi, o'quvchilar yo'l qo'yilgan xatoni topadilar, maqsadga muvofiq so'z bilan almashtirib, uni to'g'rilaydilar va tushuntiradilar.

Ayrim o'quvchilar yo'l qo'ygan individual xatolar darsdan tashqari vaqtda, qo'shimcha mashg'ulot jarayonida to'g'rilanadi. O'quvchi bilan individual suhbatda ham, sinfda jamoa bo'lib ishlash jarayonidagi kabi bolalarning aqliy faolligiga, ya'ni u xatosi nimadaligini tushunibgina qolmay, balki uni to'g'rilashi va tushuntirishiga erishish muhimdir.

Grammatikaga oid mavzuni o'rganishda o'quvchilar yo'l qo'yishi mumkin bo'lgan xatoning oldini olish uchun mazkur mavzu ularga qanday imkoniyatlar yaratishi tushuntiriladi, Masalan, Olmosh" mavzusini o'rganganda, kishilik olmoshlarining takrorlangan so'zlar o'rnida qanday ishlatilishi o'quvchilarga misollar bilan tushuntirilsa, ular ham insho yoki bayon yozishda shunga rioya qiladilar. O'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini o'stirishdagi muvaffaqiyat quyidagi uch asosiy omilga bog'liq: so'zga e'tibor bilan munosabatda bo'lish, o'quvchilarning ko'p mutolaa qilishi, atrofidagi kishilarning to'g'ri va ifodali nutqi, ya'ni nutqiy sharoit;

- bolalarning nutqiy tajribasi qanday tashkil etilishi;

- nutq o'stirishda o'qituvchining til nazariyasiga, grammatikaga, leksikologiya va stilistika elementlariga asoslanish ko'nikmasi.

O'quvchilar yo'l qo'yadigan nutqiy xatolarning asosiy turlari, ularni to'g'rilash va oldini olish yo'llari

Nutqiy xatolarga noto'g'ri (noo'rin) tanlangan so'zlar, noto'g'ri tuzilgan gaplar, morfologik shakllarni noto'g'ri ishlatish kiradi. Boshlang'ich sinflarda bunday xatolar ustida ishlash ancha qiyin, chunki ularni to'g'rilash va oldini olish uchun ona tili dasturida berilgan qisqa nazariy ma'lumot yetarli emas. Bolalar nutqini takomillashtirish ustida rejali, muntazam ish olib borish uchun asosiy nutqiy xatolar turini bilish zarur. Bunday nutqiy xatolarni o'rganish, shuningdek, ularning kelib chiqish sabablarini tekshirish xatolarni to'g'rilash va oldini olish uchun zamin hozirlaydi.

Nutqiy xatolar uch turga ajratiladi: *lug'aviy-uslubiy, morfologik-uslubiy, sintaktik- uslubiy.*

Boshlang'ich sinf o'quvchilari nutqida lug'aviy-uslubiy xatolar ko'proq uchraydi. Bunday xatolarga quyidagilar kiradi:

1. Bir soʻzni qayta-qayta ishlatish. Bunday xatoning kelib chiqishiga sabab, birinchidan, oʻquvchi soʻzni ishlatishga kam eʼtibor beradi va faol lugʻatidagi soʻzdan takroriy foydalanadi; ikkinchidan, oʻquvchining soʻz boyligi kam, sinonimlarni bilmaydi, takrorlanadigan soʻzlar oʻrniga olmoshlardan foydalana olmaydi.

Agar oʻqituvchi bir soʻzni qayta-qayta ishlatmaslik uchun uning maʼnodoshlaridan yoki shu soʻz oʻrniga olmoshlardan foydalanish kerakligini yaxshi tushuntirsa, kichik yoshdagi oʻquvchi matnni eʼtibor bilan oʻqib, takrorlarini nisbatan tez tuzata oladi.

2. Soʻzning maʼnosini yoki maʼno qirrasini tushunmaslik natijasida uni aniq maʼnosida ishlata olmaslik. Bunday xato bolaning nutqi yaxshi rivojlanmaganligi, soʻz boyligining kamligi sababli yuzaga keladi.

3. Shevaga xos soʻzlardan foydalanish. Oʻquvchilar bunday soʻzlarni ota-onalarining nutqi va nutqiy sharoit taʼsirida qoʻllaydilar. Ularda adabiy tilda qoʻllanadigan tushunchalarni shakllantirish asosida shevaga xos soʻzlarni ishlatmaslik koʻnikmasi hosil qilinadi.

Leksik xatolar xilma-xil boʻlgani uchun uni toʻgʻrilash va tushuntirish usullari ham turlicha, ammo bunday xatolarning oldini olishning umumiy yoʻli bor: bu yaxshi nutqiy sharoit yaratish, oʻqilgan va qayta hikoya qilingan matnni til tomondan tahlil qilish, matndagi soʻzlarning maʼno qirrasini tushuntirishdir.

Morfologik-uslubiy, sintaktik – uslubiy, mantiqiy xatolar. Morfologik-uslubiy xatolarga soʻz shaklini, soʻz oʻzgartuvchi va soʻz yasovchi qoʻshimchalarni notoʻgʻri qoʻllashdan kelib chiqadigan xatolar kiradi.

Sintaktik-uslubiy xatolarga soʻz birikmasi va gap tuzishga oid xatolar kiradi. Bunday xatolar juda xilma-xildir. Kompozitsion, mantiqiy va dalillarni notoʻgʻri bayon qilish nutqiy xato hisoblanmaydi.

Tipik kompozitsion xatoga insho, hikoya, bayonning tuzilgan rejaga mos kelmasligi, yaʼni voqea, kuzatishlarni bayon etishda izchillikning buzilishi kiradi. Inshoga tayyorgarlik vaqtida oʻquvchilar kuzatish, material toʻplash, dalillarni tanlashda tartibsiz, rejasiz ish tutsalar, hikoyani qanday boshlash, keyin nimalar haqida yozish va uni qanday tugatishni aniq koʻz oldilariga keltira olmaydilar, natijada kompozitsion xatoga yoʻl qoʻyadilar. Bunday xato hikoya mazmunini toʻliq qamrab ololmaslik, materialni oʻz oʻrniga joylashtira olmaslik natijasidir. Inshoni rejali, izchil yozish koʻnikmasi murakkab koʻnikma boʻlib, u

o'quvchilarda muntazam bajariladigan mashqlar yordamida asta shakllana boradi.

Mantiqiy xatolar:

1. Tasvirlanayotgan voqea-hodisa uchun zarur bo'lgan so'z, ba'zan zarur lavha, dalil tushirib qoldiriladi. Bunday xatoning sababini tushunish uchun o'quvchining insho yozish vaqtidagi rihiy holatini kuzatish talab etiladi. U sekin yozadi, ammo ishga berilib ketib, tez fikrlaydi, ya'ni u hikoya mazmunini biladi, ammo tez fikrlash va sekin yozish natijasida ayrim o'rinlar yozuvda aks etmay qoladi.

2. Mantiqiy izchillik buziladi. Masalan, *Zavodda paxtadan ip yigiriladi. Terimchi paxtani, paxta terish mashinasida teradi.* Bunday mantiqiy xatolarni o'quvchilar matnni qayta o'qish va tahlil qilish jarayonida oson to'g'rilaydilar.

Xatolarni to'g'rilash va ularning oldini olish. O'quvchilar yo'l qo'ygan xatolarni guruhlash, ularning turlarini aniqlash va har bir xatoning kelib chiqish sabablarini o'rganish asosida nutqqa oid xatolarni to'g'rilash va ularning oldini olish tizimi ishlab chiqiladi. Bunda quyidagilarga e'tibor beriladi:

- nutqqa oid xatolarni o'quvchilar daftarida to'g'rilash;
- sinf o'quvchilari uchun umumiy bo'lgan nutqqa oid xatolar ustida sinfda ishlash (buning uchun darsning 15-20 daqiqalik qismi ajratiladi va tekshirilgan insho va bayon tahlil qilinadi, o'quvchilarning yo'l qo'yilgan xatoni mustaqil ravishda topishiga va uni to'g'rilashiga imkon beriladi);
- ayrim individual xatolar ustida darsdan tashqari vaqtda ishlash, xatoni topish, tushuntirish va to'g'rilash;
- yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan nutqiy xatolarning oldini olishga qaratilgan uslubiy mashqlar tizimi (o'qish va grammatika darslarida matnni til tomonidan tahlil qilish o'quvchilar yo'l qo'ygan xato ustida ishlash uchun asos bo'lib xizmat qiladi);
- o'quvchilarni tuziladigan matn leksikasidan, ayrim sintaktik qurilmalardan foydalanishga tayyorlash maqsadida har bir hikoya, insho, bayondan oldin uni til jihatidan mashq qilish;
- imkoni bo'lsa, grammatik mavzu o'rganilayotganda, shu mavzu xatoning oldini olish uchun asos bo'lib xizmat qilishini ko'rsatish, tushuntirish;
- o'quvchilarni yozgan insho va bayonlarini o'zlari tekshirishiga va mustaqil takomillashtirishi ("tahrir qilish")ga maxsus o'rgatish.

Ko'rsatilgan yo'nalishlarning hammasi har bir sinf o'quvchilari uchun, ayniqsa, 3-va 4-sinf o'quvchilari uchun muvofiq keladi. Nutqiy

xatolarni to'g'rilash va oldini olish til ustida ishlash bilan bog'lab, maqsadga muvofiq holda uyushtiriladi.

O'quvchilar og'zaki va yozma nutqida yo'l qo'ygan nutqiy xatolarni o'z vaqtida to'g'rilab borish zarur. O'quvchi yo'l qo'ygan xatosining to'g'ri variantini o'zlashtirsin, imkoni bo'lsa, xatoning kelib chiqish sababini tushunsin. Xatoni to'g'rilashning eng foydali usuli yo'l qo'ygan xatosini o'quvchining o'zi to'g'rilashi hisoblanadi, agar o'quvchi xatosini to'g'rilay olmasa, uni o'qituvchi to'g'rilaydi. Xato turiga qarab to'g'rilanadi: gap yoki so'z birikmasi qayta tuziladi, so'z boshqasi bilan almashtiriladi, zarur so'z qo'shiladi, ortiqchasi ustidan chiziladi.

Insho yoki bayonni tahlil qilish darsida xatolar ustida ishlash maqsadi uchun darsning ikkinchi qismi 20-25 daqiqasi ajratiladi. O'qituvchi o'quvchilar insho yoki bayonni qanday yozganlari haqida qisqa tushuncha berib, eng yaxshi yozilgan matnni o'qib beradi, mazmundagi, mavzuni yoritishdagi kamchiliklar, imloviy va nutqiy xatolar aniqlanadi. Yo'l qo'yilgan xatoni to'g'rilash yo'li tushuntiriladi. Shundan so'ng xato ustida birgalikda ishlanadi: o'qituvchi yo'l qo'yilgan xatoning bir turini to'g'rilash yuzasidan topshiriq beradi: „Noo'rin ishlatilgan so'zni boshqasi bilan almashtiring“. Xatosi bor matnni o'qib yoki yozib beradi, o'quvchilar yo'l qo'yilgan xatoni topadilar, maqsadga muvofiq so'z bilan almashtirib, uni to'g'rilaydilar va tushuntiradilar.

Ayrim o'quvchilar yo'l qo'ygan individual xatolar darsdan tashqari vaqtda, qo'shimcha mashg'ulot jarayonida to'g'rilanadi. O'quvchi bilan individual suhbatda ham, sinfda jamoa bo'lib ishlash jarayonidagi kabi bolalarning aqliy faolligiga, ya'ni u xatosi nimadaligini tushunibgina qolmay, balki uni to'g'rilashi va tushuntirishiga erishish muhimdir.

Grammatikaga oid mavzuni o'rganishda o'quvchilar yo'l qo'yishi mumkin bo'lgan xatoning oldini olish uchun mazkur mavzu ularga qanday imkoniyatlar yaratishi tushuntiriladi. Masalan, „Olmosh“ mavzusini o'rganganda, kishilik olmoshlarining takrorlangan so'zlar o'rnida qanday ishlatilishi o'quvchilarga misollar bilan tushuntirilsa, ular ham insho yoki bayon yozishda shunga rioya qiladilar. O'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini o'stirishdagi muvaffaqiyat quyidagi uch asosiy omilga bog'liq:

- so'zga e'tibor bilan munosabatda bo'lish, o'quvchilarning ko'p mutolaa qilishi, atrofidagi kishilarning to'g'ri va ifodali nutqi, ya'ni nutqiy sharoit;

- bolalarning nutqiy tajribasi qanday tashkil etilishi;
- nutq o'stirishda o'qituvchining til nazariyasiga, grammatikaga, leksikologiya va stilistika elementlariga asoslanish ko'nikmasi.

***Mavzuni takrorlash va mustahkamlash uchun savollar hamda
topshiriqlar:***

1. Ontogenez nima?
2. Psixolingvistika va ontolingvistikaning o'xshash va farqli tomonlari qanday?
3. Hikoya va tasvir janrida badiiy uslubda insho yozing.
4. Tabiatni kuzatish asosida yoziladigan inshoga tayyorlanish va uni o'tkazish bosqichlarini tushuntiring.
5. O'quv -yilining yarmi uchun insho va bayon o'tkazish rejasini tuzing.
6. O'quvchilar daftarini tekshiring va nutqiy hatoning xar biriga misol tanlang.
7. Hatoning kelib chiqish sababini va uni bartaraf qilish yo'llarini tushuntiring.
8. Nutqiy hatolar ustida ishlash darsining bir qismi (20-25 min.) rejasini tuzing.
9. Uzingiz ilgari yozgan matnni taxrir qilib ko'ring. Tuzatishlaringizni sanang va turini ayting.
10. O'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini o'stirishdagi muvaffaqiyatga erishishning uch omilini misollar bilan tushuntiring.



TEST SAVOLLARI

1. «Husnixat va uni o‘qitish metodikasi» fani quyidagi qaysi fanlar guruhi bilan yaqin robitada bo‘ladi?
A) tarix, tilshunoslik, estetika, fiziologiya, pedagogika;
B) tarix, arxeologiya, matematika, psixologiya, huquq;
C) tilshunoslik, fizika, pedagogika, tarix;
D) estetika, psixologiya, zoologiya, ximiya, huquq.
2. Yozuv daftari necha gradus qiyalikda qo‘yiladi?
A) 80°;
B) 72°;
C) 65°;
D) 60°.
- 3.«Sultonul xattotayn» faxriy laqabi kimga tegishli?
A) Alisher Navoiy;
B) Behzod;
C) Sultonali Mashhadiy;
D) Hiraviy.
4. Arab yozuv tarzlarini toping.
A) xafiy va jaliy;
B) suls va nasx;
C) rido va xafiy;
D) jaliy va rayhon.
5. «Qiblatul kuttob» faxriy laqabi kimga mansub?
A) Majnun ibn Kamoliddin;
B) Ibni Muhammad;
C) Sultonali Mashhadiy;
D) Kamoliddin Behzod.
6. «Husnixat metodikasi» (Toshkent, 1976) kitobining muallifi kim?
A) Abdullaev I.;
B) Bogolyubov N.;
C) Suyunov A.;
D) G‘ulomov M.
7. «Husnixat». 2-sinf (O‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma. T.: O‘qituvchi) kitobining muallifini toping.
A) Safarov R.;
B) G‘ulomov M.;
C) Abdullaev Y.;

D) Qosimova K.

8. Qadimiy yozuv qurollari qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

A) ruchka, o'chirgich, rangli qalamlar;

B) rangli jo'shalar, nayqalam, qalamtarosh, mehrak;

C) siyohdon, ruchka, daftar, jadval;

D) husnixat daftari, mistar, chizgich, ruchka

9. Arab yozuvida imzo qo'yishda qaysi yozuv turidan foydalanganlar?

A) nasx;

B) riqo;

C) suls;

D) tug'ro.

10. Qaysi yozuv turidan Qur'onni ko'chirishda foydalanganlar?

A) riqo;

B) rayhon;

C) nasx;

D) tug'ro.

11. Munshaot (maktub) yozishda qaysi yozuv turidan foydalanganlar?

A) riqo;

B) rayhon;

C) tug'ro;

D) muqaddas.

12. Yozuv taraqqiyotining tadrijiy inkishofi bosqichlarini toping.

A) frazeografiya → logografiya → orfeografiya → fonografiya;

B) ideogramma → frazeografiya → fonogramma → orfeografiya;

C) sillabografiya → fonografiya → frazeografiya → logografiya;

D) frazeografiya → orfeografiya → fonografiya → logografiya.

13. «Odobul-mashq» kitobining muallifini toping?

A) Behzod;

B) Sultonali Mashhadiy;

C) Abdurahmon Jomiy;

D) Qazviniiy.

14. Arab xattotlik san'atining asosini qanday silsila tashkil etgan?

A) uchlik;

B) oltilik ;

C) to'rtlik;

D) beshlik.

15. «Sillabografiya» so'zi qaysi ma'noni bildiradi?

A) «so'z yozaman»;

B) «bo'g'in yozaman»;

C) «rasm chizaman»;

D) «gap yozaman».

16. «Frazeografiya» soʻzi quyidagi qaysi maʼnoni bildiradi?

A) «ovoz yozaman»;

B) «soʻz yozaman»;

C) «boʻgʻin yozaman»;

D) «gap yozaman».

17. «Fonografiya» soʻzi quyidagi qaysi maʼnoni bildiradi?

A) «ovoz yozaman»;

B) «gap yozaman»;

C) «soʻz yozaman»;

D) «boʻgʻin yozaman».

18. Amaldagi birinchi sinflarga moʻljallangan «Yozuv daftari»ning mualliftuzuvchisi kim?

A) M.Inoyatova;

B) M.Gʻulomov;

C) M.Salaeva;

D) R.Safarova.

19. Yozuvga oʻrgatishning boshlangʻich davrida bolalarning yozuv tezligi bir

daqiqada necha harfni tashkil etishi kerak?

A) 10-15 harfni;

B) 15-20 harfni;

C) 4-5 harfni;

D) 6-8 harfni.

20. Birinchi oʻquv-yilining oxirida yozuv tezligi bir daqiqada qanchani tashkil

etishi kerak?

A) 20-25 harfni;

B) 15-20 harfni;

C) 25-30 harfni;

D) 5-10 harfni.

21. Konsonant va vokal yozuvlari yozuv tarixining qaysi bosqichiga daxldor?

A) frazeografiya;

B) ideogramma;

C) fonogramma;

D) sillaborafiya.

22. «Logografiya» soʻzi qaysi maʼnoni bildiradi?

A) «so‘z yozaman»;

B) «gap yozaman»;

C) «bo‘g‘in yozaman»;

D) «rasm chizaman».

23. Parta ustining pastki qirrasi bilan suyanchiq orasidagi masofa, ya‘ni ko‘krak

qafasi bilan uning qirrasi orasidagi masofa distantsiya qancha bo‘lishi kerak?

A) 6 sm;

B) 4 sm;

C) 8 sm;

D) 2 sm.

24. Partaning distantsiyasi necha xil bo‘ladi?

A) bir xil: musbat;

B) bir xil: nol;

C) uch xil : musbat, nol, manfiy;

D) ikki xil: nol, manfiy.

25. Qanday distantsiyali parta ishlatishga loyiq?

A) nol distantsiyali;

B) musbat distantsiyali;

C) nol va musbat distantsiyali;

D) manfiy distantsiyali.

26. Parta ustining cheti o‘tirg‘ichning ichiga 4 sm masofada kirib tursa...

A) manfiy distantsiya deyiladi;

B) musbat distantsiya deyiladi;

C) nol distantsiya deyiladi;

D) nol va musbat distantsiya deyiladi.

27. Parta ustining cheti bilan o‘tirg‘ichning orasida hech qanday masofa

bo‘lmasa...

A) nol distantsiya deyiladi;

B) manfiy distantsiya deyiladi;

C) musbat va manfiy distantsiya deyiladi;

D) musbat distantsiya deyiladi.

28. Parta ustining qiyaligi necha gradusga teng bo‘lishi lozim?

A) 25° ga;

B) 20° ga;

C) 10° ga;

D) 15° ga.

29. Parta differentsiyasi deb nimaga aytiladi?

A) parta qopqog'ining cheti bilan o'tirg'ichning orasidagi masofaga;

B) parta ustining pastki qirrasi bilan suyanchiq orasidagi masofaga;

C) ko'krak qafasi bilan uning qirrasi orasidagi masofaga;

D) parta ustining pastki qirrasi bilan pol orasidagi masofaga.

30. Yozish vaqtida ko'z bilan daftar orasidagi masofa necha sm.ni tashkil qiladi?

A) 15 sm.ni;

B) 35 sm.ni;

C) 30 sm.ni;

D) 25 sm.ni.

31. Yozuv daftaridagi qiya chiziqlar orasidagi masofaga qancha bo'lishi kerak?

A) 35 mm;

B) 33 mm;

C) 22 mm;

D) 25 mm.

32. Yozuv daftaridagi kichik harflar yoziladigan parapllel chiziqlar orasidagi masofa qancha bo'lishi kerak?

A) 5 mm;

B) 10 mm;

C) 8 mm;

D) 12 mm.

33. Parta ustining cheti bilan o'tirg'ichning orasidagi masofa keng bo'lsa...

A) nol distantiya deyiladi;

B) musbat distantiya deyiladi;

C) manfiy va nol distantiya deyiladi;

D) manfiy distantiya deyiladi.

34. Yozuv daftarining qiya chiziqlari necha gradusga teng bo'lishi kerak?

A) 35°;

B) 65°;

C) 45°;

D) 50°.

35. Birinchi sinf yozuv daftaridagi katta chiziqlar orasidagi masofa

qancha
bo'lishi lozim?

- A) 8 mm;
- B) 10 mm;
- C) 6 mm;**
- D) 12 mm.

36. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun tavsiya etilgan bir chiziqli daftarning parallel chiziqlari orasidagi masofa qancha bo'lishi kerak?

- A) 5 mm;
- B) 7 mm;
- C) 12 mm;
- D) 10 mm.**

37. 2-sinfda bir chiziqli daftarga kichik harflarning bo'yi chiziqning necha qismini tashkil etishi lozim?

- A) $\frac{1}{3}$;**
- B) $\frac{1}{4}$;
- C) $\frac{1}{2}$;
- D) $\frac{1}{5}$.

38. 2-sinfda bir chiziqli daftarga bosh harflarning bo'yi qanchaga teng bo'lishi lozim?

- A) 10 mm;
- B) 12 mm;
- C) 8 mm;**
- D) 9 mm.

39. Yozuv daftarining homiyasi necha mm bo'lishi kerak?

- A) 15 mm;
- B) 30 mm;**
- C) 20 mm;
- D) 25 mm.

40. Boshlang'ich sinflarda harflarning qiyaligi qancha bo'lishi kerak?

- A) 65°;**
- B) 50°;
- C) 55°;
- D) 60°.

41. Yozish jarayonida daftar parta ustiga qanday qiyalikda turishi kerak?

- A) 52°;
- B) 50°;**

- C) **65°**;
 D) 60°.
42. Qoida bo'yicha sinf taxta (doska)si eniga qancha bo'lishi kerak?
 A) **1200 mm**;
 B) 1500 mm;
 C) 1000 mm;
 D) 2000 mm.
43. Qoida bo'yicha sinf taxta (doska)sining uzunligi qancha bo'lishi kerak?
 A) 2000 mm;
 B) 1200 mm;
 C) **3000 mm**;
 D) 4000 mm.
44. Boshlang'ich sinflarda sinf doskasi poldan qancha balandlikda joylashgan bo'lishi kerak?
 A) 100 sm;
 B) 90 sm;
 C) **85 sm**;
 D) 50 sm.
45. Genetik tamoyil nima?
 A) **harflarni o'xshash elementiga ko'ra guruhlab yozish**;
 B) harflarni ulanishiga ko'ra guruhlab yozish;
 C) shakli oson harflardan so'ng shakli murakkab harflarni guruhlab yozish;
 D) o'quvchining individual xususiyatini hisobga olib yozishni mashq qilish.
46. Yozuvga o'rgatishni o'qishga o'rgatish bilan bir paytda amalga oshirish qaysi tamoyilga kiradi?
 A) genetik tamoyil;
 B) **onglilik tamoyili**;
 C) takrorlash tamoyili;
 D) o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish tamoyili.
47. Boshlang'ich sinflarda qanday bo'rdan foydalanish tavsiya etiladi?
 A) **15x15 mm.li uzunligi 30-50 mm**;
 B) 20x20mm.li kvadrat, uzunligi 40-50 mm;
 C) 15x20 mm.li kvadrat, uzunligi 30-60 mm;

D) 10x10mm.li kvadrat, uzunligi 20-40 mm.

48. Boshlang'ich sinflarning birinchi sinflari uchun amaldagi «Yozuv daftari»ning muallif tuzuvchisi kim?

A) Q.Abdullaeva;

B) M.G'ulomov;

C) K.Qosimova;

D) N.Sobirov.

49. «Avtoruchka bilan chiroyli yozuvga o'rgatish» kitobining muallifi kim?

A) N.Tursunov;

B) Q.Abdullaeva;

C) M.G'ulomov;

D) K.Qosimova.

50. 2-sinf Ona tili darslarida husnixatga o'rgatishga necha soat ajratilgan?

A) 40 soat;

B) 32 soat;

C) 36 soat;

D) 22 soat.

51. Sinfda yorug'lik qaysi tomondan tushishi kerak?

A) chap tomondan;

B) o'ng tomondan;

C) orqadan;

D) oldindan.

52. Husnixat darslarida har necha daqiqada dam olish (jismoniy tarbiya)

mashqlari o'tkaziladi?

A) 20-25 daqiqada;

B) 10-15 daqiqada;

C) 25-30 daqiqada;

D) 15-20 daqiqada.

53. Ritmik usul to'g'ri izohlangan qatorni toping.

A) o'qituvchining sanog'i ostida yozish;

B) harf shtrixlari ustidan yozish;

C) havoda yozish;

D) yozuvni muntazam mashq qilish.

54. Yuqori qismidan tutashtiriladigan harflar berilgan qatorni toping.

A) q y v;

B) q ng g g';

C) o o' v;

D) o o' v q g y g'.

55. O'rta qismidan tutashtiriladigan harflar berilgan qatorni toping.

A) **b f g j;**

B) o o' v;

C) q y v;

D) o a v t.

56. Pastki qismidan tutashtiriladigan harflar berilgan qatorni toping.

A) **m n r t u;**

B) a d v a;

C) j j' v V;

D) y g ng q g'.

57. Yuqoridan boshlanib yoziladigan qatorni belgilang.

A) **B D E F G G';**

B) A L M N;

C) I A D;

D) A Q R S U.

58. Pastdan boshlab yoziladigan harflar qatorini belgilang.

A) **A M N;**

B) B O O';

C) P T D;

D) A va V.

59. Tutashtiruvchi unsuri bo'lmagan bosh harflar qatorini belgilang.

A) Q X Z;

B) **S O';**

C) C Q O P;

D) B M T F.

60. Harflar yozuv shakliga ko'ra necha guruhga ajratiladi? Ta'lim jarayonida qaysi shaklidan foydalaniladi?

A) **davlat o'lchamidagi (standartidagi) harflar bilan ifodalangan yozuv;**

B) bosma harflar bilan yozilgan yozuv, yozma harflar bilan ifodalangan yozuv)

C) bosma yozuv va grafik yozuv;

D) to'g'ri yozuv va yozma yozuv.

61. Tutashtiruvchi unsuri bo'lmagan bosh harflar o'zidan keyingi harflarga qanday

ulanadi?

A) qo'shimcha yordamchi chiziq bilan o'rta qismidan tutashtiriladi;

B) qo'shimcha yordamchi chiziq bilan pastki qismidan tutashtiriladi;

C) qo'shimcha yordamchi chiziq bilan o'rta va pastki qismidan tutashtiriladi;

D) qo'shimcha yordamchi chiziq bilan yuqori qismidan tutashtiriladi.

62. Tutashtiruvchi unsurli bosh harflar qayeridan tutashtirilishiga ko'ra necha

guruhga bo'linadi va ular qaysilar?

A) 2 guruhga bo'linadi: o'rta va yuqori qismidan tutashtiriladi;

B) 2 guruhga bo'linadi: pastki va yuqori qismidan tutashtiriladi;

C) guruhga bo'linmaydi, faqat pastki qismidan tutashtiriladi;

D) 2 guruhga bo'linadi: o'rta va pastki qismidan tutashtiriladi.

63. Husnixatga o'rgatish qaysi metodlarda amalga oshirilgan?

A) chiziqli metod;

B) nusxa ko'chirish metodi;

C) ijodiy metod;

D) A va B.

64. Sinf doskasi bilan 1-parta oralig'i qancha bo'ladi?

A) 1,5 metr;

B) 2 metr;

C) 3 metr;

D) 1 metr.

65. O'zbek xalqi va uning ajdodlari qaysi yozuvlardan foydalangan?

A) so'g'd, Xorazmiy, mixxat yozuvlaridan;

B) uyg'ur, arab, lotin, kiril yozuvlaridan;

C) pahlaviy, oromiy, avesto ozuvlaridan;

D) fors va chig'atoy yozuvlaridan.

66. Qadimda yozuvga o'rgatishning qaysi usullaridan foydalanilgan?

A) harflardan nusxa ko'cherish;

B) ijodiy ko'chirib yozish;

C) nusxa ko'chirish va ijodiy ko'chirib yozish;

D) mustaqil ko'chirib yozish.

67. Yozuv jarayonida ruchkaning uchi bilan barmoq oralig'i necha sm bo'ladi?

A) 1,5 sm.;

B) 2 sm.;

C) 1,5-2 sm.;

D) 1 sm.

68. Bir chiziqli daftarda harflar bo'yi necha mm. bo'ladi.

A) kichik harf 4 mm, bosh harf 8 mm.;

B) kichik harf 3 mm, bosh harf 7 mm.;

C) kichik harf 3 mm, bosh harf 6 mm.;

D) kichik harf 5 mm, bosh harf 8 mm.;

69. Yozuvga o'rgatishni o'qishga o'rgatish bilan bir paytda amalga oshirish qaysi

tamoyilga kiradi?

A) genetik tamoyil;

B) onglilik tamoyili;

C) takrorlash tamoyili;

D) o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish tamoyili.

70. Tutashtiruvchi unsuri bo'lmagan bosh harfni belgilang.

A. Q;

B. S;

C. G;

D. G'.

71. Pastki qismidan tutashtiriladigan harfni toping.

A) o;

B) a;

C) q;

D) g.

72. O'zbek hattotlari nomi berilgan qatorni aniqlang.

A) Sulton Ali Mashhadiy, Mir Ali Qilqalam;

B) Abdurahmon Jomiy, Hofiz Sheroziy;

C) Behzod;

D) A B C.

73. O'rta qismidan tutashtiriladigan harf berilgan javobni toring.

A) A;

B) F;

C) G';

D) E.

74. Yozuv jarayonida ruchkaning uchi bilan barmoq oralig'i necha sm bo'ladi?

A) 3 sm.;

B) 2,5 sm.;

C) 1,4 sm;

D) 1,5-2 sm.

75. Husnixat o'qitish metodikasining o'rgatish predmeti qaysi javobda

to'g'ri
berilgan?

A) ta'lim berish sharoitida chiroyli yozuvni egallash, grafik jihatdan to'g'ri,

chiroyli yozishga o'rgatish;

B) husnixatga o'rgatish mehnat qobiliyatini shakllantiradi;

C) husnixatga o'rgatish imlo xatolarining oldini oladi;

D) husnixatga o'rgatish pedagogik va ijtimoiy ahamiyatga ega.

76. Grafik malakalar qaysi o'quv faoliyatlari bilan bog'liq?

1. O'qish faoliyati. 2. Imlo. 3. Chizmachilik. 4. Rassomchilik. 5.

Nutqiy

faoliyat bilan.

A) 1, 2, 5;

B) 1, 2, 3, 5;

C) 1, 2, 3;

D) 1, 2, 3, 4, 5;

77. Yuqori qismidan tutashtiriladigan harf berilgan qatorni toping.

A) u;

B) v;

C) y;

D) a.

78. Yozuv jarayonida daftar qiyaligi va daftar bilan ko'z oralig'i qancha bo'ladi?

A) daftar qiyaligi 250, daftar va ko'z oralig'i 25 sm.;

B) daftar qiyaligi 450, daftar va ko'z oralig'i 30 sm.;

C) daftar qiyaligi 300, daftar va ko'z oralig'i 30 sm.;

D) to'g'ri javob yo'q.

79. O'rta qismidan tutashtiriladigan harf berilgan qatorni toping.

A) f;

B) o;

C) u;

D) o'.

80. Yuqoridan boshlanib yoziladigan harfni toping.

A) Y;

B) A;

C) I;

D) M.

81. Pastdan boshlab yoziladigan harfni toping.

A) A;

B) O;

C) S;

D) L.

82. Yozuv nima?

A) yozuv - biror tilda qabul qilingan maxsus belgilar yig'indisi;

B) yozuv bu alifbo;

C) yozuv bu maxsus belgilar;

D) yozuv bu davlat tomonidan qabul qilingan harflar tartibi.

83. Ayni damda dunyo xalqlarining necha foizi lotin yozuvidan foydalanadi?

A) dunyo aholisining 20% ga yaqini foydalanadi;

B) dunyo aholisining 40% ga yaqini foydalanadi;

C) dunyo aholisining 50% ga yaqini foydalanadi;

D) dunyo aholisining 30% ga yaqini foydalanadi.

84. Alifbodagi harflar yozilish shakliga ko'ra necha turga ajratiladi?

A) 4 turga ajratiladi;

B) 3 turga ajratiladi;

C) 2 turga ajratiladi;

D) 5 turga ajratiladi.

85. 2007-yilda "Ma'naviyat" nashriyoti tomonidan chiqarilgan "Alifbe"ning mualliflarini toping.

A) K.Qosimova, S.Asatov;

B) R.Safarova, M.Inoyatova, M.Shokirova, L.Shermamatova;

C) O.Sharofiddinov, Q.Abdullayeva;

D) Q.Abdullayeva, M.Shokirova.

86. 2007-yilda "Ma'naviyat" nashriyoti tomonidan chiqarilgan "Alifbe" qaysi harf bilan boshlanadi?

A) A harfi bilan;

B) O harfi bilan;

C) N harfi bilan;

D) B harfi bilan.

87. O'zbek "Alifbosi" tarkibida qaysi belgilar kiritilgan?

A) so'roq belgisi;

B) tutuq belgisi;

C) undov belgisi;

D) nuqta belgisi.

88. Harf birikmasi berilgan javobni toping.

A) G‘;

B) O‘;

C) Ch;

D) Q.

89. Parta ustining cheti o‘tirg‘ichning ichiga 4 sm masofada kirib tursa...

A) nol distantsiya deyiladi;

B) musbat distantsiya deyiladi;

C) manfiy distantsiya deyiladi;

D) nol va musbat distantsiya deyiladi.

90. Qo‘l uzib yoziladigan harfni toping.

A) R;

B) Z;

C) O;

D) J.

91. Yozuv daftarining qiya chiziqlari necha gradusga teng bo‘lishi kerak?

A) 75°;

B) 50°;

C) 55°;

D) 65°.

92. Yuqoridan boshlanib yoziladigan harfni toping.

A) I;

B) M;

C) L;

D) N.

93. O‘rta qismidan tutashtiriladigan harf berilgan javobni toring.

A) Z;

B) T;

C) Y;

D) E.

94. Pastki qismidan tutashtiriladigan harfni toping.

A) v;

B) t;

C) q;

D) g.

95. Yozuv daftari necha gradus qiyalikda qo‘yiladi?

A) 63°;

B) 75°;

C) 45°;

D) 65°.

96. Yozuv taraqqiyotining tadrijiy inkishofi bosqichlarini toping.

A) ideogramma → frazeografiya → fonogramma → orfeografiya;

B) frazeografiya → logografiya → orfeografiya → fonografiya;

C) orfeografiya → fonografiya → frazeografiya → logografiya;

D) frazeografiya → orfeografiya → fonografiya → logografiya.

97. Amaldagi birinchi sinflarga mo'ljallangan «Yozuv daftari»ning mualliftuzuvchisini toping.

A) Q.Abdullayeva;

B) O.Sharofiddinov;

C) M.G'ulomov;

D) R.Safarova.

98. «Fonografiya» so'zi quyidagi qaysi ma'noni bildiradi?

A) «bo'g'in yozaman»;

B) «gap yozaman»;

C) «so'z yozaman»;

D) «ovoz yozaman».

99. Parta ustining pastki qirrasi bilan suyanchiq orasidagi masofa, ya'ni ko'krak

qafasi bilan uning qirrasi orasidagi masofa distantsiya qancha bo'lishi kerak?

A) 8 sm;

B) 3 sm;

C) 2 sm;

D) 4 sm.

100. Pastdan boshlab yoziladigan harfni toping.

A) Z;

B) O;

C) U;

D) A.



GLOSSARIY

O'zbek	Rus	Ingliz
Alifbo – biror tilning yozuviga qabul qilingan va ma'lum an'anaviy tartib berilgan yozuv belgilari (masalan, arab alifbosi, lotin alifbosi) yoki bo'g'in belgilar (masalan, hind alifbosi – devanagari) majmui.	Алфавит — традиционный и общепринятый порядок написания языка. заданный набор письменных символов (например, арабский алфавит, латиница) или слоговых символов (например, индийский алфавит — деванагари).	The alphabet is a traditional and accepted order in the writing of a language a given set of written characters (e.g. Arabic alphabet, Latin alphabet) or syllabic characters (e.g. Indian alphabet - Devanagari).
Alfavit- yunon alifbosining alfa va beta (vita) harflari nomidan olingan bo'lib, alifbo (arab alifbosining boshlang'ich ikki harfi – alif va bo nomidan olingan) ham deyiladi.	Алфавит — это традиционный и обычно упорядоченный письменный язык. заданный набор письменных символов (например, арабского алфавита, латиницы) или слоговых символов (например, индийского алфавита - деванагари).	The alphabet is a traditional and generally ordered written language. zadannyu nabor written symbols (for example, the Arabic alphabet, Latin) or slogovykh symbols (for example, the Indian alphabet - Devanagari).
Avtoruchka - asosiy yozuv quollaridan biri bo'lib, qopqoq ichida siyohli naycha (sterjen)si bor. Naycha uchida kichkina sharikcha qo'yilgan. Muayyan bosim ostida sharikcha aylanib, o'zidan rangli iz qoldiradi. XIX asrning ikkinchi yarmidan ruchka bilan yozish rasm bo'la boshlagan. Shu davrda o'zbek tilida "Po'lod qalam" atamasi paydo bo'lgan.	Перьевая ручка — один из основных пишущих инструментов, чернила которой находятся внутри крышки. есть трубка (осетровая). На конце трубки помещается небольшой шарик. Под определенным давлением шарик вращается и оставляет цветной след. Со второй половины XIX века письмо пером стало превращаться в живопись. В этот период на Узбекском языке Появился термин	A fountain pen is one of the basic writing instruments, with ink inside the cover there is a tube (sturgeon). A small ball is placed at the end of the tube. Under certain pressure, the ball rotates and leaves a colored mark. From the second half of the 19th century, writing with a pen began to become a painting. During this period in Uzbek language The term "steel pen" appeared.

	«стальная ручка».	
Daftar - asosiy yozuv qurollaridan biri bo'lib, kitob shaklida tikilgan oq qog'olar majmuidan tarkib topgan. U birinchi navbatda sifatli oq qog'ozdan, silliq va chiziqlari aniq ko'rinib turadigan bo'lishi kerak.	Блокнот – один из основных пишущих инструментов, белый, выполненный в форме книги. состоит из набора документов. Прежде всего, он изготовлен из качественной белой бумаги, гладкой. и линии должны быть четко видны.	A notebook is one of the main writing instruments, a white one made in the form of a book composed of a set of papers. First of all, it is made of high-quality white paper, smooth and lines should be clearly visible.
Differensiya - parta qopqog'ining cheti bilan o'tirg'ichning orasidagi masofa.	Разница между краем чехла стола и сиденьем. Расстояние	The difference is between the edge of the desk cover and the seat distance
Distansiya - parta ustining pastki qirrasi bilan suyanchiq orasidagi masofaga aytiladi. Bu masofa, ya'ni ko'krak qafasi bilan uning qirrasi orasidagi masofa 4 sm bo'lishi lozim.	Расстояние – расстояние между нижним краем столешницы и спинкой. Это расстояние, то есть расстояние между сундуком и его краем, составляет 4 см. должно быть.	Distance - the distance between the lower edge of the table top and the backrest. This distance, that is, the distance between the chest and its edge, is 4 cm should be.
Elektron interfaol doska – bu sensorli kopyuterga ulangan ekran bo'lib, kompyuterga ishni boshlash uchun interfaol doska yuziga qo'l tegizsangiz bo'ldi u ishlab ketadi. SMART Notebook nomli maxsus ta'minlash dasturi esa interfaol doskalarda ishlashni osonlashtiradi, matnlar va audio - videomateriallar ustida ishlashni ta'minlaydi.	Электронная интерактивная доска — это экран, подключенный к компьютеру с сенсорным экраном. все, что вам нужно сделать, это коснуться поверхности интерактивной доски, чтобы начать работу на компьютере оно работает. Специальное программное обеспечение SMART Notebook упрощает работу с интерактивными	An electronic interactive whiteboard is a screen connected to a touchscreen computer. all you have to do is touch the surface of the interactive whiteboard to start working on the computer it works. The special software called SMART Notebook makes it easier to work on interactive whiteboards, on texts and audio-video materials. provides work.

	досками, текстами и аудио-видео материалами. обеспечивает работу.	
Fonografiya - fonos-ovo,z, grafiya- yozaman, ya'ni fonema yozaman ma'nosini bildiradi.	Фонография – фонозвук, графия- пишу, то есть пишу фонемы. означает.	Phonography - phonosound, grafia- I write, that is, I write phonemes means.
Frazeografiya - fraza, gap, grafiya - yozaman, ya'ni gar yozaman ma'nosini bildiradi.	Фразеография – фраза, предложение, график – напишу, то есть напишу. Означает	Phraseography - phrase, sentence, graph - I will write, that is, I will write means
Jalliy – xattotlikda bu mashq turi kechasi amalga oshirilgan. Chunki jalliy yozuvi katta-katta yozilar edi.	Джалли – этот вид практики в каллиграфии выполнялся ночью. Потому что это очевидно надпись была написана крупными буквами.	Jalli - this type of practice in calligraphy was performed at night. Because it's obvious the writing was written in large letters.
Konsonant yozuvlari – bu yozuvlarga finik, ugarit, ibron, orom, arab va boshqa yozuvlar mansub bo'lib, ularga har bir asosiy alomat (harf) faqat undosh ovozlarni ifodalaydi.	Согласные письменности включают финикийское, угаритское, еврейское, арамейское, арабское и к ним принадлежат остальные письменности, каждый главный знак (буква) — только согласная представляет голоса.	Consonant scripts include Phoenician, Ugaritic, Hebrew, Aramaic, Arabic and other writings belong to them, each main sign (letter) is only a consonant represents the voices.
Logografiya - logos - so'z, grafiya – yozaman, ya'ni so'z yozaman ma'nosini bildiradi. Logografiya “muqaddas yozuv” ham deyiladi.	Логография – logos – слово, grafia – пишу, то есть пишу слова. означает. Логографию еще называют «священным письмом».	Logography - logos - word, grafia - I write, that is, I write words means. Logography is also called "sacred writing".
Manfiy distansiya – bu distansiyada parta ustining cheti o'tirg'ichning ichiga 4 sm masofada kirib turadi. Distansiyasi manfiy bo'lgan partalar boshlang'ich sinf	Отрицательное расстояние — это край стола на этом расстоянии. проникает в него на расстояние 4 см. Столы с отрицательным расстоянием	Negative distance is the edge of the desk at this distance penetrates into it at a distance of 4 cm. Desks with negative distance It is very convenient for elementary school

o'quvchilari uchun juda qulay bo'lib, gigiyenik talablarga to'liq javob beradi.	Он очень удобен для учащихся младших классов и отвечает всем гигиеническим требованиям. ответы.	students and meets all hygienic requirements answers.
Musbat distansiya – bu distansiyada parta ustining cheti bilan o'tirg'ich orasidagi masofa teng bo'ladi.	Положительное расстояние – это сиденье, при котором край столешницы находится на этом расстоянии. расстояние между ними одинаковое.	Positive distance is a seat with the edge of the tabletop at this distance the distance between them is equal.
Nazariy mashq – boshqalar xatini aynan ko'chirish.	Теоретическое упражнение – точное копирование чужого письма.	Theoretical exercise - copying other people's letter exactly.
Nol distansiya – bu distansiyada parta ustining cheti bilan o'tirg'ichning orasida hech qanday masofa bo'lmaydi.	Нулевое расстояние — сядьте так, чтобы край стола находился на этом расстоянии. между ними не будет расстояния.	Zero distance - sit with the edge of the desk at this distance there will be no distance between them.
Piktografiya - piktus-tasvir, grafiya-yozaman, ya'ni tasvir yozaman ma'nosini bildiradi. Piktografiya “rasmli yozuv” ham deyiladi.	Пиктография – pictus-изображение, grafia-пишу, то есть пишу картинку. означает. Пиктографию еще называют «изобразительным письмом».	Pictography - pictus-image, grafia-write, that is, I write a picture means. Pictography is also called "pictorial writing".
Qalam – (karandash – turkcha karadas – “qora tosh” so‘zidan olingan) asosiy yozuv qurollaridan biri bo‘lib, yog‘och tayyoqcha ichida qora bo‘yog‘i bor. Markaziy Osiyoda xat siyohda qalam (qamish qalam, savag‘ich qalam) bilan yozilgan., hozirgi qalam esa qarindoshqalam	Карандаш (от турецкого слова карадас — «черный камень») является одним из основных пишущих инструментов и имеет черную краску внутри деревянной палочки. В Средней Азии письмо писалось чернилами пером (тростниковое перо, перо савагич), а нынешнее перо	A pencil (from the Turkish word karadas - "black stone") is one of the main writing instruments and has black paint inside a wooden stick. In Central Asia, the letter was written in ink with a pen (reed pen, savagich pen), and the current pen is called a karindosh pen (pencil).

(karandash-qalam) deb yuritilgan.	называется кариндош пером (карандаш).	
Qalamiy usul - xattotlikda chiroyli nusxada qarab payvasta mashq qilishdir.	Метод пера заключается в отработке сварки, рассматривая красивый каллиграфический экземпляр.	The pen method is to practice welding by looking at a beautiful copy in calligraphy.
“Qiblatul- kuttob” - kitoblar qiblası.	«Киблатуль-кутаб» — Кибла книг.	"Qiblatul-kuttab" - Qibla of books.
Sillabografiya – sillabo - bo‘g‘in, grafiya – yozaman ma’nosini bildiradi, ya’ni bo‘g‘in yozaman.	Силлабография – syllabo – слог, grafia – значит писать, то есть я пишу слог.	Syllabography - syllabo - syllable, grafia - means to write, that is, I write a syllable.
Sinf taxtasi (Doska) - linoliumdan yoki taxtadan yasalgan bo‘lib, eniga 1200 mm, uzunligi 3000 mm bo‘lishi kerak. Sinf taxtasi yozuvning aniq va chiroyli bo‘lishiga asosiy rol o‘ynaydi. Sinf taxtasidagi chiziqlar o‘quvchilarning daftarlaridagi chiziqlardan o‘n marta kata bo‘lishi kerak.	Классбордин (Board) – из линолеума или доски, широкий. 1200 мм, длина должна быть 3000 мм. Написание классной доски понятное и это играет ключевую роль в том, чтобы быть красивым. Линии на классной доске оно должно быть в десять раз больше строк в тетрадях учащихся.	Class board (Board) - made of linoleum or board, wide 1200 mm, length should be 3000 mm. Class board writing is clear and it plays a key role in being beautiful. Lines on the classroom board it should be ten times larger than the lines in students' notebooks.
“Sutonul-xattotayn” - xattotlar sultoni.	«Сутонул-хаттатайн» — султан каллиграфов.	"Sutonul-khattatain" - the Sultan of calligraphers.
Vokal yozuvlari – bu yozuvlarda har bir asosiy alomat (harf) ham unli va ham undosh ovoyni bildiradi.	Ноты гласных - в этих нотах каждый главный символ (буква) имеет гласную и также означает согласный звук.	Vowel notes - in these notes, each main character (letter) has a vowel and also means a consonant sound.
Xafiy - xattotlikda bu mashq turi kunduzi amalga oshirilgan. Chunki xafiy yozuvi kichik-kichik yozilar edi.	В каллиграфии Хафи этот тип упражнений выполнялся в течение дня. Потому что это секрет надпись была написана	In Khafi calligraphy, this type of exercise was done during the day. Because it's secret the writing was written in small letters.

	мелкими буквами.	
“Xatlar kelinchagi” - nasta’liq xati o‘zining go‘zalligi va nafosati uchun shunday nom olgan.	«Невеста письма» — письмо-поощрение за красоту и элегантность. получил это имя.	"Bride of letters" is a letter of encouragement for its beauty and elegance got that name.
Xattotlik (kalligrafiya) - chiroyli va to‘g‘ri yozish san’ati, kitob ko‘chirish kasbidir.	Каллиграфия – искусство красивого и правильного письма, копирования книг. это профессия.	Calligraphy is the art of beautiful and correct writing, copying books is a profession.
Xayoliy mashq – erkin mashq.	Воображаемое упражнение – это свободное упражнение.	Imaginary exercise is free exercise.
Yozuv - muayyan bir tilda qabul etilgan va kishilar o‘rtasidagi muloqotga xizmat qiladigan yozma belgilar yoki tasvirlar tizimi. U kishilarning o‘zaro aloqa qilishida, fikr almashishida muhim vositadir.	Письмо – это общение между людьми на определенном языке. система письменных символов или изображений, которые служат. Это взаимодействие людей это важный инструмент для обмена идеями.	Writing is a communication between people in a certain language a system of written symbols or images that serve. It is the interaction of people it is an important tool for exchanging ideas.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Mamatova G., Boqiyeva H., Masharipova U., Sattorova X. Husnixat va uni o'qitish metodikasi. -T.: DPU.
2. Safarova R., Inoyatova M. Alifbe kitobi (1-sinf uchun darslik). – T.: O'zbekiston.: 2021.
3. Y.Y.Azimov, Sh.Y.Yusufzoda “Husnixat o'qitish texnologiyasi”. Darslik “Fan va ta'lim” 2022
- 4.Safarova R., Inoyatova M., G'ulomov M., Sayfurov D., Malikova D. Metodik qo'llanma : o'qituvchilar uchun metodik qo'llanma. –T.: Respublika ta'lim markazi. 2021.
5. X. X. Axmadovich “Ona tili o'qitish metodikasi”. O'quv qo'llanma. Buxoro-2022
- 6.Qo'ldoshev B. Yozma ishlarni o'tkazish va baholash metodikasi. – Andijon, 2006.
7. Qosimova K., Matjonov S., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o'qitish metodikasi. –T.: Noshir, 2009
8. X .G'ulomova, Sh. Yo'ldosheva, G.Mamatova, H .Boq iyeva, A .Sobirova “Husnixat va uni o'qitish metodikasi” . O'quv qo'llanma Toshkent «Iqtisod - moliya» 2007
9. X. X. Axmadovich “Ona tili - o'qish savodxonligi va uni o'qitish metodikasi”. Darslik. Buxoro-2023
- 10.O'qish savodxonligi” 3-sinf (I qism) darslik, novda edutainment Toshkent -2023. B-16
- 11.O'qish savodxonligi” 2-sinf (III qism) darslik, novda edutainment Toshkent -2023. B-8
12. "Иванов П.И. Умумий психология. "Ўқитувчи", Тошкент, 1967, 306-бет.
13. “O'qish savodxonligi” 1-sinf (I qism) darslik, novda edutainment Toshkent -2023 B-29

MUNDARIJA:

KIRISH	4
1-MAVZU: HUSNIXAT O'RGATISHNING MAQSAD VA VAZIFALARI	5
2-MAVZU: O'QUVCHILARNI CHIROYLI YOZUVGA O'RGATISHNING PEDAGOGIK VA IJTIMOIIY AHAMIYATI	11
3-MAVZU: YOZUV TARIXIDAN MA'LUMOT	17
4-MAVZU: QADIMGI KISHILARNING O'Z FIKRLARINI BOSHQALARGA YETKAZISH ISTAGI	31
5-MAVZU: O'QUVCHILARNING O'QIY Olishi UCHUN YOZUVNING ANIQ, RAVSHAN BO'LISHIGA INTILGANI HAQIDA MA'LUMOT	37
6-MAVZU: HUSNIXATGA O'RGATISH METODIKASINING SHAKLLANISH TARIXI	48
7-MAVZU: YOZUV MATERIALLARI VA QUROLLARI. YOZUVNING GIGIYENIK SHARTLARI	54
8-MAVZU: ALIFBONING YOZMA SHAKLI. HUSNIXAT DAFTARIGA QO'YILADIGAN TALABLAR.	74
9-MAVZU: NUTQ O'STIRISHNING PSIXOLINGVISTIK VA INKLYUZIV OMILLARI	72
TEST SAVOLLARI	133
GLOSSARIY	148
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI	154

Eshonqulova Malika Zayniddin qizi

HUSNIXAT O‘QITISH METODIKASI

O‘quv qo‘llanma

Muharrir:

E.Eshov

Tex. muharrir:

D.Abduraxmonova

Musahhih:

M.Shodiyeva

Badiiy rahbar:

M.Sattorov

Nashriyot litsenziyasi № 022853. 04.03.2022.

**Original maketdan bosishga ruxsat etildi: 25.02.2025. Bichimi
60x84. Kegli 16 shponli. “Times New Roman” garnitura 1/16.**

Elektrografik usulda. Oddiy bosma qog‘ozi.

Bosma tabog‘i 9,75. Adadi 100. Buyurtma №_



KAMOLOT

“BUXORO DETERMINANTI” MCHJ

bosmaxonasida chop etildi.

Buxoro shahar Namozgoh ko‘chasi 24-uy

Tel.: + 998 91 310 27 22